9. Jolibekova, M.. (2024). THE USE OF NUMBERS IN PROVERBS IN ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGES. *Наука и технология в современном мире*, 3(3), 44–45. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/view/28995>

*Jo'rayeva N.M.
"Fizika" kafedrası o'qituvchisi
Jizzax politexnika instituti
O'zbekiston*

MAKSVELL MAYATNIGI YORDAMIDA JISMLARNING INERTSIYA MOMENTINI ANIQLASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada - talabalarni faol ta'lim olish jarayoniga jalb qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda fizika fani bo'yicha o'quv materiallarini puxta o'zlashtirish, zamonaviy va yangi o'quv-laboratoriya asbob va jihozlaridan samarali foydalanishda talabalarga yordam berish ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Inertsiya momenti, kuch momenti, burchak tezlik, Maksvell mayatnigi, Shteyner teoremasi, disk, halqa.

*Jorayeva N.M.
teacher
"Physics" department
Jizzakh Polytechnic Institute
Uzbekistan*

DETERMINING THE MOMENT OF INERTIA OF A RIGID BODY USING A MAXWELL PENDULUM

Abstract. In this article – to involve students in the process of active learning, to improve their knowledge, skills and competences, to thoroughly master the educational materials in physics, to use modern and new teaching-laboratory tools and equipment effectively. is shown to assist students in use.

Key words: Moment of inertia, moment of force, angular velocity, Maxwell's pendulum, Steiner's theorem, disk, ring.

Kirish: Fizika fanidan laboratoriya ishlarini bajarishdan maqsad talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, fizika qonunlarini kundalik turmushda hamda ishlab chiqarishda qo'llay bilishlariga zamin tayyorlash, amaliy ko'nikma va o'lchov malakalarini hosil qilishdan iborat.

Laboratoriya sharoitida jismlarning inertsiya momentini turli laboratoriya qurilmalari yordamida aniqlash mumkin (masalan, Oberbek mayatnigi, trifilyar osma mayatnik va shu.k.lar). Xuddi shunday qurilmalardan biri bo'lgan Maksvell mayatnigi yordamida ham jismlarning inertsiya momentini aniqlash mumkin.

Inertsiya momenti jismlarning aylantiruvchi moment ta'sirida burchak tezliklarining o'zgarishini xarakterlovchi fizik kattalik hisoblanadi.

Moddiy nuqtaning biror aylanish o'qiga nisbatan inertsiya momenti deganda uning m massasini aylanish o'qidan shu nuqtagacha bo'lgan r masofaning kvadratiga ko'paytmasi tushuniladi: $J = m \cdot r^2$ (1)

Biror o'q atrofida aylanuvchi qattiq jismning inertsiya momenti ayrim elementar bo'lakcha-larning shu o'qqa nisbatan inertsiya momentlarining

$$\text{yig'indisiga teng: } J = \sum_{i=1}^n \Delta m_i r_i^2 \quad (2)$$

Agarda jismning markazi orqali o'tuvchi o'qqa nisbatan inertsiya momenti J_0 , bo'lsa, shu o'qqa parallel bo'lgan istalgan o'qqa nisbatan inertsiya momenti quyidagi formuladan topiladi: $J = J_0 + md^2$ (3)

Bu formula Shteyner formulasi deyiladi. Bu yerda d-o'qlar orasidagi masofa, m- jismning massasi.

Qattiq jism aylanma harakati uchun dinamikaning asosiy qonuni quyidagicha yoziladi: $M = \frac{d(J\omega)}{dt}$ (4) bu yerda M- jism qo'yilgan kuch momentlarining yigindisi, ω - uning aylani-shidagi burchak tezligi.

Agarda $M=0$ bo'lsa, u holda $\frac{d(J\omega)}{dt} = 0$ va $J \cdot \omega = const$ bo'ladi.

$J \cdot \omega$ - kattalik harakat momentining impulsi deb ataladi. Shunday qilib aylanma harakat qiluvchi jismga aylantiruvchi momenti ta'sir etmasa, u holda doimiy impuls momenti saqlangan holda uzoq vaqt aylanishi mumkin.

Berk sistema uchun harakat miqdori momentining saqlanish qonunini yozamiz

$$\sum_{i=1}^n J_i \omega_i = const \quad (5)$$

Demak, aylanma harakatda jismning ilgariylanma harakatdagi massasi m o'rniga uning inertsiya momenti J va chiziqli tezligi v o'rniga burchak ω -tezligi ishlatiladi.

Maksvell mayatnigi - gorizontol o'qda simmetrik va qattiq mahkamlangan, ikkita cho'zilmaydigan ip bilan osilgan massiv diskdan iborat qurilma. Muvozanatdan chiqarilgan mayatnik vertikal tekislikda tebranishi mumkin.


Mayatnik elektromagnit yordamida yuqori holatda ushlab turiladi. Elektromagnit o'chirilganda, gorizontol o'q atrofida aylanadigan Maksvell mayatnik tezlanish bilan vertikal pastga tushadi.

Bunday holda, energiyaning saqlanish qonuni bajariladi, ya'ni, ko'tarilgan mayatnikning potentsial energiyasi ilgariylanma va aylanma harakatining kinetik

$$\text{energiyasiga aylanadi } mgh = \frac{m g^2}{2} + \frac{J\omega^2}{2} \quad (6)$$

bu yerda $m = m_0 + m_d + m_k$ - Maksvell mayatnikining massasi; m_0 - mayatnik o'qining massasi; m_d - diskning massasi; m_k - halqaning massasi.

Olingan ifoda J mayatnikning inertsiya momentini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.



1-rasm. Maksvell mayatnigining umumiy ko‘rinishi.

(6) tenglamadan mayatnikning inertsiya momentini topish mumkin. Buning uchun mayatnikning h balandligi orqali v va ω qiymatlarini ifodalaymiz. Mayatnikning pastga siljish harakatini boshlang‘ich tezligi v_0 bilan bir xilda tezlashtirilgan deb faraz qilsak, kinematik tenglamadan:

$$h = \frac{at^2}{2}, a = \frac{g}{t}, h = \frac{g \cdot t}{2}, g = \frac{2h}{t}, \omega = \frac{g}{R} = \frac{2h}{R \cdot t} \quad (7)$$

bu yerda R - disk o‘qining radiusi. Topilgan v va ω qiymatlarini (6) ifodaga almashtirib, biz quyidagilarni olamiz:

$$mgh = \frac{4mh^2}{2t^2} + \frac{4Jh^2}{2R^2 \cdot t^2} \quad (8)$$

(8) ifoda inertsiya momentiga nisbatan o‘zgartiriladi:

$$J = mR^2 \left(\frac{gt^2}{2h} - 1 \right) \quad (9)$$

(9) ifoda mayatnikning inertsiya momentini tajribaviy aniqlash uchun ishchi formuladir.

Maksvell mayatnikining inertsiya momentining nazariy qiymati inersiya momentlarining yig‘indisiga teng:

a) Mayatnik o‘qining inertsiya momenti

$$J_0 = \frac{1}{8} m_0 D_0^2 \quad (10)$$

bu yerda m_0 va D_0 - mayatnik o‘qining massasi va tashqi diametri.

b) Diskning inertsiya momenti

$$J_d = \frac{1}{8} m_d (D_o^2 + D_d^2) \quad (11)$$

Bu yerda m_d va D_d diskning massasi va tashqi diametri.

c) halqaning inertsiya momenti $J_h = \frac{1}{8} m_h (D_d^2 + D_h^2)$ (12)

bu yerda m_h va D_h - halqaning massasi va tashqi diametri, u holda

$$J_{nazariv} = J_0 + J_d + J_h$$

$$J_{nazariv} = \frac{1}{8} m_0 D_0^2 + \frac{1}{8} m_d (D_0^2 + D_d^2) + \frac{1}{8} m_h (D_d^2 + D_h^2) \quad (13)$$

(13) ifoda Maksvell mayatnikining inertsiya momentining nazariy qiymatini aniqlash uchun ishchi formuladir.

Ushbu tajriba qurilmasida olingan natijalarni to'g'ri baholash uchun mayatnik inertsiya momentining tajribaviy $J_{tajriba}$ va nazariy $J_{nazariy}$ qiymatlarini solishtirish kerak.

Inertsiya momentini aniqlashdagi xatolar quyidagicha ifodalanadi:

$$\varepsilon = \frac{|J_{nazariy} - J_{tajriba}|}{J_{nazariy}} \cdot 100\% \quad (14)$$

Xulosa: Talabalarining nazariy olgan bilimlarini mustahkamlashda, ularning turli o'quv-laboratoriya jihozlari (laboratoriya universal ta'minlash manbai, o'quv laboratoriya ampermetri va voltmetri, raqamli sekudomer, elektron tarozi va sh.k.lar) bilan ishlash ko'nikma va malakalarini hosil qilish katta ahamiyatga egadir. Chunki mustaqil bajariladigan tajribalar ularning bilim, ko'nikma va malakalarini ongli ravishda oshirish, fikrlash qobiliyatini va fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, kuzatuvchanlik hissiyatini oshirish, borliqni to'g'ri idrok etishni shakllantirishga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustafaqulov A.A., Jo'rayeva N.M., Axmadjonova U.T. Fizikadan laboratoriya ishlari. O'quv qo'llanma. –Toshkent: “Guzal Print tipografiyasi”, 2022, 266 bet.
2. Mustafakulov, A. A., Akhmadzhonova, U. T., & Juraeva, N. M. (2020). Innovative technology-hydrothermal growth of synthetic mineral raw materials. *Economy and society*, 6, 924-927.
3. Qulboyev, Z., Urinov, S., & Abduraxmonov, A. (2021). Texnika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida fizikani o'qitishda ta'lim klasteri metodidan foydalanishga doir ba'zi tavsiyalar. *Science and Education*, 2(11), 939-945.
4. Juraeva, N. M. (2023). Use of innovative technologies in teaching physics. *Экономика и социум*, (3-2 (106)), 152-154.

*Jumanov A.N.
senior teacher
Department of Energy
Jizzakh Polytechnic Institute
Uzbekistan*

WAYS TO SOLVE CURRENT ENERGY PROBLEMS

Annotation. The article analyzes the estimates of international organizations that due to economic development, the demand for energy will increase by more than 50% by 2030 compared to the beginning of the century, and the total demand will be very high, resulting in a negative impact on the environment.

Keywords: alternative energy sources, renewable energy, solar power, atmosphere, solar power plants, carbon dioxide, wind power plants.

According to international organizations, due to economic development, by 2030 the demand for energy will increase by more than 50% compared to the beginning of the century, and the total demand will be 23.27 billion tons of conventional fuel. This means that the negative impact on the environment is growing.

If such rates continue, it is estimated that the reserves of black gold on the planet will last only 55-60 years. This period is estimated at 70-75 years for natural gas and 150-160 years for coal. In addition, the sustainable use of hydrocarbon resources is degrading the environment and human health, climate change is being observed, and the ozone layer is being depleted. According to experts, 5 billion tons of carbon dioxide are released into the atmosphere every year. tons of carbon dioxide, about 300 million. tons of carbon monoxide. This is 3.5 times more than in the first half of the twentieth century.

Under these conditions, it is natural that the widespread use of alternative energy sources will be on the agenda. This is due to the fact that their types of solar, hydro and wind energy, as well as biomass, are almost unique and renewable, very relevant to the current era of innovative development, and the creation of new jobs. In addition, the equipment and technology working on this basis are environmentally friendly, environmentally friendly and do not lead to man-made disasters.

At present, 10.2% of all energy produced in the world comes from renewable energy sources. By 2050, its share in some species is expected to exceed 70%.

Under these conditions, it is natural that the widespread use of alternative energy sources will be on the agenda. This is due to the fact that their types of solar, hydro and wind energy, as well as biomass, are almost unique and renewable, very relevant to the current era of innovative development, and the

creation of new jobs. In addition, the equipment and technology working on this basis are environmentally friendly, environmentally friendly and do not lead to man-made disasters.

Map of solar flux to the surface According to the study, the solar flux per 1 m² of land perpendicular to the center of the sun (at the time of entering the Earth's atmosphere) is 1367 W / m² (when the sun is constant). As a result of the absorption of sunlight into the Earth's atmosphere, the high solar flux above sea level is equal to 1020 W / m² (at the equator). However, at different times of the day, the angles of incidence of the sun's rays on the ground change slightly due to changes. In winter, this figure can be reduced by 2 times. Solar power plants have advantages and disadvantages, just as each process has advantages and disadvantages. Advantages of solar power plants: - Prospective, renewable source; - Environmentally friendly and cost-effective; - Renewability of fuel source; - Increased demand for alternative energy sources; - Minimum impact on environmental climate change.

Disadvantages of solar power plants: - Dependence on weather, seasons and time of day for power generation; - The need for additional traditional energy sources in the field of industrial production; - Regular dusting of the panel surface; - Occupying a lot of space. Figure 2. Solar photovoltaic device and consumers: 1 – photoelectric module (solar panel); 2 - inverter charging control device; 3 - rechargeable battery; 4– Consumers The world's demand for electricity has grown by about 50% over the last 5 years. By 2050, solar power plants will reduce carbon dioxide emissions to the environment by 20-25% of annual electricity. Converting only electricity from sunlight to heat energy is a useful example. The Sun alone sends so much heat to our planet every day that it is 20 times more energy consumed by the world's population year-round. Accordingly, last year, 120 billion solar cells were installed at solar stations around the world. More than kWh of electricity was generated. In a number of developed countries, including Germany, the share of non-conventional energy is planned to reach 15% by 2015 and 25% by 2020.

According to statistics from the Department of Energy, in 2001 (solar electricity) the energy received from solar collectors was \$ 0.09–0.12 per kWh, and by 2015–2020 this value will reach \$ 0.04–0.05 and increase economic efficiency. Currently, there are companies around the world that produce solar photovoltaic cells, including:

- China Yingli - 2300 MW
- USA First Solar - 1800 MW
- China Trina Solar - 1600 MW
- Canada Canadian Solar - 1550 MW
- China Suntech - 1500 MW
- Japan Sharp - 1050 MW
- China Jinko Solar - 900 MW
- US SunPower - 850 MW

REC Group - 750 MW

Korea produces high-quality competitive solar photovoltaic cells Hanwha SolarOne - 750 MW

The share of wind and solar energy has more than doubled since the signing of the Paris Agreement on Climate Change in 2015. At that time, the figure was 4.6 percent.


In the first half of 2020, the volume of energy from fossil fuels, the most polluting fuel, decreased by 8.3%.

Analyses show that many large countries, including China, the United States, India, Japan, Brazil and Turkey, get at least 10 percent of their total energy from wind and solar. Britain and the European Union deserve special praise, as they receive 21 and 33 percent of their energy from renewable sources, respectively.

According to the forecasts of the Global Wind Energy Council (GWEC), by 2030 the volume of offshore wind energy worldwide may increase from 29.1 GW in 2019 to 234 GW.

The world's largest sales turbine based on the principle of rise and fall. The turbine, which operates on the basis of the principle of the rise and fall of the water supply, converts the kinetic energy of the water flow into the electric current, which comes in the same direction as the wind turbine. The world's largest hydroelectric power plant near Northern Ireland has a capacity of 1.2 MW. It consists of 2 grain turbines with a diameter of more than 20 m. Due to the rotation of the turbine's turbine system, the turbine and the waves are adapted to each direction. To service the turbine, it may be lifted from the water.

The cost of 1 MW of installed power produced by such a system 5 million equal to a dollar. This is the cost of offshore wind turbines 30% more. However, in 2015, off the coast of South Korea, the cost of 820 million. It is planned to install a turbine operating on the principle of rising and falling water levels with a capacity of more than 1 MW. It is noteworthy that the widespread introduction of such "green technologies" in agriculture, energy, waste management, transport, education and science in our country will create more than 550,000 new jobs over the next ten years.



References:

1. W. Blume. 2007 Canada 237.
2. Electrical Energy Systems. Muhamed E.El Hawary USA 2000. 369
3. Introduction to Electrical power systems. Muhamed E.El Hawary USA 2008.
4. Power system Analyses and Design. J.Duncan Glover. USA 2012. 853
5. Kokorev A.P. Kontrol i ispytanie elektricheskix mashin, apparatov i priborov. – M.: Vyssh. shk., 1990.
6. Pravila texnicheskoy ekspluatatsii elektroustanovok potrebiteley. – Spb.: ANO OU UMITTS, 2003.
7. Pravila ustroystva elektroustanovok: - Tashkent.: 2011.
8. Sibikin Yu.D., Sibikin M.Yu. Spravochnik po ekspluatatsii elektroustanovok promyshlennix predpriyatiy: 5-e izd., ispr. i dop. – M.: Vyssh. shk., 2002.
9. Spravochnik po naladke elektrooborudovaniya promyshlennyykh predpriyatiy/Pod red. M.G. Zimenkova, G.V. Rozenberga, Ye.M. Feskova. – 3-e izd., pererab. i dop. – M.: Energoatomizdat, 2003.
10. Impact of the covid-19 pandemic on the energy sector.
11. Narimanov B. A., Arzikulov F. F. Renewable energy sources, issues of sustainability and mitigation of the consequences of climate change
12. Device for communication of the deaf and dumb Magomedov- modern scientific research 3, 2021. Narimanov B. A, Arzikulov F. F

*Jumanqo‘ziyev O.O., p.f.f.d PhD
Qo‘qon davlat pedagogika institute
informatika kafedrası o‘qituvchisi*

TALABALARNING AXBOROT MADANIYATI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning axborot madaniyatini shakillantirishning nazariy jihatdan asoslanganligi va bu sohada ilmiy izlanishlar olib brogan olimlarning axborot madaniyatiga bergan tariflari taxlel etilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot madaniyati, axborot, axborot madaniyati tarixi.

*Jumankuziyev U., Ph.D
teacher
department of informatics
Kokand State Pedagogical Institute*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' INFORMATION CULTURE

Abstract. This article analyzes the theoretical basis of the formation of students' information culture and the rates given to information culture by scientists who have conducted scientific research in this field.

Keywords: Information culture, information, history of information culture.

"Axborot madaniyati" tushunchasi madaniyatning odamlar hayotining axborot jihati bilan bog‘liq qirralaridan birini tavsiflaydi. Axborot jamiyatida ushbu jihatning roli doimiy ravishda oshib bormoqda; va bugungi kunda har bir inson atrofidagi axborot oqimlarining yig‘indisi shunchalik katta, xilma-xil va tarmoqli bo‘lib, u axborot muhiti qonunlarini bilishni va axborot oqimlarini boshqarish qobiliyatini talab qiladi. Aks holda, u yangi sharoitlarda hayotga, xususan, ijtimoiy tuzilmalardagi o‘zgarishlarga moslasha olmaydi, buning oqibati axborot faoliyati va xizmatlari sohasida ishlaydigan odamlar sonining sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda axborot madaniyatining ko‘plab ta'riflari mavjud. Keng ma'noda axborot madaniyati deganda etnik va milliy madaniyatlarning ijobiy o‘zaro ta’sirini, ularning insoniyatning umumiy tajribasi bilan bog‘lanishini ta’minlovchi tamoyillar va real mexanizmlar majmui tushuniladi.

Tor ma'noda - nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun belgilar, ma'lumotlar, ma'lumotlar bilan ishlash va ularni manfaatdor iste'molchilarga taqdim etishning maqbul usullari; axborotni ishlab chiqarish, saqlash va uzatish uchun texnik muhitni takomillashtirish mexanizmlari; kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqish, shaxsni axborot vositalari va axborotlaridan samarali

foydalanishga tayyorlash.

Axborotlashtirish sohasidagi etakchi mahalliy mutaxassislardan biri Э.П. Семенюк axborot madaniyatini jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha axborot jarayonlari darajasini va mavjud axborot munosabatlarini ob'ektiv tavsiflovchi butun insoniyat madaniyatining axborot komponenti sifatida tushunadi.

Axborot madaniyati tarixi ming yillarga borib taqaladi. Boshlanish nuqtasini hayvonot olamiga xos bo'lgan vaziyat signaliga rasmiy munosabatning mazmunli, faqat insonga xos bo'lgan o'zgarish momenti deb tan olish mantiqan to'g'ri. Mazmun birliklarining almashinuvi tilning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Yozuv paydo bo'lgunga qadar tilning rivojlanishi og'zaki nutq usullarining keng doirasini yuzaga keltirdi va ma'no va matn bilan muomala qilish madaniyatini yuzaga keltirdi. Yozma bosqich og'zaki axborot madaniyatining barcha xilma-xilligini o'z ichiga olgan matn atrofida to'plangan.

Insoniyatning axborot madaniyati turli davrlarda axborot inqirozi ostida larzaga kelgan. Eng muhim miqdoriy axborot inqirozlaridan biri yozuvning paydo bo'lishiga olib keldi. Bilimlarni saqlashning og'zaki usullari axborotning o'sib borayotgan hajmini to'liq saqlashni va axborotni moddiy tashuvchida yozib olishni ta'minlamadi, bu esa axborot madaniyatining yangi davri - hujjatli filmni keltirib chiqardi. U hujjatlar bilan muloqot qilish madaniyatini o'z ichiga oladi: qat'iy bilimlarni olish, ma'lumotlarni kodlash va yozib olish; hujjatli qidiruv. Axborot bilan ishlash osonlashdi, fikrlash tarzi o'zgardi, ammo axborot madaniyatining og'zaki shakllari nafaqat o'z ahamiyatini yo'qotmadi, balki yozma bilan munosabatlar tizimi bilan ham boyidi.

Zamonaviy axborot madaniyati o'zining barcha oldingi shakllarini o'ziga singdirdi va ularni yagona vositaga birlashtirdi. Ijtimoiy hayotning alohida jihati sifatida u ijtimoiy faoliyatning subyekti, vositasi va natijasi sifatida harakat qiladi, odamlarning amaliy faoliyatining tabiati va darajasini aks ettiradi. Bu sub'ektning faoliyati va yaratilgan narsalarni saqlash, madaniy ob'ektlarni tarqatish va iste'mol qilish jarayonining natijasidir.

Гендина Н.И. o'qituvchining axborot madaniyatini insonning ijtimoiy tabiati bilan bog'liq bo'lgan va uning turli ijodiy qobiliyatlari mahsuli bo'lgan shaxsning umumiy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida tushunadi. Uning ta'kidlashicha, o'qituvchining axborot madaniyati uning axborot dunyoqarashini, ham an'anaviy, ham yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda kasbiy axborotga bo'lgan ehtiyojni optimal qondirish uchun mustaqil faoliyatni ta'minlaydigan bilim va ko'nikmalar tizimini tavsiflaydi.

Л. И. Лазаревaning fikricha, o'qituvchining axborot madaniyati - bu mutaxassisning axborot madaniyatining bir turi, kasbiy pedagogik faoliyat sohasi bilan belgilanadigan shaxsning axborot madaniyatining bir qismi, bu axborot dunyoqarashi va axborot kompetensiyasi, ta'lim jarayoniga tarjima qilingan, axborot va ta'lim mahsulotlarining sifatini aniqlaydigan va talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Shaxsning axborot madaniyati - bu insonning umumiy madaniyatining

tarkibiy qismlaridan biri, an'anaviy va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda individual axborot ehtiyojlarini optimal qondirish uchun maqsadli mustaqil faoliyatni ta'minlaydigan axborot dunyoqarashi va bilim va ko'nikmalar tizimi.

Pedagogika fanlari doktori, KSUKI dotsenti N.B.Zinovyeva shaxsning axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy predmetini "ijtimoiy ahamiyatga molik axborotning butun hajmini o'zlashtirish jarayonida shaxsning ichki dunyosini uyg'unlashtirish jarayoni" deb hisoblaydi.

Pedagogika fanlari doktori, Sankt-Peterburg davlat madaniyat va madaniyat universiteti professori V.A.Minkina "insonning axborot madaniyatini shakllantirish uning kundalik faoliyatida o'zlashtirilgan kundalik bilim va ko'nikmalar, ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar ta'sirida amalga oshiriladi, deb hisoblaydi. o'z-o'zini tarbiyalash paytida, oilada va ishda o'qish paytida".

Pedagogika fanlari doktori, Moskva davlat madaniyat va madaniyat universiteti professori Yu.S.Zubovning talqiniga ko'ra, "axborot madaniyati – bu bilim, ko'nikma va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan majmui bo'lib, u har bir insonning o'zini o'zi boshqarishga qaratilgan individual axborot faoliyatini optimal tarzda amalga oshirishni ta'minlaydi. kasbiy va noprofessional ehtiyojlarni qondirish".

Kemerovo davlat madaniyat va san'at akademiyasining yetakchi mutaxassislari N.I.Gendina, N.I.Kolkova, I.L.Skipor, G.A.Starodubovalar "shaxsiy axborot madaniyati" tushunchasining quyidagi talqinini taklif qiladilar

"Shaxsning axborot madaniyati - bu shaxs umumiy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri; an'anaviy va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda individual axborotga bo'lgan ehtiyojni optimal qondirish uchun maqsadli mustaqil faoliyatni ta'minlaydigan axborot dunyoqarashi va bilim va ko'nikmalar tizimi. Bu muvaffaqiyatli kasbiy va noprofessional faoliyatning, shuningdek, axborot jamiyatida shaxsning ijtimoiy xavfsizligining eng muhim omilidir".

Shu bilan birga, axborotning o'sishi chegaralari va axborot madaniyatining sifati va zarurligi haqida o'ylash juda muhimdir. Shuni esda tutish kerakki, "axborot miqdorining ko'payishi bizning undan foydalanish qobiliyatimizni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin, ya'ni. axborot miqdori va uning qiymati tubdan farq qiladi.

Axborot madaniyati umuman madaniy faoliyatning eng muhim jihatlaridan biri sifatida qaralishi kerak. Madaniyat singari, u ham insonning «ikkinchi tabiati» (ijtimoiy) bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning aqliy qobiliyatining mahsuli bo'lib, sub'ekt-ob'ekt va sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining mazmunli tomoni sifatida harakat qiladi, turli moddiy vositalar yordamida qayd etiladi. Bunda sub'ekt deganda ob'ektiv-amaliy faoliyat va bilimlarning tashuvchisi shaxs (yoki ijtimoiy guruh), ob'ekt esa sub'ektning ko'rsatilgan faoliyati nimaga qaratilganligi tushuniladi.

Axborot madaniyati bir vaqtning o'zida insonning madaniy voqelikni,

insoniyat yaratgan barcha boyliklarni va voqelikning o'zini, madaniy-ijodiy faoliyat natijasida paydo bo'lgan qadriyatni o'zlashtirishning zarur samarali omili va bevosita madaniy atribut sifatida ishlaydi. mavjudligi, shaxsiy ko'rinishlari (xulq-atvor, turli shakllar aloqa va boshqalar).

Inson faoliyatining barcha sohalariga yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish axborot jamiyati shakllanishi sharoitida samarali faoliyat yurita oladigan badiiy mutaxassislarni (madaniyatshunoslar, musiqachilar, xoreograflar, vokalchilar, rejissyorlar) tayyorlash muammosini hal qilishni taqozo etadi., axborot va bilim muhim resursga, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va madaniy taraqqiyotning haqiqiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanganda. Shu nuqtai nazardan, axborot madaniyati bo'lajak mutaxassisning yuqori professionalligining ajralmas belgisidir.

Jamiyat va shaxsning axborot madaniyati insonni uzluksiz tarbiyalash imkoniyatini ta'minlashi va uning qabul qilingan qarorlar uchun mas'uliyatini oshirishi kerak. Birinchi holda, axborot madaniyati vaziyatni har tomonlama tahlil qilish asosida mustaqil ravishda bilimlarni oshirish, faoliyat doirasini o'zgartirish va o'z xatti-harakatlarini tartibga solishga qodir bo'lgan shaxsni ijtimoiy himoya qilish vositasi sifatida ishlaydi. Ikkinchidan, axborot madaniyati jamiyatni insonning puxta o'ylangan harakatlaridan himoya qilish vositasi bo'lib, har qanday sohada – ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik bo'yicha fundamental qarorlar barcha mavjud ma'lumotlarni chuqur tahlil qilgandan keyingina qabul qilinishining kafolatidir.

Axborot madaniyati tushunchasi ko'p qirrali ekanligini aniqlab, uni iloji boricha kengroq tahlil qilish uchun uning tarkibiy qismlarini ko'rib chiqish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uktamjon, Jumankuziev. "THE ROLE OF TEACHERS IN TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF PEDAGOGY." *Gospodarka i Innowacje*. 41 (2023): 360-362.
2. Jumankuziev, U. "USING NEW APPROACHES TO TEACHING PROGRAMMING LANGUAGES IN SECONDARY SCHOOLS." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.5 (2023): 280-283.
3. Жуманкузиев, Уктамжон, and Уткир Йулдошев. "Подходы обучения языкам программирования в общеобразовательных школах." *Общество и инновации* 2.5/S (2021): 344-350.

*Kamalova N.B.
teacher
Karakalpakstan institute of agriculture and agrotechnology
Urazbaeva S.M.
student
Karakalpakstan institute of agriculture and agrotechnology*

THE MAIN TYPES OF TREES AND SHRUBS AND THEIR SIGNIFICANCE IN THE GREENING OF THE CITY OF NUKUS

Abstract. This article talks about the selection of the main types of trees and shrubs and their importance in landscaping the city of Nukus. Before choosing ornamental trees and shrubs in the irrigated lands of Karakalpakstan, we should consider the natural and geographical conditions of the place. This is because the conditions of each region are different. Choosing ornamental trees in such areas requires deep knowledge and experience.

Key words: greening, tree species, phenological observation, introduction, importance.

Before choosing ornamental trees and shrubs in the irrigated lands of Karakalpakstan, we should consider the natural and geographical conditions of the place. This is because the conditions of each region are different. Choosing ornamental trees in such areas requires deep knowledge and experience.

In order to correctly select new plant seedlings introduced for the purpose of landscaping, it is very important to know the decorative qualities of plants, as well as to take into account their biological characteristics and their requirements for external environmental conditions. Because different trees have different requirements for temperature, light, air humidity. Plants go through a series of stages in their individual development - from juvenile to maturity. During these periods, a plant is characterized by different sizes, shapes, and growth rates of its branches.

These allow you to determine which species to grow in which climate and how to use them.

In order to study the life of trees and shrubs introduced to the conditions of the city of Nukus and their seasonal events, the following observations were made [2; pp. 208-212]:

- ✚ swelling of leaf buds and flower buds;
- ✚ flowering period of trees;
- ✚ fruiting age of trees;
- ✚ repetition of fruiting;
- ✚ ripening period of fruits and seeds;
- ✚ the colors of the fruit;

The obtained results were recorded in special tables (Table 1).

Periods of seasonal events in trees and shrubs

Tree and shrub species	Fruiting age of trees	Repetition of fruiting	Flowering period (months)	Periods of maturation	Fruit color
<i>Amorfa fruticosa</i>	3-4	every year	may-june	august-september	brown color
<i>Ulmus pumila</i>	8-10	every year	april	april-may	gray color
<i>Robinia pseudoacacia</i>	3-4	every year	april-may	august-september	brown color, black
<i>Acer campestre</i>	5-10	every year	may-june	september - october	yellow, red
<i>Acer negundo</i>	6-8	1-2	april-may	september - october	yellow, red
<i>Populus nigra</i>	8-10	1-2	april	may-june	green
<i>Populus alba</i>	8-10	1-2	april-may	may-june	green

Many introduced ornamental tree and shrub species were identified during the next 10 years during the monitoring of many test areas and the surroundings of city buildings of the city of Nukus, Republic of Karakalpakstan (Table 2) [1; pp. 208-212].

Identification of introduced tree species in Nukus

Tree species	The height of the tree is m,	Soil demand	Scenicness	Homeland	Tree condition
1	2	3	4	5	6
<i>Juniperus virginiana</i>	15-30 m, up to	It grows in dry stony, sandy and marshy and moist loamy soils	Antlers are narrowly ovate or spreading. Branches from the bottom of his body	North America	Satisfactory
<i>Platycladus orientalis</i>	up to 10 m	It grows in different soils. But it grows well in calcareous sandy soils.	The horn is pyramidal in shape.	Mountains of North China	Satisfactory
<i>Robinia pseudoacacia</i>	Up to 18-25 m	It grows in relatively saline soils of dry, even steppe and	The cones are pyramidal or spherical in shape.	North America	Satisfactory

		semi-desert regions.			
<i>Acer campestre</i>	up to 10-15 m	Less demanding on soil fertility, resistant to saline soils.	The horn is wide pyramidal.	North America	Good
<i>Catalpa speciosa</i>	15-20m, up to	It also grows on relatively weak sand soils and dry clay soils.	Branches are pyramidal or wide. The body grows upright.	North America	Good
<i>Ligustrum vulgare</i>	up to 3-4 m	It grows in relatively weak saline soils.	Living walls are used in planting.	Japan	Good
<i>Amorfa fruticosa</i>	3-6 m, up to	Does not choose soil. It also grows in saline soil. It grows better in sandy soils.	A bush with bent branches. Living walls are used in planting.	North America	Satisfactory
<i>Salix babylonica</i>	up to 10-15 m	Less demanding on soil fertility, resistant to saline soils.	A tree with ring-shaped branches.	Iran	Good
<i>Sophora japonica</i>	up to 15 m	The soil is not picky, it is resistant to soil dryness and salinity.	It is very decorative, especially during the flowering period, with dark green, thick branches and harmonious leaves.	China, Japan	Good

Based on the information collected from scientific sources about scenic and protective forest trees and the data in the above table collected from practical experimental areas, according to the climate and soil conditions of the place, and based on the analysis of the ecological conditions of those that give the best results in greening In the conditions of the city of Nukus, depending on the condition of the soil, it is recommended to grow the following trees:

In the saline lands of the city of Nukus: *Juniperus virginiana*, *Platicladus orientalis*, *Robinia pseudoacacia*, *Acer campestre*, *Catalpa speciosa*, *Amorfa fruticosa*, *Salix babylonica*, *Sophora japonica* like trees

References:

1. Қайимов А.Қ., Ҳамроев Х.Ф., Балтаниязов Ж.С. Қорақалпоғистон республикаси шароитида ўсиб ривожланаётган нинабаргли дарахтларнинг

холати ва ўсиш кўрсаткичлари //Science and innovation. – 2022. – №. Special Issue. – С. 204-207.

2. Қайимов А.Қ., Ҳамроев Х.Ф., Балтаниязов Ж.С. Қорақалпоғистон республикаси шароитида кўкаламзорлаштириш учун танланган япроқбаргли дарахт турларининг ўсиш кўрсаткичлари //Science and innovation. – 2022. – №. Special Issue. – С. 208-212.

3. Baltaniyazov J.S., Kamalova N.B. Environmental and decorative properties linden leaved (*Tilia cordata*) under Karakalpakstan // Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. - 2017. - S. 820-821.

4. Baltaniyazov J.S., Kamalova N.B. Growing and cutting of dolls pharmacy // Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. - 2017. - S. 607-608.

5. Baltaniyazov J., Madraimov R. Jasíl qaplama payda etiwde Seksewil ósimliginiń áhmiyeti hám kóbeytiw usılları // Центральноазиатский журнал образования и инноваций. - 2023. - Т. 2. - №. 10 Part 3. - S. 133-136.

*Kamolov E.Sh.
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasini o'qituvchisi*

NUROTA TIZMASINING TURISTIK IMKONIYATLARI VA HUDUDDA EKOTURISTIK MARSHRUTLARNI ISHLAB CHIQISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada Nurota hududlarining turistik imkoniyatlari va hududda tabiiy, tarixiy, antropogen va tabiat yodgorliklaridan iborat diqqatga sazovor joylarning ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqish, hududdan turizmni rivojlantirish maqsadida baholash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar –Nurota, Uxum, Mojrum, „Istiqlol“ istirohat bog'i, „Eyfel“ minorasi, Sovurbel dovoni, Xonbandi to'g'oni va sharsharasi, Mojrum archasi, Xazrati Eshon xalifa ziyoratgohi, Osrafsay, qoyatosh rasmlar, Nur chashmasi.

*Kamolov E.Sh.
teacher
Department of Geography and Basics of Economic Knowledge
Jizzakh State Pedagogical University*

TOURIST OPPORTUNITIES OF THE NUROTA RANGE AND DEVELOPMENT OF ECO-TOURISTIC ROUTES IN THE AREA

Annotation. In this article, suggestions and recommendations have been developed for the evaluation of the tourism potential of the Nurota region and the attractions of natural, historical, anthropogenic and natural monuments in the region in order to develop ecotourist routes and develop tourism from the region.

Key words - Nurota, Ukhum, Mojrum, "Istiqlol" recreation park, "Eiffel" tower, Sovurbel pass, Khanbandi dam and waterfall, Mojrum arch, Hazrat Eshan Caliph shrine, Osrafsai, rock paintings, Nur fountain.

Kirish. Turkiston tizmasidagi g'arbiy turistik hududi hisoblangan Nurota tog'lari turistik obyektlar rang-barang bo'lib, tog', adir, cho'l va ko'l tabiati hamda tabiiy yodgorliklar va ziyoratgoh hududlarni ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu yerda 100 dan ortiq tabiiy yodgorlik va ziyoratgohlar bor bo'lib, ularni har birini alohida-alohida o'rganish va turizmdagi ahamiyati jihatida baho berilishi lozim.

Nurota tizmasi sharqdan-g'arbga tomon 264 km masofaga cho'zilgan bo'lib, eng baland nuqtasi Uxum va Majurum soylar boshlanadigan Hayotboshi cho'qqisi (2169 m) hisoblanadi. Hayotboshi cho'qqisi tog'ning markaziy qismida joylashgan. Tog'ning markaziy qismi, sharqiy va g'arbiy qismlarga nisbatan baland bo'lib, o'rtacha balandligi 1750 m ni tashkil qiladi. Bu qismda Hayotboshi

(2169 m) cho‘qqisidan tashqari, Katta Fozilmon (2134 m), Qarchig‘ay (2105 m) kabi cho‘qqilar ham bor. G‘arbiy chekkasi Nurota shahri meridianida absolyut balandligi 400-450 m ga yetadigan tepaliklarga aylanadi va asta-sekin Qizilqum cho‘liga qo‘shilib ketadi. Sharqiy qanoti esa 650-700 m balandlikdagi past tog‘ (Yetimtog‘) ko‘rinishida Jizzax shahri hududiga qadar kirib boradi.

Asosiy qism. Hozirgi kunda Yetimtog‘da, bolalarni dam olishi uchun “Istiqlol” istirohat bog‘i barpo qilingan. “Istiqlol” istirohat bog‘ida turli xil atraksionlar, basseyn, karusel hamda kichikroq bo‘lsa ham hayvonot bog‘i tashkil qilingan. Yetimtog‘ning eng baland qismida tashqi ko‘rinishidan shamol tegirmonini eslatadigan, yog‘ochlar bilan qurilgan o‘ziga xos dizaynerga ega bo‘lgan shinamgina bar faoliyat yuritmoqda. Yetimtog‘ Jizzax shahrini ramziy ma‘noda “Eyfel” minorasi deb ta‘riflanadi. Sababi, bu yerga kelgan kishi butun shaharni tomosha qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shahar va uning atrofini tomosha qilish uchun bir nechta binokllar o‘rnatilsa tashrif buyuruvchilar soni yana ham oshirish mumkin. Sovurbel dovoni (1162 m) Forish tumanining markazi Bog‘don shaharini, Qarobdol va Garasha kabi aholi punktlari bilan bog‘lab turadi. Sovurbel dovoni bahor faslida tabiatining go‘zalligi bilan kishini o‘ziga maftun etadi. Sovurbel dovonining shimoliy yonbag‘iridagi buloq bo‘yida yo‘lovchilar dam olishi uchun choyxonalar ham qurilgan. Bu dovon orqali o‘tuvchilar ko‘p bo‘lgani (taxminan bir kunda 1000 kishidan ko‘proq) uchun hordiq chiqaradigan joylar va kempinglar barpo etilsa yaxshi samara beradi. Shuningdek, dovonda ba‘zi yillari qish qattiq kelganda, qalin qor bilan qoplanib, transport qatnovi to‘xtab qolish holatlari ham kuzatilgan. Turkiston tizmasining sharqdan-g‘arbga tomon pasayib borishini dovonlarning balandligiga qarab ham aniqlansa bo‘ladi. Masalan, Turkiston tizmasining sharqiy qismidagi Shahrison dovoni (Tojikiston hududida) ning balandligi 3380 m, markazida joylashgan G‘o‘ralash dovonining balandligi 2710 m va eng g‘arbida joylashgan Sovurbel dovonining balandligi esa 1162 m ni tashkil etadi. Sovurbel dovonidan shimolda Nurota tizimiga tegishli bo‘lgan Xonbandi tog‘i joylashgan. Xonbandi tog‘i yonbag‘rida X asrning oxirlarida Qoraxoniylar hukmronligi davrida qurilgan Xonbandi to‘g‘oni bo‘lib, bugungi kungacha yaxshi saqlanib kelingan. Xonbandi to‘g‘oni Forish tumani Bandi shaharchasining shimoliy yonbag‘rida joylashgan. Xonbandi to‘g‘oni dara oldini to‘sib, taroshlangan granit toshlaridan berchlanib qurilgan. Xonbandi to‘g‘onining pastki qismi qisqaroq 24,35 metrni, yuqori qismi 51,75 metrni tashkil qiladi. To‘g‘on balandligi 15,25 metrdan iborat bo‘lib, suv to‘lganda uzunligi 1,5 km ga yetadigan suv omborni hosil qiladi (Og‘a Burgutli, 2008). Xonbandi to‘g‘oni bahor oylari to‘lib, suvlari sharshara ko‘rinishda tepadan pastga oqib tushadi. Xonbandi to‘g‘onidagi ushbu sharsharaning eni salkam 52 m ni, balandligi esa 15 m ni tashkil etadi. Mutaxassislarning aniqlashicha, mazkur to‘g‘on inshooti O‘rta Osiyo - ko‘hna Turon xalqlari bunyod etgan sug‘orish inshootlari orasida eng qadimgisidir.

Xonbandi to‘g‘oni va sharsharasi



Shu o‘rinda Xonbandi sharsharasini ba‘zi bir jihatlariga ko‘ra Afrikadagi Viktoriya sharsharasiga taqqoslasa bo‘ladi. To‘g‘ri, nam tropik o‘rmonda joylashgan Viktoriya sharsharasining o‘lchamlari (eni 1800 m va balandligi 120 m) va suv hajmi bo‘yicha Xonbandi sharsharasidan bir necha 100 barobar kattadir. Lekin maftunkorligi jihatidan o‘xshash tomonlari bor. Viktoriya sharsharasining gumburlovchi tovushlari 20 km lik masofadan ham eshitilsa, Xonbandi sharshara atrofini yalang tekisliklar egallaganligi sababli 10 km lik masofadan ko‘rish mumkin. Xonbandi sharsharasi bahor va yoz faslining boshlarida arid hududli mintaqaga hayot baxsh etib turadi. Xonbandi sharsharasini tomosha qilish va dam olish maqsadida, bahor faslida ko‘plab mahalliy sayyohlar tashrif buyuradilar.

Kelgusida Xonbandi sharsharasi va unga tutash bo‘lgan Nurota tog‘lar tabiati hamda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimini tomosha qilishni o‘z ichiga olgan ekomarshrut loyihasi ishlab chiqilsa, bu o‘z navbatida xorijiy va mahalliy sayyohlarni eng ko‘p jalb qila oladigan yo‘nalishlaridan biriga aylanar edi.

Qadimda ota-bobolarimiz tomonidan suv yig‘ish maqsadida qurilgan bunday gidrotexnik inshootidan, hozirgi kunda ham foydalansa bo‘ladi. Soy suvlari va sel suvlarini bahor faslida, foydasiz oqib ketishini oldini olish lozimdir. Buning uchun oqar suvlar hajmini hisobga olgan xolda, yuqorida ko‘rib o‘tgan Xonbandi to‘g‘oniga o‘xshash to‘g‘onlar qurish lozim. To‘g‘onlar o‘z navbatida, vaqti-vaqti bilan yuz berib turadigan suv toshqinlarini (masalan, G‘allaorol tumani hududidagi 2012 yilgi talofatli sel toshqini) oldini oladi va suv tanqis bo‘ladigan yoz faslida qishloq xo‘jalik yerlari hamda chorva mollarini sug‘orish tizimini yaxshilab, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Nurota tog‘ tizmasining markaziy va janubiy yonbag‘irlarida “Nurota tog‘ yong‘oqzor-meva” qo‘riqxonasi joylashgan. Qo‘riqxonasi hududi va uning atroflarida tabiati hamda tabiiy yodgorliklari, tog‘ning boshqa hududlariga qaraganda yaxshi saqlanib qolingani. Majurumsoy qishloq hududida O‘rta Osiyo mintaqasida juda kam uchraydigan daraxt - Sharqiy biota archasi yaxshi saqlanib qolingani. Yoshi taxminan ikki ming yildan ziyod bo‘lgan mazkur biotani

mahalliy xalq savri kabud - “yashil savr” deyishadi. Uning aylanasi salkam 10 metrni tashkil etadi. Bu ko‘p yillik mevali va manzarali daraxtlar tabiiy yodgorlik sifatida Nurota qo‘riqxonasining muhofaza qilinadigan hududi sifatida qo‘riqlanadi.



1-rasm. Madjerum archasi (sharq biotasi)

Mutaxassislarning fikricha, uzoq o‘tmishda bunday archalar Nurota tog‘lari hududida, xususan uning eng baland qismida joylashgan Majurumsoy qishlog‘i atrofidagi tog‘larda juda ko‘p bo‘lgan. Tog‘dagi archazorlar muhofaza qilinmaganligi va ulardan qurilish materiali hamda o‘tin sifatida ayovsiz foydalanish natijasida archazorlar keskin kamayib ketgan. O‘sha qadimgi davrlardan saqlanib qolgan yagona archa Majurumsoy qishlog‘ining o‘rta qismida joylashgan va aynan mana shu holat uning saqlanib qolishiga asos bo‘lgan. Mahalliy xalq orasida Iskandar Zulqarnayn g‘arbdan kelib, Ustrushonaga yurish boshlaganda mazkur daraxt tagida askarlari bilan dam olgan degan gap bor. Ilmiy adabiyotlarda ushbu daraxtni sovur archa deyishadi va u 1400-2500 m balandlikda o‘sadi. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra sovur archa ikki ming yildan ko‘proq umr ko‘radi. Archa daraxtining turli qismlaridan tabobatda ham foydalanishadi. Masalan, archa qubbalaridan turli moddalar, efir moyi, qatron, qand, mum va organik kislotalar olingan. Qubbasining damlamasi tabobatda siydik haydovchi, balg‘am ko‘chiruvchi va ovqat hazm qilishni yaxshilovchi dori sifatida ishlatiladi. Archadan olinadigan efir moyi jarohatni davolashda qo‘llaniladi.

Uxum, Sintobsoy va Ustun qishloqlarida ham Aleksandr Makedonskiy bilan bog‘liq bo‘lgan joylar, 1000 yoshli daraxtlar davlat muhofazasi ro‘yxatiga olingan. Qo‘riqxonahududidagi Osrafsoyida qoyatoshlarda chizilgan qadimiy rasmlar saqlanib qolingan.

Andagin qishlog‘ida davlat muhofazasiga olingan mo‘tabar qadamjolaridan biri “Hazrati Eshon xalifa” ziyoratgohi bor. “Hazrati Eshon xalifa” ziyoratgohi Jizzax shahridan 120 km, tuman markazi - Bog‘don shaharchasidan 45 km shimoli-g‘arbdagi uzoqlikda joylashgan. Qishloq atrofidagi tabiiy landshaft deyarli o‘zgarmagan, tabiati nihoyatda go‘zal, baland tog‘lar, sersuv buloqlar ko‘p.



2-rasm Hazrati Eshon xalifa ziyoratgohi

“Hazrati Eshon xalifa” ziyoratgohi Andagin qishlog‘ining o‘rta qismida joylashgan. Bu manzilni so‘ngi makon tutib, avliyolik maqomiga erishgan aziz zotning ismlari Jaloliddin ibn Abdukarim bo‘lgan. Piri komil e‘tiqodi bilan o‘zgalarga namuna bo‘lgan, butun hayotini ilm, ma‘rifat va donishmandlikka bag‘ishlagan. Aziz zotning hujralarida eski buyra, kitoblar taxlangan taxta va yostiqlardan boshqa narsa bo‘lmagan.

Ziyoratgohni hozirgi hududi salkam 0,5 gektarni tashkil etadi. Mazkur madaniy meros ob‘ekti hozirda qayta qurilmoqda. Ziyoratgoh hovlisida ajoyib buloq va kichik hovuz bor. Buloq suvi shifobaxsh xususiyatga ega bo‘lib, undan doimo toza zilol suv oqib turadi. Hovuzda relikht hisoblangan gulmohi baliqlari ko‘p.


So‘nggi yillarda muqaddas qadamjo atrofi yanada obodonlashtirib turildi va turli xil archa daraxtlari hamda gullar o‘tqazildi. Ziyoratgoh hovlisida bir nechta qadimiy tut va yong‘oq daraxtlari bor. Keksa daraxtlarning yoshi taxminan 250-300 yilni tashkil qiladi.

Bu joylarning tabiati, ziyoratgohlarni hamda mahaliy aholining turmush tarzini tomosha qilish maqsadida xorijdan ko‘plab sayyohlar tashrif buyuradilar. Sayyohlarga xizmat qilish maqsadida “Asraf”, “Andagin”, “Uxum” va “Xayot” qishloqlarida 4 ta uy-mexmonxonalar tashkil qilingan.

Nurota tizmasining g‘arbiy qismida Nurota chashmasi joylashgan. Hyp chashmasi tabiatning noyob tuhfasiga bo‘lib, u bir necha ming yillar davomida ona zaminga obi hayot, insonlar qalbiga nur bag‘ishlab keladi. Akademik Y. G‘ulomovning fikricha, Nur chashmasining paydo bo‘lish tarixi bir necha ming yillik uzok o‘tmishga borib taqaladi. Tadqiqotchi P.Sh Zokirovning fikricha, u uchlamchi antik davrdan buyon oqa boshlagan. Chashma 20 x 30 metrli darg‘ot hovuzdan iborat bo‘lib, u shimolga tomon oqadi. Qadimdan shahar aholisi chashma suvidan unumli foydalangan. Qish faslida to‘rt ariq suvi shahardagi to‘rt hovuzga to‘plangan va ular hozir saqlanib qolmagan.

Chashma suvi tog‘ ichidan, toshlar orasidan sizib o‘tarkan, u ana shu toshlardagi turli xil kimyoviy birikmalarni, tog‘ jinlaridagi har xil elementlarni eritib o‘zi bilan olib keladi. Minerallashtirilgan suvlar yer yuziga chashma bo‘lib otilib chiqadi. Nur chashmasi O‘zbekistonning eng sersuv chashmalaridan bo‘lib, undan bir soniyada 380-400 litr suv qaynab chiqadi. Nur chashmasi dengiz sathidan 524 m balandlikda joylashgan. Chashma suvi xushta‘m, hidsiz, rangsiz,

yumshoq, shirinligi, bir litr tarkibida xlor, sulfat, kaliy, magniy, kalsiy, kremniy, karbonat, natriy kabi oʻn oltita mikroelementlar borligi aniqlangan. Harorati esa hayratomuz: qishin-yozin doimo $+19,5^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi (Shavkat Ismoilzoda, 2005 y).



3-rasm Nurota chashmasi

Akademik K.Z.Zokirov: “Asrlar osha Nurotaning dongʻini olamga yoyib kelayotgan narsa bu uning chashmasidir”, - deb bejiz aytmagan. Dastlab chashma suvini 1912 yilda rus olimlari A. Dimo va keyinchalik professor A. Nikolaevlar tomonidan tekshirilgan va uning suvi tarkibida 8 xil shifobaxsh minerallarni topganlar. Ximik olim A. Muzaffarov esa chashma suvi tarkibida 20 xil minerallar borligini aniqlagan.

Rus olimi N.A.Kenesarin “Nur chashmasi tarkibida bir qancha mikroelementlar va kimyoviy birikmalar mavjud boʻlib, bu inson organizmi uchun zarur boʻlgan shifobaxsh suvdir” - deb yozgan. Abu Abdullo Rudakiy esa “Dunyoda ikkita nur bor. Biri quyosh nuri, ikkinchisi Nur chashmasidir”, deya chashmani ulugʻlagan.

Nur chashmasi va uning atrofidagi tabiiy - antropogen landshaft - noyob qoʻriqxonadir. Bu yerda tabiiy (chashma landshafti), biologik (shohbaliqlar), meʼmoriy (masjidlar), arxeologik (Nur qalʼasi), tarixiy (Nur tarixi shu yerdan boshlanadi), tibbiy (shifobaxsh suv) yodgorliklar betakrorligi, uygʻunligi bilan dunyoda yagonadir. Olimlarning fikriga koʻra, Nur chashmasining geologik yoshi bir necha ming yil boʻlib, chashma atrofidagi madaniy qatlam yoshi esa 35-40 ming yilga tengdir. Chashma uzra tovlanayotgan nurni har kuni minglab odamlar hayrat bilan koʻrishadi va ushbu sir-sinoatning guvohi boʻlishadi. Shaharning asli Nur deb atalishiga tabiatning ushbu betakror moʻjizasi sabab boʻlgan boʻlsa ajab emas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Nurota togʻlari va togʻ oldi tekisliklarida kishilarni oʻziga jalb qiladigan betakror tabiat manzaralari va tabiat yodgorliklari juda koʻpchilikni tashkil qiladi. Mazkur maqola orqali togʻ hududidagi ayrim obyektlarni keltirib oʻtdik, ushbu maskanlarni koʻrishga tashrif buyurgan har qanday maxalliy va xorijiy sayyohlarni togʻ hududining soʻlim joylariga tashrif buyuruvchilar uchun turistik marshurt yoʻnalishlari ishlab chiqish

va turistik obyektlarni kompleks o'rgangan holda, hududda xalqaro tog' turizmini rivojlantirish mexanizmlarini rivojlantirish muxim masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Жиззах тарихига оид" ("Қизил Ўзбекистон" газетаси, 1963йил 3 январ)
2. Шавкат Исмоилзода. Нурота қиссаси.(Рисола). – Тошкент, 2005
3. Алибеков Л.А. Ўрта Осиё табиий географияси. 1-қисм. –Самарқанд, 2006.
4. Og'a Burgutli. Jizzax viloyati ziyoratgohlari. – Т.: "Muxlis", 2008
5. Гўдалов М.Р. Жиззах вилояти табиатини муҳофаза қилиш. Тошкент: "Фан ва технология", 2014

*Karimova N.O.
Jizzax viloyati favqulodda vaziyatlar
boshqarmasi hayot faoliyati xavfsizligini
o'qitish markazining o'qituvchisi*

EVAKUASIYA QILISH TARTIBI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy ofatlarda odamlarni xavfsizroq va samarali evakuatsiya qilish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zarurligi ta'kidlangan. Sun'iy intellekt individual xatti-harakatlar, geologik xususiyatlar va meteorologik sharoitlarni bashorat qilish kabi ko'plab omillarga asoslangan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Tabiiy ofat, evakuatsiya, zilzila, toshqin, yong'inlar, to'fon, favqulodda vaziyat, tanlov va transport modellari, samarali va xavfsiz evakuatsiya, modellashtirish.

*Karimova N.O.
lecturer
Center for Life Safety Training
of the Department of Emergency
Situations of the Jizzakh region*

EVACUATION PROCEDURES AND WAYS OF IMPROVEMENT

In the period after our people and country went on the path of independent development, great attention is paid to raising a spiritually mature and physically healthy generation. This about defined plans perform Our country in the future developed worldly democratic from the states to one to rotate important is a condition. Spiritual mature, physical healthy generation in education of the family place important and is unique. Man health and spiritual maturity the first foundation in the family is placed. This about Uzbek of the people in the family a child in education experience attention deserves This in experience national education traditions, man spirituality formation with depends has been Universal, religious values too own expression found Family strengthening, his spiritual and moral education regarding importance strengthen issue state in politics more and more big place is taking.

Of the family development of society material work release social, spiritual life with depends. Family relationships in society social and moral of relationships structural part, society of development important factor as surface came known, in general society life and development, man spiritual maturity family without a relationship imagination reached it won't be. Because of this too family with society progress of dependence social, historical, biological the basics together take learning of philosophy important from problems is one In the past thinkers all in periods too family formation and stability moral of development important condition as those who looked In society living, family in construction too a person genetic possibilities in their blood with them depends has been of needs place big But people generation set up reached in the family social necessities solution doer importance occupation reach, biological needs second to the seat down remains. In society of the family formation people team surface to come reason has been social, economic, moral, legal relationships with connected. Man

breed the family mating descent to leave just for not together live and breed leaving them educating society moral the basics strengthening for set up is enough That's why for humans are very ancient of times starting from the family strengthening society development of provision main condition as those who looked This thought the most ancient written in sources, mature thinkers said wise in his thoughts religious, secular in teachings too own expression found.

Of the family of society moral in development held place about initial thoughts the most ancient from manuscripts one in " Avesta". meeting can This at the source family holy social and moral unity as is described. Known social, moral, legal to criteria relying on family to build him material in terms of provide a child see them education on this basis generations step continue carry on a person for big happiness as is described. 2600 years from now intro lived great china thinker Confucius family and family traditions about thoughts too for now until own importance did not lose worldly is one of the values. He is in the family education of parents children in front of the children parents duty to and responsibility with tied He especially of children their parents in front of responsibility to the issue big attention gave Confucius according to " child's their duty to their parents belly to satiate not known to traditions relying on them is to respect ". ¹ Another one important problem This is the Confucian family society life and of development main from the conditions one that looked at His according to the family strengthen husband, wife and children between relationships stabilization only not society is strengthening. Strong family one just in place stable society will be Confucian society life and of development each other with connected three main factor showing past This to the past respect, musiahkam family, people between kindness and rahim is compassion. ¹ This three factor now too China people national of the idea main content organize is enough In general humanity of history each one during family to the issue attention did not give socio-philosophical, religious-religious doctrine was not In them family of life social, moral, legal criteria too set given Family, family relationships formation and development different periods, conditions with depends forms, criterion and standards too was Because of this family of relationships different periods, conditions, countries, ethnicity in groups forms exactly equalizing it won't be. Theirs organizational, ethical, legal criteria from each other difference doer there are sides. Of the family moral essence, formation and development reasons while everyone in the place basically was the same. In this sense family - of society important structural is part of Of the family formation and development society in his life political, economic, social, spiritual relationships with directly depends respectively done increased Historical development in the process family relationships development society public effect transfer them manage necessity too increases. This necessity as a result marriage with depends relationships come came out Marriage-family building between two ages relationships state, society by certain moral, legal criteria based on management necessity as a result to the body came is a ceremony. Marriage two of age consent based on note will be done

and mutually trust, respect and to love relies on Marriage is a family building two of age to each other, to society, to their children relatively has been moral, legal duty and responsibility is to define. Marriage holy that be counted too family stability main from the factors one being is coming This bright to the world now coming new generation spirituality formation of marriage authenticity and of the family strength depend Spiritual unity, love, love attention not taken made up marriage the family weakens children spirituality formation too negative effect is enough.

Islam philosophy and of the right mature from scholars one is famous thinker Rezauddin ibn Fakhruddin of the family society life and in development role, importance about the following thoughts said was: " People's religions and worlds to fix desired if, the most first of all beautiful behavior have to be families fix it ! Families from recovery after both religion and the world will heal." ² Of the family formation, development basis has been moral, legal, social factors are as follows:

✓ Family two to sex belongs to has been of young people to adulthood reached combination, natural need, specific traditions. Ethical values, legal to criteria relying on together marriage is dry.

✓ Family to people special has been moral values are mutual respect, trust, love, cooperation, sympathy of feelings diary married manifestation to be A guy and girl two to sex belongs to that it was just for not but each other loved one lifetime together to be and ahil to live, children to see, to grow old, to live all heavy lightness overcame to pass that he believed for too family builds Family in relationships natural out of need according to social, spiritual factors priority importance occupation is enough.

✓ In the family children upbringing big social important have Children intelligent, polite, hardworking, honest, faithful, honest from being only parents not the first first the whole society is interested. Because society development of humanity bright perspective spiritual mature, physical healthy only young people provide takes.

✓ In the family of people consanguinity, kinship based on relations is formed. This too humanity for extremely important Inbreeding with depends relationships too society life and in development big place holds Relative - seed breeding understanding, strengthening with depends traditions.

Quran In Karim too to relatives gracious to be a person to do must has been meritorious of work one as described In " Nisa " surah so verses there is: " To God prayer do it to him never who partner don't do it To parents, relatives, orphans, poor, neighbors, ordinary to people, family to your members do good."

² Uzbek in families to parents, children, relatives relationship in the matter of too legal to duty relatively moral responsibility priority does Our ancestors centuries during family to build responsibility with approached, young people spiritual being to be educated big attention those who gave Family a person generation development duration provides. In the family mature the child found physically

mature, certain spiritual qualities occupied, social and legal duty realized a person as is brought up.

References:

1. Исматуллаева Н. Конфуций таълимотларида “комил инсон” тушунчаси талқини. “Ўзбекистон-Хитой: тарихий-маданий, илмий ва иқтисодий алоқалар ривожини” халқаро илмий-амалий конференция. – Тошкент: ТошДШИ, 2018.
2. Murotmusaev K.B., Erkinboyeva H. "Yosh avlodni shakllantirishda oilaning psixologik ko'nikmalari. "O'zbekistonda ilm-fan va talim: Muammo va istiqbollar" professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi II - online ilmiy-amaliy konferensiyasi, ilmiy-ommabop maqollar to'plami. April 9-10. Jizzakh - 2021. 71-75 p.
3. Рутенбург В. И. Жизнь и творчество Макиавелли // Макиавелли Никколо. История Флоренции / пер. Н. Я. Рыковой. Общая ред., послесл., комм. В. И. Рутенбурга. М.: Наука, 1987. Изд. 2. С. 37

*Kushakova M.N.
"Korporativ boshqaruv" kafedrası dotsenti
Toshkent davlat transport universiteti
Sharipov O'.H.*

*"Korporativ boshqaruv" kafedrası katta o'qituvchisi
Toshkent davlat transport universiteti*

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA FAN VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI KLASTERI

Annotatsiya. Maqolada inson kapitali boshqaruviga klaster yondashuvi o'rganiladi. Ushbu yondashuv "bilimlar"ni boshqarishni ko'zda tutib, maqsad innovatsiyalar rivojlanishini rag'batlantiradigan innovatsion inson kapitalini shakllantirish hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligini oshirish maqsadida uning strategik resursi hisoblangan inson salohiyatini saqlash va rivojlantirish inson kapitali boshqaruvining asosiy vazifasi hisoblanadi. Tadqiqotda inson kapitalini boshqarish vositasi sifatida innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta'lim klasteridan foydalanish taklif qilinadi. Innovatsion klasterning asosiy maqsadi mintaqalar xo'jalik tizimi innovatsion faolligi darajasini oshirish va innovatsiyalar yangilanishi uzluksiz jarayonida ifodalangan inson kapitali innovatsion imkoniyatlaridan foydalanish asosida xo'jalik tizimlarining innovatsion rivojlanishini jadallashtirishdan iborat. Fan, ishlab chiqarish va ta'lim sohalari o'rtasidagi tafovutlarni tugatish innovatsion klasterning xususiyati hisoblanadi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, innovatsion taraqqiyot, klaster, klaster siyosati, innovatsion salohiyat, inson kapitalini boshqarish.

*Kushakova M.N.
associate professor
"Corporate Management" department
Tashkent State Transport University
Sharipov O.H.
senior teacher
"Corporate Management" department
Tashkent State Transport University*

CLUSTER OF SCIENCE AND INDUSTRY INTEGRATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. The article examines the cluster approach to human capital management. This approach involves the management of "knowledge", the goal of which is the formation of innovative human capital that stimulates the development of innovations. In order to increase the competitiveness and

economic security of the national economy, the main task of human capital management is to maintain and develop human potential, which is considered its strategic resource. The research suggests using an innovative research-production-education cluster as a tool for human capital management. The main goal of the innovation cluster is to increase the level of innovative activity of the economic system of the regions and to accelerate the innovative development of economic systems based on the use of the innovative opportunities of human capital expressed in the continuous process of innovation renewal. Bridging the gap between science, industry and education is a feature of the innovation cluster.

Key words: human capital, innovative development, cluster, cluster policy, innovative potential, human capital management.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida:”Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar reytingning top-50 mamlakatlari qatoriga kirish” [1] maqsadi alohida yo‘nalish sifatida belgilangan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining bosh maqsadi inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishdan iborat etib belgilangani holda uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi” da ham bir qator inson kapitalini rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalar belgilangan. Jumladan, ilmfanga asoslangan sohalarda bandlik va oliy ma‘lumotli ayollarning bandligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha milliy so‘rovnomalarni Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda takomillashtirish vazifalari qo‘yilgan. Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xom ashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish, bunda umumiy qiymati 165,9 mlrd. so‘mlik jami 195 ta ilmiy, tijoratlashtirishga tayyorlash va startap loyihalarni amalga oshirish asosida hududlarda innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishni tashkil etish, 1920 ta yangi ish o‘rinlarini yaratish ko‘zda tutilgan.

Inson kapitalining innovatsion salohiyatini takror ishlab chiqarishda ilmiy-ishlab chiqarish-ta‘lim klasterini tashkil qilish hukumat tomonidan qo‘yilayotgan ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi - hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo‘naltirilganligi jihatidan inson salohiyatini takror ishlab chiqarishga qaratilgan davlat siyosati va vositalarini takomillashtirish yo‘nalishlarining zaruriyatini asoslash va taklif qilishdan iborat. Tadqiqot maqsadiga erishish iqtisodiy sub’ektlar innovatsion faolligi darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi inson kapitali tavsiflari tizimini tarkibiy tasavvur qilish kabi muammoli vazifalarni hal qilishni talab qiladi.

Xalqaro integratsiya asosida iqtisodiyotning hozirgi siklik rivojlanishi N.D. Kondratev, S. Kuznes, Y.Shumpeter kabi ko‘plab tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, har xil turdagi yangiliklar bilan belgilanadigan innovatsion yangilanishlar bilan tavsiflanadi. Bunday iqtisodiyotning raqobat ustunliklari, uni doimiy ravishda innovatsion yo‘nalishda modernizatsiyalash imkoniyati inson kapitalining intellektual va ijtimoiy resurslarini birlashtirgan holda innovatsiyalar, yangi bilimlarni yaratish, turlituman noan‘anaviy qarorlar qabul qilish, barqarorlikni ta‘minlaydigan ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni boshqarish yangi usullarini amalga oshirish layoqatiga bevosita bog‘liqdir.

Siklik rivojlanishda innovatsion yo‘naltirilgan iqtisodiyotning barqarorligi muammosi bugungi kunda alohida milliy iqtisodiyotlar va butun jahon iqtisodiyotining rivojlanish sur‘atlarini oshirish asosiy vazifalari qatorida turgan muhim masala hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning innovatsion yo‘naltirilgan rivojlanishi chiziqsiz, siklik tamoyillarning barqarorligini tadqiq etishda jamg‘arish ko‘rsatkichlaridagi nisbatlar - sifatli inson salohiyati iste‘moli iqtisodiy traektoriyasi mazkur integral tavsiflarining o‘ziga xos ko‘rsatkichi hisoblanishi yaqqol kuzatiladi. Inson salohiyatining tizim hosil qiluvchi muhim funksiyasi uning innovatsion turdagi takror ishlab chiqarish tizimida tutgan muhim o‘rnini belgilaydi.

Inson kapitalining mazmuni, uning xo‘jalik tizimlarini barqaror rivojlantirish uchun roli va ahamiyatini aniqlash sohasidagi ilmiy tadqiqotlar inson kapitali boshqaruvi faoliyatining muhim unsuri hisoblanishi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Inson kapitali – bu intellektual qobiliyatlar va intellektual ko‘nikmalarning namoyon bo‘lish shaklini o‘zida mujassamlashtiradigan aktivdir. Unga inson kapitali barqarorligi konsepsiyasi nuqtai nazaridan zamonaviy xo‘jalik tizimiga va uning barqarorligiga xos mohiyatli tavsiflarini aks ettiradigan tushuncha sifatida qarash zarur [4]. Inson iqtisodiy taraqqiyotning strategik resursi sifatida axborot, intellekt, bilimlar, ko‘nikmalar, qobiliyatlarni tashuvchi va harakatlantiruvchi, jamiyat uchun boyliklarni yaratuvchi, uning tizimli xossalari va sifatlarini shakllantiruvchi o‘z hayotiy faoliyatining tashkilotchisi sifatida chiqadi. Inson kapitalining ushbu qobiliyatlari mamlakat iqtisodiy tizimining barcha darajalarida namoyon bo‘ladi.

Globalashuv davrida industrlashgan davrdagi yagona tarkib hosil qiluvchi korxonalarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilganlikdan farq qilib, yuqori darajada industrlashgan davrda davlatning asosiy strategik maqsadi klasterlarni rivojlantirish yo‘li bilan mamlakatlar va mintaqalarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishdan iborat bo‘lib qoldi. A.V.Babkina: “Iqtisodiyotni klasterli tarkiblash innovatsion yo‘naltirilgan iqtisodiy dinamika shartlari va omillarini mintaqa darajasiga siljitadi, rivojlanish muammolarini hal qilishda ularning ahamiyatini oshiradi” [6], deb ta‘kidlaydi. Ye.I.Lazareva tomonidan klasterlarning barqarorligi, tizimli emerjentligi va raqobatbardoshligini ta‘minlaydigan inson va ijtimoiy kapital, ilmiy-ishlab chiqarish va innovatsion salohiyatlar “kritik massasi”ni jamg‘arish maydoni sifatida o‘rganiladigan

aglomeratsion omilning roli ancha oshayotganligi [7], ko'rsatiladi. XX asr oxiri – XXI asrning boshlarida barqaror innovatsion evolyusiya manbalarini faol izlash sharoitida innovatsion iqtisodiyot, innovatsiyalarni boshqarish sohasida turli nazariyalar shakllandi. Ushbu tadqiqotlar orasida Y.Shumpeter, E.Xansen nomi bilan bog'liq yangiliklar nazariyasi ko'proq mashhurdir [8]. Qo'shilgan qiymatlar o'sishining yangi (qo'shimcha) omillarini izlash inson kapitalining barqaror, innovatsion dinamika asosiy (fundamental) resursi bo'yicha boshqaruv tizimiga asta-sekin kirib borishiga ko'maklashadigan, iqtisodiyotning barqaror innovatsion yo'naltirilgan rivojlanishi tahliliga resursli yondashuv sohasidagi nazariy tadqiqotlarning faollashuviga olib keldi. Inson kapitali nuqtai nazaridan ilmiy yondashuvlar texnika, texnologiya, innovatsion menejment kabi alohida, bir-biridan ajralgan rivojlanish manbalariga uustuvorlik beradi. Bundan tashqari, iqtisodiy taraqqiyotning innovatsion yo'naltirilganligi muammolari, asosan, kelajakka e'tibor qaratmagan va uzoq istiqbolda nimalar yuz berishini ko'rsatmagan holda muayyan takror ishlab chiqarish sikli doirasida o'rganiladi B.Z.Milner, B.N.Kuzik, Yu.V.Yakoves tadqiqotlarida inson kapitalining nafaqat uning iqtisodiy, individual, balki noiqtisodiy, ijtimoiy ko'rsatkichli tavsiflarini strategik boshqarish tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazishga olib boradigan kengaytirilgan talqin qilish tendensiyasi mavjud [10]. Hozirgi sharoitda innovatsion yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishda strategik qarorlar qabul qilish tizimida inson salohiyatining yangi, modernizatsiyalashgan tuzilmalari va vazifalarini ko'chirib o'tkazish mexanizmiga mutlaqo turlicha nuqtai nazarlar vujudga kelmoqda. Mualliflik yondashuvi strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimida inson kapitalini takror ishlab chiqarish vositalarini o'tkazish zaruriyati bilan belgilanadi. Funktsional xossalar va inson kapitali tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi majmuining iqtisodiyot innovatsion taraqqiyoti jarayoni bilan tahlil qilinishi to'rt sohali tizim ko'rinishida tarkiblangan tasavvurga olib kelib, uning unsurlari yakka inson kapitali sifatini, farovonlik darajasini hamda ijtimoiy va ekologik sohalar sifatini ifodalaydi. Aynan inson salohiyatining ajratilgan to'rt unsuri klaster siyosatining asosiy yo'nalishlarini ham belgilaydi. Aynan ular iqtisodiyotning innovatsion barqaror rivojlanishini boshqarish tizimida inson salohiyatini takror ishlab chiqarish strategiyasini tahliliy baholashning tegishli vositalarini tashkil qiladi.

Barcha yuqorida aytib o'tilgan fikr-mulohazalar iqtisodiyotning innovatsion barqaror rivojlanishini boshqarish uslubiyatini o'zgartirishni namoyish etib, inson resurslarining takror ishlab chiqarilishini ta'minlaydigan, integratsiyalashgan muhitni institutsional tashkil qilishga qaratilgan. Davlat siyosatining klaster xususiyati uning namoyon bo'lish shakllaridan biri hisoblanadi. Ko'p bo'g'inli iqtisodiy tizim raqobatbardoshligini belgilaydigan inson salohiyatini takror ishlab chiqarish strategiyasini yaratmasdan turib, klaster siyosatini rivojlantirib, uning samaradorligini oshirib bo'lmaydi.

Jahon iqtisodiyotining yangi texnologik ukladga o'tishi, eng avvalo, barcha nuqtai nazarlardan hududlar resurslarini takror ishlab chiqarishni tizimli tashkil

qilishdan ajralmagan holda innovatsion iqtisodiy taraqqiyot jarayonida inson resurslarini davlat tomonidan tartibga solish strategiyasiga qarashlarning tubdan o'zgarishini keltirib chiqardi. Inson resurslarining yuqori qiymati, eng avvalo, raqobatbardosh, "intellektual sig'imli" ne'matlar va xizmatlar ishlab chiqarishning innovatsion omillariga ularni institutsional konvertatsiyalash innovatsion renta ko'rinishidagi daromadni shakllantirgan holda global raqobatli bozorlarda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Innovatsion rentani kapitallashtirish uni takror ishlab chiqarish jarayonini innovatsion yo'naltirilgan modernizatsiyalash manbaiga aylantiradi.

Milliy farovonlik tahliliga resursli yondashuv, uning resurs-takror ishlab chiqarish va renta hosil qiluvchi vazifalari milliy farovonlikning innovatsion turdagi takror ishlab chiqarish tizimidagi (takror ishlab chiqarish sikli) o'rini va "to'plangan milliy boylik – iqtisodiyotning innovatsion yo'naltirilgan taraqqiyoti" funksional o'zaro bog'liqligini ro'yobga chiqarishning iqtisodiy shaklini aniqlash imkonini berdi. Bunda stagnatsiya davrida to'plangan milliy farovonlik qismi innovatsion iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida harakatlantiriladi va yuksalish davrida esa aksincha, o'sib boruvchi qo'shilgan milliy daromad hisobiga milliy farovonlikning kengayishi yuz beradi. Milliy farovonlik unsurlarini innovatsion iqtisodiyotning zamonaviy kengaytirilgan takror ishlab chiqarishi boshlang'ich va belgilovchi bosqichlari kabi ishlab chiqarish resurslariga konvertatsiyalash jarayonini aniqlashda ushbu jarayon jamg'arish sur'atlarining o'zaro bog'liq kengayishi asosida shakllanishi ko'rsatilgan: yangi bilimlar, aholi ta'lim darajasi va sifati, novatorlik va faol xo'jalik tarzini rag'batlantirish (dinamik-kreativ tuzilmalar tizimini rivojlantirish, "malaka portfeli"ni maqbullashtirish va h.k.); aholi salomatligi va milliy genofond (sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish va uy-joy qulayliklari/komfortligining ortishi, ekologik muhit sifatining oshishi orqali); ijtimoiy kapital (mavjud va yangi bilimlardan samarali foydalanishdan manfaatdorlikni ta'minlaydigan institutsional tartibotni belgilash, takror ishlab chiqarish jarayoni sub'ektlarining innovatsion faolligini (ilm-fan va bilimlar sohasining boshqa tarmoqlariga inson kapitali oqimini rag'batlantirish; kichik va o'rta innovatsion biznesni davlat tomonidan maqsadga muvofiq qo'llab-quvvatlash); innovatsion yo'naltirilgan iqtisodiy dinamikaning ancha ko'paydigan resurs asosini rag'batlantirish.

Milliy farovonlikni takror ishlab chiqarish tizimida sub'ekt-ob'ekt munosabatlari yangi modelining shakllanish omillari va sharoitlarini hamda uning unsurlarini innovatsion o'sish resurs manbalariga konvertatsiyalashni tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, "tarmoqli voqelik" milliy farovonlik salohiyatini rivojlantirish jamoaviy strategiyasini ishlab chiqish haqidagi masalani dolzarblashtirib, bunda "hamkorlik" holati "raqobat" holatidan ustunlik qiladi. Liberalizm va iqtisodiyotni bozor orqali tartibga solishning huquqiy ta'riflariga asoslangan fuqarolik jamiyati klassik modeli esa korporativ hamjamiyat modeli bilan almashadi. 2017-2020 yillarda O'zbekistonda ilmiy tadqiqot va tajriba-

konstruktorlik ishlarini bajargan xodimlar soni oshib bormoqda. Jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, tadqiqotchi mutaxassislar soni ko'payib bormoqda va 2020 yilga kelib, 14 ming 55 kishini tashkil etgan.

O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi holatini uning texnologik rivojlanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar orqali ham tahlil qilish mumkin (2- jadval)

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yuqori texnologiyali, shu jumladan, o'rta texnologiyali va ilm talab qiladigan tarmoqlarning YaIM dagi ulushi 2017 yildagi 21,4% dan 2020 yilda 26,1% ga oshgan. Yuqori texnologiyali tarmoqlarning ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat qo'shilgan qiymatidagi ulushi 2,2% ni tashkil etmoqda. Natijada yuqori texnologik mahsulotlarning eksportdagi ulushi 2017-2020 yillarda 1,7% dan 2% gacha oshgan, o'rta texnologiyali mahsulotlar ulushi esa mos ravishda, 6,4% dan 4,7% gacha pasaygan. Iqtisodiyotga joriy etilgan texnologik innovatsiyalar soni 2017-2020 yillarda 1946 birlikdan 4011 birlikka oshgan (2-rasm). Bular, albatta, milliy iqtisodiyot darajasida daromadlilikning ortishiga xizmat qiladi, bu korxonalarda ishlovchi ishchi-xodimlarning o'rtacha ish haqi, tadbirkorlarning sof foydasi o'sishida o'z ifodasini topadi. Milliy farovonlikni takror ishlab chiqarishda innovatsion yo'naltirilgan rivojlanish sub'ektlarining o'zaro foyda, ishonch va davlat-xususiy sheriklikka tayangan ijtimoiy ne'mat sifatidagi insoniy manfaatlari muvozanatini ta'minlash va muvofiqlashtirish innovatsion iqtisodiy o'sish maqsadida milliy farovonlikdan foydalanish samaradorligini oshirish va boshqarishni maqbullashtirishga olib keladigan korporativ strategiya shakllanishining muhim uslubiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Muvofiqlashgan uslubiy tamoyilni amalga oshirish muqobillaridan biri iqtisodiy sub'ektlar manfaatlari ideal "ierarxik zanjiri" ni aniqlash va rag'batlantirish moslashuvchan siyosatini unga yo'naltirishdan iborat. Inson kapitaliga investitsiyalar (ta'lim, sog'liqni saqlash, aholishunoslik sohasidagi siyosat) bevosita turmush sifatini yaxshilashi mumkin. Ular yana investitsiyalarga bo'lgan katta qiziqishni ham ta'minlashi mumkin. Chunki sog'lom va yaxshi ta'lim olgan ishchilar kapital unumdorligini oshiradilar. Shu tariqa, uzoq muddatli istiqbolda o'sishni saqlab turish maqsadida inson kapitalining foydasiga ustuvor yo'nalishlarni qayta ko'rib chiqish zarur bo'ladi. Tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlariga va atrof-muhit sifatini yaxshilashga investitsiyalar inson hayoti sifatini, xususan, salomatligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi hamda barqaror iqtisodiy o'sishning zaruriy shartini tashkil qiladi. Mazkur investitsiyalar samaradorligini baholash uchun atrof muhit sifatining o'zgarishi aholi salomatligining o'zgarishiga qay tarzda olib kelishi, ya'ni ko'zda tutilayotgan foyda yoki zararlar qanchaligini bilish muhimdir [14]. Inson kapitalining strategik rivojlanishini boshqarish konsepsiyasini ijtimoiy tashkiliy-boshqaruv innovatsiyasi sifatida talqin qilish mumkin. Zamonaviy korxonalar kuchayib borayotgan raqobat, xo'jalik tizimlari rivojlanishining innovatsion tendensiyalari va hokimiyat organlari tomonidan bosim ta'sirida texnologik

innovatsiyalarni ham, tashkiliy-boshqaruv innovatsiyalarini ham rivojlantirish hisobiga o'zining innovatsion salohiyatini oshirmoqda.

Xo'jalik tizimlarining turli darajalaridagi boshqaruv amaliyotida boshqaruv munosabatlarining yanada ko'proq tarqalishi kuzatiladi. Hozirgi vaqtda mintaqalarda mavjud fan, ishlab chiqarish va ta'lim sohalari o'rtasidagi tafovut butun inson kapitalidan foydalanishning past samaradorligiga va mintaqaviy tizim amal qilish barqarorligining pasayishiga olib kelmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, klaster yondashuvi ishlangan innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish imkonini beradi, chunki biznes (yirik, o'rta va kichik korxonalar shaxsida), ta'lim tuzilmalari (universitetlar, o'rta maxsus o'quv yurtlari, kollejlari, o'quv markazlari, tijorat o'quv markazlari), ilmiy tashkilotlar (fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot muassasalari, OO'Yu lari ilm-fani) innovatsion faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini beradigan tubdan yangi munosabatlar shakllanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, biznes-tuzilmalar, ta'lim tuzilmalari va ilmiy tashkilotlarni ularni klasterlash dasturlari negizida integratsiyalash nafaqat iqtisodiy samaraga erishish, balki keltirilgan klaster unsurlarining o'zaro ta'siridan olinadigan sinergetik samara hisobiga mintaqa innovatsion barqarorligini oshirish imkoniyatini beradi. Bunday tashkiliy tuzilma inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishning barcha bosqichlarida uni permanent boshqarishni ta'minlaydi. Umumjahon tendensiyasi shuni ko'rsatadiki, klasterlashtirish, raqobatbardoshlikning kuchayishi, innovatsion faoliyatning rivojlanishi va milliy iqtisodiyotning barqarorligi o'rtasida o'zaro bir-birini belgilash va o'zaro bog'liqlik mavjud. Ushbu dalilni mintaqalar qat'iy raqobatiga qarshi turish yangi usuli, ularning raqobatbardoshligini oshirish usuli va xo'jalik tizimlarini innovatsion barqaror rivojlantirish talablariga moslashtirish imkoniyati sifatida qarash mumkin [16]. Shuni ta'kidlash kerakki, klaster yondashuvini rivojlantirish va keng foydalanish klaster birlashmalari mazmunining o'zgarishiga, ularning tarkibiga, ushbu birlashmalar shakli va maqsadli qurilmalariga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa pirovardida klaster yondashuvining yangicha mazmunini boyitadi va to'ldiradi. Inson kapitali boshqaruvi uchun milliy innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta'lim klasteridan foydalanish vositasi sifatida taklif qilinadi.

Yagona klaster boshqaruvi biznes ehtiyojlari, fan va ta'lim imkoniyatlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Milliy iqtisodiyot yoki uning alohida mintaqalari uchun innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta'lim klasteri beradigan afzallik quyidagilardan iborat:

- innovatsion iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun tashkiliy asosni shakllantiradi, klaster ishtirokchi-a'zolari bir xil mintaqaviy g'oya tashuvchilari hisoblanadilar;

- inson kapitali unsurlariga bo'lgan talab va taklifni birlashtiradi, inson kapitali unsurlariga talab va taklif tuzilmasini hisoblash imkonini beradi, aniq ishlab chiqarish, innovatsion loyiha uchun ustuvor kadrlar tayyorlash strategiyasini amalga oshiradi;

- innovatsion loyihalar malaka sig‘imining shakllanishiga olib keladi, inson kapitali ma’lum sifatining tayyorlanishi va talab qilinganligini prognozlashtirish jarayonini yengillashtiradi, uning harakatchanligi va raqobtabardoshligini ta’minlaydi;

- ularning harakatchanligini shakllantirgan holda fan, ishlab chiqarish va ta’lim o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi, fan, biznes manfaatlarini uyg‘unlashtiradi, innovatsiyalarni tijoratlashtirish uchun to‘siqlarni bartaraf qilish imkoniyatini beradi;

- inson kapitaliga investitsiyalardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi;

- o‘quv, ilmiy va ishlab chiqarish tashkilotlarini geografik konsentratsiyalashni qo‘llab-quvvatlaydi, yangi g‘oyalar, bilimlar, texnologiyalar, mahsulotlarni taqsimlash tizimidan foydalanish samaradorligini oshiradi;

- kooperatsiya asosida ko‘lam samarasi hisobiga klaster ishtirokchilari xarajatlarini kamaytiradi, transaksion xarajatlarni qisqartiradi, xo‘jalik tizimlarining rivojlanish noaniqliklari va risklarini bartaraf qilish imkonini beradi, mintaqaning barqaror innovatsion rivojlanish ta’limotini amalga oshirish vazifasini bajaradi.

Innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta’lim klasterini (IITK) tashkil qilish konsepsiyasi besh bosqichni o‘z ichiga oladi va ular quyidagilardan iborat: Birinchi bosqich – fan, ishlab chiqarish va ta’limning ustuvor yo‘nalishlarini yaratish, tanlash maqsad va vazifalarini belgilash. Ikkinchi bosqich – IITK ni tashkil qilish va istiqbolda o‘zaro ta’sir va muvofiqlashtirishni amalga oshirish imkonini beradigan innovatsion rivojlanish yagona strategiyasini ishlab chiqishdan manfaatdor ishtirokchilarning mavjudligi omillarini baholash. Uchinchi bosqich – IITK rivojlanishining institutsional asoslarini aniqlash. To‘rtinchi bosqich – IITK tashkiliy tuzilmasi va inson kapitalini boshqarish asosida uning innovatsion rivojlanishi boshqaruv tizimini shakllantirish. Beshinchi bosqich – hal qiluvchi, klasterni yaratish haqidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni imzolash bosqichi.

Innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta’lim klasterini shakllantirish algoritmini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

- innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta’lim klasteri inson kapitalini baholash;

- innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta’lim klasterining maqsad va vazifalarini belgilash;

- tashabbuskor guruhlarni shakllantirish;

- inson kapitali innovatsion rivojlanish darajasini tahlil qilish;

- korxonalarni zaruriy innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta’lim klasteriga jalb qilish sharoitlarini yaratish;

- innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta’lim klasterining amal qilish tamoyillarini belgilash;

- innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta'lim klasteri (investitsiya loyihasining moliyaviy rejalari va biznes-rejalari) tashkiliy loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash;

- innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta'lim klasteri muvofiqlashtiruvchi kengashini tashkil etish;

- innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta'lim klasteri boshqaruv tizimini ishlab chiqish;

- innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta'lim klasteri ta'lim loyihasini amalga oshirish rejasini shakllantirish

Ushbu klasterning boshqa umumqabul qilingan integratsiya shakllaridan, masalan, hududiy-ishlab chiqarish majmualari (HIM), xoldinglar, moliya-sanoat guruhlar (MSG) dan asosiy farqi shundaki, u ichki raqobat muhitini va klasterdan tashqaridagi raqiblariga munosabatlar bo'yicha yetarli darajada jiddiy raqobat mavqelarini shakllantiradi.

IITK ning asosi universitetlar bo'lishi zarur, chunki ular inson kapitalini takror ishlab chiqarish va amal qilishi uchun asosni shakllantiradilar. Bundan tashqari, klasterda qatnashuvchi boshqa tashkilotlar, tuzilmalar o'zaro ta'sirini gorizontal aloqalar asosida amalga oshiradilar. Asosdan tashqari, texnologiyalar transferi, bilimlar, axborotlar, infratuzilmani ta'minlovchi yordamchi tashkilotlarni ham yaratish lozim. IITK ning strategiyasi fan, ishlab chiqarish va ta'lim o'rtasidagi innovatsion zanjirni maqbullashtirish asosiga tayanadi. Barcha uch sohalarda inson kapitalidan to'liq foydalanish tufayli ijobiy samarani shakllantiradi.

Ushbu muamoni tadqiq etish jarayonida IITK asosiy tamoyillari shakllantirildi:

1) klasterni hududiy mahalliyashtirish, ya'ni xo'jalik tizimi yoki mintaqaga majburiy bog'lash;

2) klaster ishtirokchilari o'rtasida bevosita aloqalar va bog'lanishlarning mavjudligi;

3) kooperatsiya va ichki raqobat negizida o'zaro munosabatlarni shakllantirish, qo'shilish belgilarining mavjud emasligi;

4) maqsad belgilash asosiy vazifasi - mintaqani barqaror rivojlantirish uchun inson kapitalini shakllantirish va innovatsion takomillashtirishni aks ettirish zarur;

Innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta'lim klasterining asosiy maqsadi innovatsiyalarning to'xtovsiz yangilanishi jarayonida ifodalanadigan inson kapitali innovatsion salohiyatidan foydalanish asosida xo'jalik tizimi innovatsion rivojlanishini jadallashtirishdan iborat.

Innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish-ta'lim klasterining amal qilish samaradorligi mezoni xo'jalik tizimi innovatsion faollik darajasini oshirish hisoblanadi.

Inson kapitalini rivojlantirishga klaster yondashuvi, birinchi navbatda, boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilish jarayonida rivojlanishning ijtimoiy va

iqtisodiy trendlarini tizimli tartibga solish samaralarini har tomonlama hisobga olish imkonini beradigan inson salohiyatini takror ishlab chiqarishni strategik boshqarish innovatsion modeliga integratsiyalashning evristik zaruriyatini nazariy-metodologik jihatdan asoslashdan iboratdir. Yangi klaster siyosatining samaradorligini dinamik tizimli tahlil qilish tartibining muhim metodologik jihati iqtisodiy tizimning funksional-makon jihatdan rivojlanishini boshqarishga bosqichma-bosqich o'tish hisoblanib, bu yerda innovatsion klasterlar va xulq-atvor qoidalarini (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va h.k.) shakllantirish asosiysi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari innovatsion yo'naltirilgan iqtisodiy dinamikaning quyidagilardan iborat ijtimoiy va iqtisodiy strategiyalarini o'zaro kelishtirish darajasi mezonlarini taklif qilish imkonini beradi:

- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot katta hajmini ishlab chiqarish, farovonlik yuqori darajasiga erishish, ijtimoiy institutlarning rivojlanganligi;

- rivojlanish ustuvorliklari orasida ijtimoiy siyosatning o'rni, jamiyatda daromadlarning yuqori tabaqalashuvini bartaraf qilish hamda kambag'allik va boylik o'rtasidagi tafovutni tugatish imkonini beradigan davlat qayta taqsimlash vazifalarining ahamiyati.

Shunday qilib, O'zbekistonda IITK ni tashkil qilish loyihasining amalga oshirilishidan olinadigan natija quyidagilar bo'lishi mumkin: O'zbekistonda IITK ni shakllantirish uslubiyatini ishlab chiqish; O'zbekistonda IITK ning axborot asosini shakllantirish; kichik innovatsion korxonalar reestrini tuzish; moliyaviy tuzilmalar ro'yxati; ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari asosi; inson kapitalini boshqarish, ishlab chiqarish ehtiyojlari sohasida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ta'lim muassasalari va dasturlari ro'yxati; IITK infratuzilma tashkilotlari ro'yxati; klaster doirasida inson kapitaliga bo'lgan ehtiyojlar va imkoniyatlarni baholash; klaster ishtirokchilari, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash vazirligi, mintaqaviy hokimiyat organlari o'zaro ta'sirini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar.

Rivojlanish istiqbollari:

- universitetlar negizida IITK ning maslahat va muvofiqlashtiruvchi markazini tashkil qilish;

- respublika hududida IITK modelini joriy qilish va moslashtirish

Zarur resurslar: inson kapitali (kreativ mehnat resurslari, kompyuter, tashkiliy texnika, kanselariya mahsulotlari, telefon, Internet va axborot bazasidan foydalanish, milliy va xorijiy adabiyotlar (jumladan, maqolalar), yoritiladigan tajriba hamda IITK ni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy jihatlari.

IITK ning ahamiyatini g'oyalarning tug'ilishi, innovatsiyalarni tijoratlashtirish va uni ishlab chiqarishga joriy etish va iste'molchiga yetkazishgacha barcha texnologik zanjirlarni tashkil qilishning tegishli va samarali shakli sifatida aniqlash mumkin. Taklif qilingan yondashuvda ayniqsa, ishlab chiqarish va ta'lim o'rtasida bilimlar, ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarni

o‘tkazish bo‘yicha xarajatlarni maqbullashtirishga, klaster ishtirokchilari xo‘jalik tizimi va butun xo‘jalik tizimi innovativligi darajasini oshirishga olib keladigan barqaror gorizont al oloqalar vositasida barcha klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va o‘zaro bir-birini belgilash amalga oshadi, firmaichki ierarxiya va bozor mexanizmi afzalligidan foydalaniladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. /www.president.uz
2. Aghion P., Bolton P. Theory of Trickle-Down Growth and Development // Review of Economic Studies. 1997. V. 64. P. 87-110.; Lucas R. On the mechanism of economic development // Journal of Monetary Economics. 1988. V. 22. P. 116- 125.; Romer P.M. Endogenous Technical Change // Journal of Political Economy. 1990. V. 98. №5. P. 21-37.
3. Environmental Performance Index (EPI). - Yale Centre for Environmental Law & Policy, Yale University; CIESIN, Columbia University; Joint Research Centre of the European Commission, Ispra, Italy // <http://epi.yale.edu>
4. Kushakova, M. N. "New priorities for the development of the digital economy in Uzbekistan." *E3S Web of Conferences*. Vol. 402. EDP Sciences, 2023.
5. Dzhumanova, A. B., M. N. Kushakova, N. A. Khodzhaeva. "Formation of accounting management information in the control system of enterprises of JSC «Uzbekistan Railways." *International Journal of Advanced Science and Technology* 28.14 (2019): 32-36.

*Latipov S.Sh.
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
magistratura tinglovchisi
Y.f.d. prof. FISH taqrizi asosida*

PUBLIC CONTROL OF THE FIGHT AGAINST CORRUPTION IN NEW UZBEKISTAN

Abstract. This article deals with the implementation of the policy of openness in the prevention of corruption, the rule of law by state bodies, the role of the public and mass media, honesty and impartiality.

Key words: transparency, publicity, media, truthfulness, impartiality, honesty, sacrifice, leadership, corruption, democracy, crime, bribery, vice and society.

*Latipov S.Sh.
master's student
Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan*

YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING JAMOATCHILIK NAZORATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiyani oldini olishda ochiqlik siyosatini yuritish, davlat organlari qonun ustuvorligini ta’minlashi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining roli, halollik hamda xolislik haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: oshkoralik, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari, haqqoniylik, xolislik, halollik, fidokorlik, rahbarlik, korrupsiya, demokratiya, jinoyatchilik, pora, illat va jamiyat.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib korrupsiya xalqaro muammoga aylandi. Ayniqsa, globallashtirish jarayonlari natijasida bir mamlakatdagi korrupsiya boshqa mamlakatlar rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsata boshladi. Ta’kidlash joizki, 2003-yil 31-oktabr kuni BMTning korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi imzolangan. Ushbu konvensiya korrupsiya kabi umumbashariy ofat bilan global darajada kurashishga imkon beradigan xalqaro hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston bu dolzarb muammolarning oqibatlarini chuqur anglagan holda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda, BMTning korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi talablaridan kelib chiqib, mamlakatimiz tarixida ilk bor Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bois, 2017-yilning 3-yanvarida O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.

Mamlakatimizda 2017-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni, ya’ni korrupsiyaga qarshi kurashishning maqsadli huquqiy asosi yaratilmaganligini ham tan olish kerak [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review) O‘tgan davr mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga bevosita taalluqli 13 ta, boshqa sohalarda korrupsiya omillarini qisqartirishga qaratilgan 24 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Davlat boshqaruvida byurokatiyani kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan ma’muriy islohotlar natijasida ijro organlari soni 61 tadan 28 taga qisqartirilib, vazirlik va idoralar funksiyalarini optimallashtirildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish, bu jarayonga jamoatchilikni jalb qilish hamda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha idoralararo hamkorlik samaradorligini oshirish maqsadida, Respublikamizda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini faoliyati tashkil etildi. Mazkur agentlikga:

- Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqliqni ta’minlashga oid matreallarni tayyorlash uchun buyurtmalar berish;

- Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta’minlashga qaratilgan loyihalarini hamda bu borada o‘tkaziladigan tadqiqotlarini va ijtimoiy so‘rovlarini moliyalashtirish;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko‘maklashish kabi vazifalar yuklatildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Korrupsiyaga qarshi an’anaviy usullar bilan kurashish bugun yetarlicha samara bermasligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Shu bois, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaning oldini olish, bu illatga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish uchun davr va taraqqiyot talabiga mos zamonaviy, ta’sirchan va kezi kelganda, keskin choralar bilan oldinga intilmoqdamiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ilk bor korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi kiritilgani ham ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning mamlakatimiz taraqqiyotida nechog‘liq ahamiyatli ekanini yaqqol namoyon etdi.

2017-2023 yillar mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Natijada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida islohotlarni yagona yondashuv asosida samarali amalga oshirish mexanizmi yaratildi.

Korrupsiyani jilovlash borasida mamlakatimizda islohot va ochiqlik, oshkoralik, xolislik, hisobdorlik jarayonlari dadillik bilan amalga oshirilmoqda. Haqiqatan ham, O‘zbekiston iqtisodiyoti erkinlashtirilmoqda: kichik biznes sohiblariga nazorat yuki pasaytirilmoqda, ba’zi inspeksion tashkilotlardagi byurokratik ovoragarchiliklarga barham berilmoqda, moliyaviy, soliq va bojxona tizimlarimiz liberallashtirilmoqda.

O‘zbekistonda dastlab **“yashirin iqtisodiyot”** ulushini qisqartirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilishi natajasida **vazirlik va idoralarda “yashirin iqtisodiyotni”** hamda korrupsiyaga qarshi muvofiqlik tizimi - **“komplayens nazorat”** tizimini joriy etish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

2023-yilning 27-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan **“Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 200-sonli farmoni sohadagi islohotlar yanada qat‘iy va tizimli davom ettirilishiga zamin bo‘ldi. Yangi farmon bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023–2024-yillarga mo‘ljallangan navbatdagi davlat dasturi tasdiqlandi[2].

Davlat dasturi bilan tanishar ekansiz uning tegishli bandlarida davlat boshqaruvi, davlat xizmati, ma‘muriy tartib-taomillar, davlat xaridlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik, sud-huquq sohalarida korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional asoslarini takomillashtirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabi ustuvor yo‘nalishlarda muhim chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish ko‘zda tutilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023–2024-yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturiga ko‘ra, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan milliy strategiya ishlab chiqilishi ham korrupsiyaga sabab bo‘lgan omillarni aniqlash va ularni tahlil qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan amaldagi mexanizmlar samaradorligini baholash va takomillashtirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda farmon korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida qilinayotgan ishlar natijadorligini oshirish, muhim ijtimoiy masalalarga oid ochiq ma‘lumotlar ko‘lamini yanada kengaytirish, ulardan to‘siqlarsiz foydalanishni ta‘minlash, shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish kabi muhim maqsadlarni ko‘zda tutadi:

Birinchidan, mazkur farmon bilan har chorakda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan davlat organlari va tashkilotlari kesimida sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar tahlil qilinishi, ushbu jinoyatlar ko‘rsatkichi oshgan davlat organlari va tashkilotlariga kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlarni bajarishi uchun agentlik xodimlari ishtirokida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnoma kiritib borilishi belgilandi.

Ikkinchidan, bundan buyon har yarim yilda jinoyatlarning oldini olish hamda ularga imkon bergan omillarni bartaraf etish borasida ko‘rilayotgan

choralar Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishlarida tegishli davlat organlari va tashkilotlari birinchi rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilinadigan bo'ldi.

Uchinchidan, qayd etish lozimki, mamlakatimizda ochiq ma'lumotlarga hukumat shaffofligining muhim vositasi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo'shadigan omil sifatida katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarning qat'iy ro'yxati tasdiqlanib, axborotlar joylashtiriladigan resurs, yangilab borish muddati va mas'ul ijrochilar aniq belgilab berilgan.

To'rtinchidan, yangi farmon asosida ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxati yanada kengaytirilib, aholini qiynab kelayotgan qator dolzarb masalalar yechimini topishga imkon yaratiladi. Masalan, hozirgi kunda keng tarqalgan va jamiyatni tashvishga solayotgan firibgarlik holatlarining oldini olish va navbatga turish tizimi ochiq va shaffof bo'lishini ta'minlash maqsadida haj ziyoratiga boruvchilarning yagona onlayn navbati joriy etilib, doimiy yangilab boriladi va u barcha uchun ochiq bo'ladi.

Annotation. In this article, the issues of development of measurement control system for monitoring and control of quality indicators of electric energy are considered. Measuring devices and programs and algorithms have been developed for monitoring and control of electric power quality indicators. Based on the control signals, the current transformer necessary for monitoring and controlling the quality indicators of electric energy was designed and its mathematical models were developed. Current transformer errors and reliability are calculated. Software has been developed to construct images of static and dynamic characteristics of current transformers.

Key words: Power quality indicators, monitoring and control, dynamic and static description, measurement control system, microcontroller, signal converter, current, voltage, frequency, sensing element, magnetic flux, additive and multiplicative, entropy.

Elektr energiya sifat ko'rsatkichlarining monitoringi va nazorat qilish tadqiqotning ko'rinib turibdiki, tok o'zgartirgichning tavsiflari muhim ahamiyatga ega. Bunda o'zgartirgichning asosiy tadqiq qilinadigan tavsiflariga statik, dinamik tavsiflari, sezgirlik va xatolik manbalari kiradi. Fizik - matematik modellardan olingan ma'lumotlar asosida, o'zgartirgichning statik tavsiflarini tadqiq qilishda o'zgartirgich magnit zanjirlarining asosida signalni o'zgartirish jarayonlari amalga oshiriladi. Elektr tarmoq tokining qiymatini kuchlanish ko'rinishdagi chiqish signaliga o'zgartiradigan o'zgartirgichlarning statik tavsiflarini tahlil qilishda signal ko'rinishdagi chiqish kuchlanishini U_{chik} kirish kuchlanishi U_I va stator tokiga I_I , o'lchov elementining kesimi S_o yuzasiga, o'lchov elementining w_o o'ramlari soniga, shuningdek havo orlig'i $l_{x.o}$ balandligining turli o'zgarish dipazonlariga va magnit o'zakning turli parametrlariga bog'liqligini aniqlash talab etiladi [1-3].

Elektr tarmoq toklarini kuchlanish ko'rinishdagi chiqish signaliga o'zgartirgichlarini statik tavsiflarini tahlil qilishda U_{chik} chiqish kuchlanishlarini elektr tarmoq toklariga, o'lchov chulg'aminining o'ramlari soniga – w_o , shuningdek stator tizimining parametrlariga bog'liqligini aniqlash talab etiladi.

Elektr energiya sifat ko'rsatkichlarining monitoringi va nazorat qilish uchun toklarini ikkilamchi kuchlanishlarga o'zgartirgichining statik tavsiflari graf modeli asosida shakllantirilgan quyidagicha ko'rinishdagi analitik ifoda orqali aniqlanadi:

$$(1) \quad \begin{cases} U_{chik.\sigma 1} = K_{F_\sigma} U_{chik} P_{\sigma 1} (W(F_{\sigma 111}, F_{\sigma 121}) K_{I_1 F_\sigma} I_1 + W(F_{\sigma 213}, F_{\sigma 121}) K_{I_2 F_\sigma} I_2 + \\ + W(F_{\sigma 313}, F_{\sigma 121}) K_{I_3 F_\sigma} I_3; \\ U_{chik.\sigma 2} = K_{F_\sigma} U_{chik} P_{\sigma 2} (W(F_{\sigma 213}, F_{\sigma 223}) K_{I_2 F_\sigma} I_2 + W(F_{\sigma 111}, F_{\sigma 223}) K_{I_1 F_\sigma} I_1 + \\ + W(F_{\sigma 313}, F_{\sigma 223}) K_{I_3 F_\sigma} I_3; \\ U_{chik.\sigma 3} = K_{F_\sigma} U_{chik} P_{\sigma 3} (W(F_{\sigma 313}, F_{\sigma 323}) K_{I_3 F_\sigma} I_3 + W(F_{\sigma 111}, F_{\sigma 323}) K_{I_1 F_\sigma} I_1 + \\ + W(F_{\sigma 213}, F_{\sigma 323}) K_{I_2 F_\sigma} I_2; \end{cases}$$

bu yerda $K_{F_{\sigma}U_{chik}} = w_{o'} - F_{\sigma}$ magnit oqimlar va $U_{chik.\sigma}$ chiqish elektr kuchlanishlari orasidagi zanjirlararo bog‘liqlik koeffitsienti;

$$P_{\sigma i} = \frac{\mu_0 F_i}{\delta_{\mu i}} (i = \overline{1,21}) - \text{o'zgartirgichning } U_{chik} \text{ chiqish kuchlanishlarini}$$

hosil qilayotgan o‘zgartirish bo‘lagi magnit parametri;

μ_0 – sezish elementi o‘rnatilgan havo oraliqlarining magnit singdiruvchanligi:

$$(\mu_0 = 1,25 \cdot 10^{-6} \text{ G/m}).$$

Toklarining nominal qiymatlarida chiqish kuchlanishini me‘yorlangan (5 V) bo‘lishi talab qilinishi asosida $w_{o'} = 1 \div 4$ o‘ramgacha qiymatlarni qabul qiladi.

F – o‘lchov elementlari o‘rnatilgan havo oraliqlarining ko‘ndalang kesim yuzasi;

δ_{μ} – o‘lchov elementlari o‘rnatilgan havo oraliqlar balandliklari (m);

$W(F_{\sigma ijk}, F_{\sigma inn})$ – magnit o‘zgartirish bo‘lagining uzatish funksiyasi;


$K_{I_1 F_{\sigma}} = w_1$ – elektr tarmoqlar toklar va magnit o‘zakda hosil bo‘lgan MYuK orasidagi zanjirlararo bog‘liqlik koeffitsienti, w_1 – fazalar soni;

I_1, I_2, I_3 – uch fazali elektr tarmoq faza toklari, (A).

Xususiyl xolda $U_{chik.\sigma 1}, U_{chik.\sigma 2}, U_{chik.\sigma 3}$ chiqish kuchlanishlari tashkil etuvchilarini miqdorlari mos holda I_1, I_2, I_3 elektr tarmoq toklariga bog‘liq bo‘ladi:

$$\begin{cases} U_{chik.\sigma 1} = K_{F_{\sigma}U_{chik}} P_{\sigma 1} (W(F_{\sigma 111}, F_{\sigma 121}) K_{I_1 F_{\sigma}} I_1; \\ U_{chik.\sigma 2} = K_{F_{\sigma}U_{chik}} P_{\sigma 2} (W(F_{\sigma 213}, F_{\sigma 223}) K_{I_2 F_{\sigma}} I_2; \\ U_{chik.\sigma 3} = K_{F_{\sigma}U_{chik}} P_{\sigma 3} (W(F_{\sigma 313}, F_{\sigma 323}) K_{I_3 F_{\sigma}} I_3; \end{cases} (2)$$


1 va 2- formulalar asosida elektr tarmoq toki va o‘zgartirgichning chiqish kuchlanishi tashkil etuvchisi orasidagi bog‘liqlik statik tavsifi 1–rasmda keltirilgan.




1–rasm. Elektr tarmoq va o‘zgartirgich chiqish kuchlanishi tashkil etuvchisi orasidagi bog‘liqlikning statik tavsifi.

bu yerda $U_{chik.\sigma}$ – tok o‘zgartirgichining modeli asosida olingan chiqish kuchlanishi tashkil etuvchisining o‘zgarish tavsifi.

Uch fazali toklarini sezish chulgʻami oʻramlar sonining har xil qiymatida chiqishdagi kuchlanishning oʻzgarishi 2–rasmda koʻrsatilgan.




2–rasm. Birlamchi tok oʻzgartirgichi oʻlchov chulgʻami oʻramlar sonining 1 dan 4 gacha qiymatlarida chiqish kuchlanishining oʻzgarishlari.



3–rasm. Oʻzgartirgichning oʻlchov chulgʻami oʻramlar soni 1 dan 4 gacha qiymatlarida chiqish kuchlanishining birlamchi toklarga bogʻliqlik tavsiflari.


1, 2 va 3– rasmlarda keltirilgan statik tavsiflar asosida toklarni ikkilamchi kuchlanishga oʻzgartirgichning metrologik koʻrsatkichlari: chiqish tavsifining chiziqiligi, oʻzgartirishning aniqligi, oʻzgartirgich elementining sezgirligi kabi koʻrsatkichlari tadqiq etiladi.

Elektr tarmoqning quvvat balansini nazorati va boshqaruvi uchun uch fazali tok oʻzgartirgichini statik tavsiflarini tadqiqot algoritmi ishlab chiqildi.



4 – rasm. Uch fazali tok o‘zgartirgichining statik tavsiflarini tadqiqot algoritmi.

Statik tavsiflarni tadqiqot algoritmi asosida uch fazali uch sezish elementli o‘zgartirgichning statik tavsiflari tadqiqi uchun bulutli hisoblash texnologiyasiningda yaratilgan model asosida olinadi



5- rasm. Uch fazali tok o'zgartirgichi ikkilamchi chiqish kuchlanishlarini U_{chiq} amaliy o'lchangan va nazariy hisoblangan qiymatlarini tokga bog'liqligining statik tavsiflari: a – A faza, b – V faza va s – S faza toklariga mos statik tavsiflar.

Elektr energiya sifat ko'rsatkichlarining monitoringi va nazorat qilish uchun uch fazali stator toklari o'zgartirgichining tadqiqotida dinamik tavsiflarining o'rni muhim bo'lib, stator toklarining qiymatlari, o'lchov elementlari parametrlari, tashqi ta'sirlar, elektr tarmoq parametrlari va boshqa ta'sirlarga kuchlanish ko'rinishidagi chiqish signallarining vaqt bo'yicha o'zgarishi va bog'liqliklarini aks ettiradi [4-8].

O'zgartirgichning dinamik tavsiflari graf modeli asosida shakllantirilgan analitik ifodalar, o'zgartirgichning dinamik holatlarida ishlash tavsiflari, fizik – texnik effektlari, shuningdek elektr tarmoqning ish holatlarini hisobga olgan holda nazariy tadqiqotlar olib borish imkonini berdi.

Tok o'zgartirgichning dinamik holati chiqish signalini kirish kattalik va parametrlar bilan bog'laydigan o'zgartirgichning tuzilish sxemasi, o'zgartirish bo'lagining ko'ndalang, bo'ylama va vertikal taqsimlangan parametrlarining xususiyatlari asosida aniqlangan. Uch fazali toklarining kattaliklari va parametrlari o'zgartirgichning ish holatlarida kirish kattaliklari qiymat va burchak bo'yicha nomutunosib va nochiziqli o'zgarish hususiyatlariga ega bo'lganligi sababli dinamik tavsiflarni o'zgartirishi mumkin [9-10].

Uch fazali tarmoqlardan i_1, i_2, i_3 birlamchi toklar o'tishi natijasida hosil bo'lgan magnit oqimlar ta'sirida tok o'zgartirgichi o'lchov chulg'amlari chiqishlarida $u_{chik.1}(t), u_{chik.2}(t), u_{chik.3}(t)$ kuchlanishlar olinadi. Tok o'zgartirgichi chiqishidagi kuchlanishlar o'lchov chulg'amlarini stator pazida joylashishi, o'ramlar soni va parametrlariga bog'liq holda chiqish kuchlanishlari quyidagicha:

$$u_{\text{chik.1}}(t) = -R_{j.1} \cdot i_{\text{chik.1}}(t) - L_{j.1} \frac{di_{\text{chik.1}}(t)}{dt} + w_5 \frac{d\Phi_2(t)}{dt} + w_6 \frac{d\Phi_3(t)}{dt};$$


$$u_{\text{chik.2}}(t) = -R_{j.2} \cdot i_{\text{chik.2}}(t) - L_{j.2} \frac{di_{\text{chik.2}}(t)}{dt} + w_4 \frac{d\Phi_1(t)}{dt} + w_6 \frac{d\Phi_3(t)}{dt};$$

$$u_{\text{chik.3}}(t) = -R_{j.3} \cdot i_{\text{chik.3}}(t) - L_{j.3} \frac{di_{\text{chik.3}}(t)}{dt} + w_4 \frac{d\Phi_1(t)}{dt} + w_5 \frac{d\Phi_2(t)}{dt};$$

bu yerda $R_{o'.1}, R_{o'.2}, R_{o'.3}, L_{o'.1}, L_{o'.2}, L_{o'.3}$


– mos ravishda uch fazali tok o'zgartirgichining aktiv qarshiliklari va induktivliklari, $w_{o'.4}, w_{o'.5}, w_6$ – o'lchov elementlarining o'ramlar soni; $i_{chik.1}(t), i_{chik.2}(t), i_{chik.3}(t)$ – o'lchov chulg'ami toklari.

Tok o'zgartirgichini dinamik tavsiflarini tahlil etishda tadqiqot algoritmi ishlab chiqildi.



6 – rasm. Uch fazali tok o‘zgartirgichini dinamik tavsiflarining tadqiqot algoritmi.

Tokni kuchlanishlarga o‘zgartirgichni xatoliklarini o‘rganib chiqish uchun 7-rasmda tasvirlangan o‘zgartirgichning bitta faza toki uchun xatoliklari umumlashtirilgan graf modelidan foydalanamiz.



7-rasm. Tokni kuchlanishga o‘zgartirgichni umumlashtirilgan graf modeli

Tok o'zgartirgichining kirish kattaligi I_1 , F_σ grafda berilgan bo'lib, unda I_1 (I_A) faza toki F_σ magnit yurituvchi kuchga o'zgartiriladi, bu K_{I_1, G_σ} zanjirlararo aloqa koeffisienti orqali aks etadi. $F_\sigma, F(0)$ zanjirida G_σ magnit yurituvchi kuch $F_\sigma(0)$ magnit oqimiga o'zgartiriladi, uning $T_{\sigma 1}$, $P_{\sigma 1}$ sxematik funksiyasi zanjirning tuzilmasini aks ettiradi.

Magnit zanjirida $F_\sigma(0)$ magnit oqimi umumiy holda x koordinata bo'ylab, stator magnit zanjiri bo'ylab $x=0$ dan x gacha tarqaladi va $F_\sigma(x)$ qiymatga ega bo'ladi. $F_\sigma(x)$, $U_{chik,\sigma}$ zanjirda $F_\sigma(x)$ oqimni $U_{chik,\sigma}$ kuchlanishga o'zgartirish bo'lib o'tadi, bu $K_{F_\sigma(x), U_{chik}}$ zanjirlararo aloqa koeffisienti orqali aks etadi.

Axborot beruvchi graf modelga o'zgartirishlarning har xil ekanligini hisobga oluvchi y_1, y_2, y_3, y_4 ta'sir etuvchi mustaqil o'zgaruvchilar kiritilgan. $I_1 - F_\sigma$; $F_\sigma - F_\sigma(0)$; $F_\sigma(0) - F_\sigma(x)$; $F_\sigma(x) - U_{chik,\sigma}$; y_1, y_2, y_3, y_4 ta'sir etuvchi mustaqil o'zgaruvchilarning mos o'zgartirish zanjirlari bilan bog'liqligi $K_{y1}, K_{y2}, K_{y3}, K_{y4}$ koeffisientlar orqali aks ettiriladi.

Tok o'zgartirgichining xatoliklarini o'rganish uchun 7-rasmda keltirilgan axborot grafli modeli bilan bir qatorda o'lchov qurilmalari axborot nazariyasi qoidalaridan foydalanish juda samarali bo'ladi.

O'lchov qurilmalari axborot nazariyasiga muvofiq o'zgartirgichning xatoligi ilmiy jihatdan Δ_E entropiyali xatolik qiymati bilan aniqlanadi, K_E entropiya koeffisientlari esa alohida elementlar xatoliklar ehtimolliklarining zichligi, taqsimoti, qonuni turiga bog'liq bo'ldi.

Elektr energiya sifat ko'rsatkichlarining monitoringi va nazorat qilish uchun o'zgartirgichning o'rtacha kvadratik xatoligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi

$$\sigma_\Sigma = \sqrt{\sigma_1^2 + \sigma_2^2 + \dots + \sigma_n^2}$$

bu yerda $\sigma_1, \sigma_2, \dots, \sigma_{n1}$ – alohida elementlarning o'rtacha kvadratik xatoliklari.


Keltirilgan K_E va σ_Σ xatoliklarning qiymatlari ma'lum bo'lganida Δ_E entropiyali xatolik qiymati quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\Delta_\sigma = K_\sigma \cdot \sigma_\Sigma$$

Tok o'zgartirgichining graf modeliga ko'ra yig'indi xatolikning tashkil etuvchilari $I_1 - F_\sigma$; $F_\sigma - F_\sigma(0)$; $F_\sigma(0) - F_\sigma(x)$; $F_\sigma(x) - U_{chik,\sigma}$ zanjirlardagi xatoliklar hisoblanadi.

Tokni kuchlanishga o'zgartirgichining kirish zanjiridagi xatoliklar – harorat, namlik, tashqi magnit maydonlar va boshqalar ta'sirida I_1 tok, ω_1 burchak chastotaning o'zgarishlari, K_{I_1, F_μ} aloqa koeffisientining o'zgarishlari, shuningdek elektr va magnit o'tkazgichlari materiallarining fizik xossalarini o'zgarishi hisoblanadi.

Elektr energiya sifat ko'rsatkichlarining monitoringi va nazorat qilish uchun uch fazali tok o'zgartirgichining funksional sxemasi ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:



8-rasm. Asinxron motor reaktiv quvvatini nazorat va boshqaruv tizimi o'zgartirgichining funksional sxemasi

1-qismda I_1 stator chulg'ami tokini F_σ magnit yurituvchi kuchga o'zgartiriladi, 2-qismda F_σ magnit yurituvchi kuch stator magnit zanjirida F_σ magnit oqimini paydo qiladi, 3-qismda o'lchash chulg'ami chiqishida U_{chik} kuchlanish hosil bo'ladi.

Tok o'zgartirgichining umumiy xatoligini baholash uchun keltirilgan qismlarda paydo bo'ladigan xatoliklarni alohida – alohida ko'rib chiqamiz.

1. $I_1 - F_\sigma$ o'zgartirish zanjiri xatoligini, ya'ni $\sigma_1=0,1$ ($\pm 0,1\%$ – birlamchi nominal qiymatdan) – chegaraviy miqdori;

2. $F_\sigma - \Phi_\sigma$ uchun $\sigma_2=0,1$;

3. $F_\sigma - U_{chik}$ uchun $\sigma_3=0,1$ bo'lgan past miqdorlari asosida aniqlanadi:

$$\sigma_\Sigma = \sqrt{\sigma_1^2 + \sigma_2^2 + \sigma_3^2} = \sqrt{0,1^2 + 0,1^2 + 0,1^2} = 0,173$$

Xatoliklarning barcha tashkil etuvchilarini additiv va multiplikativ xatoliklarga bo'lamiz va ularning paydo bo'lish ehtimolligining taqsimot qonuniga muvofiq ularning o'rtacha kvadratik og'ishi topiladi.

Tok o'zgartirgichi uchun Δ_{TO} entropiyali xatolik quyidagiga teng bo'ladi:

$\Delta_{T\ddot{y}} = K_E \cdot \sigma_\Sigma = 2,07 \cdot 0,173 = 0,36$ bu yerda $K_E=2,07$ – o'zgartirgich elementining entropiyali koeffisienti; σ_Σ – elementning yig'indi o'rtacha kvadratik xatoligi.

Keltirilgan hisoblar va tadqiqotlarga ko'ra Elektr energiya sifat ko'rsatkichlarining monitoringi va nazorat qilish uchun uch fazali tok o'zgartirgichining entropiya xatoligi $\Delta_{TO}=0,36$ ya'ni $\pm 0,36\%$ ga teng bo'lib, o'zgartirgich aniqligini me'yorlangan qiymati standartda ko'rsatilgan sonlardan tanlanishi mumkin. Tadqiq qilingan uch fazali tok o'zgartirgichi uchun me'yorlangan aniqlik sinfi 0,5 ya'ni $\pm 0,5\%$ ni tashkil etadi.

Uch fazali tok o'zgartirgichlarining parametrik va o'zgaruvchi ishonchlilik ko'rsatkichlari o'zgartirgichning doimiy ish holatida bo'lish ehtimolidan $R_{par}(t) = 0,99$ va $R_{o'zg}(t) = 0,99$ ga teng qilib olingan bo'lib, o'zgartirgichning ishdan chiqishligiga bog'liq ko'rsatkichlarning ehtimolligini o'zgarish qonuni vaqtga bog'liq bo'lmaydi va bunda tok o'zgartirgichi qismlarining ishonchligini bir xilligi ta'minlanadi.

Uch fazali tok o'zgartirgichining faza toklarda kuchlanishlar ko'rinishidagi ikkilamchi chiqish kattaliklarga o'zgartirish xatoliklarini o'zgartirgichning ish holatida o'rnatilgan me'yoriy qiymatlaridan oshmaslik ehtimoli o'zgartirgich va uning tarkibiy qismlarini metrologik ishonchligini xarakterlaydi [11-12].

Elektr tarmoq faza toklarini ikkilamchi kuchlanish ko'rinishidagi kattalikga o'zgartirish tok o'zgartirgichining ishlash prinsipi tahliliga ko'ra o'rganilayotgan

o'zgartirgichning tarkibiy qismlari ishonchliligini aniqlovchi va tashkil etuvchilarini holatlari jadval ko'rinishida ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan qiymatlardan shunday xulosaga kelamizki, tok o'zgartirgichining o'lchov chulg'aming ishonchli ish holati o'zgartirgichning ishonchli ish holatini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

1-jadval

Tok o'zgartirgichi bo'laklarining ish holati ehtimolligi

№	Ishchi holati ehtimolligi
1	$P_1P_2P_3 = 0,970299$
2	$P_1P_2(1-P_3) = 0,009801$
3	$P_1P_3(1-P_2) = 0,009801$
4	$P_2P_3(1-P_1) = 0,009801$
5	$P_1(1-P_2)(1-P_3) = 0,000099$
6	$P_2(1-P_1)(1-P_3) = 0,000099$
7	$P_3(1-P_1)(1-P_2) = 0,000099$

Tok o'zgartirgichining ish holatini umumiy ishonchlilik ko'rsatkichini 1-jadvalda keltirilgan tok o'zgartirgichi bo'laklarini ish holatidagi ishonchliligidan foydalanib hisoblaymiz:

$$R_{um.} = P_1P_2P_3 + P_1P_2(1-P_3) + P_1P_3(1-P_2) + P_2P_3(1-P_1) + P_1(1-P_2)(1-P_3) + P_2(1-P_1)(1-P_3) + P_3(1-P_1)(1-P_2) = 0,95.$$

Yuqorida hisoblangan ishonchlilik ko'rsatkichidan xulosa qilsak, elektr tarmoq toklarini ikkilamchi kuchlanishlarga o'zgartirgichining ish holatini umumiy ehtimolligi $R_{um.} = 0,95$ ga tengligini ko'ramiz.

Xulosa

1. Elektr energiya sifat ko'rsatkichlarining monitoringi va nazorat qilish uchun uch fazali tok o'zgartirgichining tavsiflarini tadqiq etishning graf modeli va bu model asosida analitik ifodasi ishlab chiqildi, o'lchov chulg'amlarini kombinasion joylashtirilganligi bilan chiqishdagi kuchlanishni nazorat va boshqaruv tizimi uchun me'yoriy kattalikda bo'lishligi ta'minlandi.

2. Dinamik tavsiflar tok o'zgartirgichining magnit tuzilmasidagi oqimlarning o'zgarishi asosida belgilanib, birlamchi tok yuklamaga berilgan muddatdan to ikkilamchi kuchlanish o'zining turg'un holatiga 0,045–0,055 sek. vaqt oralig'ida erishdi, ushbu miqdor ruhsat etilgan 0,2 sek. qiymatdan kichik ekanligi va o'zgartirgich yuqori tezlikga egaligi asoslandi.

3. Uch fazali tok o'zgartirgichining xatoliklarini topish uchun graf modeli qurildi, entropiya xatolik koeffitsienti $K_e=2.07$ ta tengligidan umumiy xatoligi $\Delta=0,36$ ya'ni $\pm 0,36$ % ekanligi va tok o'zgartirgichini me'yoriy aniqlik sinfi 0,5 dan kichikligi aniqlandi.

4. Elektr energiya sifat ko'rsatkichlarining monitoringi va nazorat qilish uchun uch fazali tok o'zgartirgichining ish holatini umumiy ehtimolligi $R = 0,95$ ga tengligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzaev N. N. Intellectual measurement of electrical energy consumption - monitoring device and software. Scopus conference: Rudenko International Conference "Methodological Problems in Reliability Study of Large Energy Systems" (RSES 2023) E3S Web of Conferences. Volume 461, 2023, 01083. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202346101083>
2. Mirzaev N. N. Study on computerized measurement-control system for determining the condition of electrical network insulation and permitted connections for electrical energy consumption. Scopus conference: 4th International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering (ICECAE 2023) E3S Web of Conferences. Volume 434, 2023, 01021. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202343401021>
3. Mirzoyev N.N. Information software and devices for energy efficiency management and control, *Chemical Technology, Control and Management*, 68-75 (2021)
4. Mirzoyev N.N. Analogical Model Development Methodology For Mathematical Modeling Of Energy Efficiency Control System, *The American Journal of Engineering and Technology*, 55-61 (2020)
5. Mirzoyev N.N. Intelligence devices for monitoring and control of energy efficiency of enterprises, *Chemical Technology. Control and Management*, 172-181 (2020)
6. Mirzoyev N.N., Sayfiyev O.H., Temirov T.O. Investigation of unauthorized connection to electrical networks, failure to detect their phase interruptions and short circuits to ground, *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions* **3** (10), 130-143 (2022)
7. Mirzoyev N.N., Sobirov S. Study of violations of quality indicators of electricity supply network, *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 83-86 (2023)
8. Mirzoyev N.N., Sobirov O. Sh. Computerized measurement control system of unauthorized connection to electrical networks and isolation control detection, *Science and Education*, 488-502 (2023)
- 9.I.X. Siddikov, N.N. Mirzoyev, M.A. Anarboev. Elektr energiyasini tejash va samaradorligini oshirish uchun gibrid quyosh elektr stansiyasini loyihalash uslubiyoti. "Raqamli energetika tizimini yaratishning istiqbollari, muqobil energiya olishning muammolari va yechimlari-2023" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining ilmiy maqola va tezislari to'plami. Jizzax, 2023 yil 19-20 may, 175-181bet
- 10.M.Q. Xoliqberdiyev, N.N. Mirzoyev. Shamol elektr stansiyasi va quyosh elektr stansiyasi asosida gibrid elektr ta'minoti tizimini loyihalash. *Pedagogs jurnali* 10 (1), 2022/6/11, 100-108 bet
- 11.I.X. Siddiqov M.Q. Xoliqberdiyev, N.N. Mirzoyev. WE3000 markali shamol elektr stansiyasining elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarining tahlili. *PEDAGOGS jurnali* 10 (1), 2022/6/11, 93-99 bet

12.I.X. Siddikov, N.N. Mirzoyev, M.A. Anarboev, S.I. Davrboeva. Izolyatsiya holatini monitoring qilish va elektr tarmoqlariga ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun kompyuterlashgan axborot o‘lchov tizimining istiqbollari, „Raqamli energetika tizimini yaratishning istiqbollari, muqobil energiya olishning muammolari va yechimlari-2023“ xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining ilmiy maqola va tezislari to‘plami. Jizzax, 2023 yil 19-20 may, 252-257bet.

Sorimsokov U.S.
Energetika kafedrası assistenti
Jizzax politexnika instituti

SANOAT KORXONALARDA ELEKTR YUKLAMALARNI XARAKTERLOVCHI ASOSIY KOEFFITSIYENTLAR

Annotatsiya: Quvvat va vaqt bo'yicha ish rejimini tavsiflovchi yuklamalar grafiklarining ko'effitsientlari. Korxonalarda qo'llaniladigan yuklamalar turlari.

Kalit so'zlar: Quvvat, vaqt, yuklamalar, grafiklarining ko'effitsientlari. effektiv (o'rtacha kvadrat) qiymat, ishlatilish ko'effitsiyenti, aktiv quvvat.

Sorimsokov U.S.
assistant
Department of Energy
Jizzakh Polytechnic Institute

MAIN COEFFICIENTS CHARACTERIZING ELECTRICAL LOADS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Abstract. Coefficients of graphs of loads describing the mode of operation in terms of power and time. Types of downloads used in enterprises.

Keywords: Coefficients of power, time, loads, graphs. effective (mean square) value, utilization factor, active power.

Yuklamalarni hisoblash va tadqiqot qilishda iste'molchilarning quvvat va vaqt bo'yicha ish rejimini tavsiflovchi yuklamalar grafiklarining ko'effitsientlaridan foydalaniladi. Bunday ko'effitsientlar xususiy va guruhiy grafiklari uchun aniqlanib, mos ravishda kichik k va bosh K harflar bilan belgilanadilar.

Quvvat va vaqt bo'yicha ish rejimini tavsiflovchi yuklamalar grafiklarining ko'effitsientlari.

Ishlatilish ko'effitsiyenti deganda, o'rtacha aktiv quvvatni nominal quvvatga nisbati tushuniladi va uning miqdori eng ko'p yuklamali smena uchun aniqlanadi:

$$k_{ish.a} = \frac{P_{o'rt.}}{P_n}; K_{ish.a} = \frac{P_{o'rt.}}{P_n} = \frac{\sum_1^n k_{ish.a} \cdot P_n}{\sum_1^n P_n}$$

$$k_{ish.a} = \frac{P_{o'rt.}}{P_n}; K_{ish.a} = \frac{P_{o'rt.}}{P_n} = \frac{\sum_1^n k_{ish.a} \cdot p_n}{\sum_1^n P_n}$$

Bu yerda, p_n, P_n – mos ravishda bir yoki guruh iste'molchilarining nominal aktiv quvvatlari. P_n ni miqdorini takroriy qisqa muddatda ishlaydigan iste'molchilarda ularning pasportlaridan olinadi.

P_s, P_s – mos ravishda ayrim guruh iste'molchilarning o'rtacha aktiv quvvat energiya hisoblagichlarining ko'rsatgichi bo'yicha aniqlanadi:

$$P_{o'rt.} = \frac{\mathcal{E}_a}{t_s}; P_{o'rt.} = \frac{\mathcal{E}_A}{t_s}$$

$\mathcal{E}_a, \mathcal{E}_A$ – bir yoki guruh iste'molchilarning qabul qilgan aktiv elektr energiyasi.

T_s – sikl uchun vaqt intervali.

Yuqorida keltirilgan munosabatlarni reaktiv quvvatga ham yozish mumkin:


$$k_{ish.r} = \frac{q_{o'rt.}}{q_n}; k_{ish.r} = \frac{Q_{o'rt.}}{Q_n} = \frac{\sum_1^n k_{ish.r} \cdot q_n}{\sum_1^n q_n};$$

$$q_{o'rt.} = \frac{\mathcal{E}_r}{t_s}; Q_{o'rt.} = \frac{\mathcal{E}_r}{t_s}.$$

Har xil rejimlarda ishlovchi elektr iste'molchilari uchun ishlatilish koeffitsiyentlarining o'rtacha qiymati ma'lumotlarda keltirilgan.

Grafikni to'ldirish koeffitsiyenti deb, ma'lum vaqt oralig'idagi o'rtacha quvvatni maksimal quvvatga nisbatini aytiladi.

$$K_{t.a} = \frac{P_{o'rt.}}{P_m}$$



1-rasm. Har xil rejimlarda ishlovchi elektr iste'molchilarning yuklamalar grafigi.

Odatda, $P_{o'rt}$ va P_m larning miqdorlari t yuklamali smena davrining vaqti uchun olinadi.

Aktiv quvvatni maksimumi deganda, ma'lum vaqt oralig'ida o'rtacha quvvatning maksimumi tushuniladi. Smena davomidagi 30 minutli o'rtacha quvvatlarining qiymatlaridan eng maksimumi olinadi. Rasmda 6 soat davomida har 30 minutga to'g'ri keladigan o'rtacha qiymatlarning grafik keltirilgan. Qurilgan vaqt intervalida 30 minutli yuklamaning maksimum qiymati 210 minutdan 240 minutgacha oraliqda sodir bo'lar ekan.

Yuklamaning ushbu qiymatini ko'p hollarda hisobiy quvvat sifatida ham qabul qilinadi.

Grafikni to'ldirish koeffitsiyenti guruh iste'molchilari uchun topiladi. Bu koeffitsiyentini aniqlashning reaktiv quvvat uchun ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$K_{t.r} = \frac{Q_{o'rt.}}{Q_m}$$

Kunlik grafikning to'ldirish koeffitsientlarining qiymatlarini turli korxonalar uchun ma'lumotnomalardan olish mumkin(A.6).

Maksimum koeffitsiyenti – grafikni to'ldirish koeffitsiyentiga teskari bo'lgan miqdor, ya'ni:

$$K_{m.a} = \frac{1}{K_{T.a}} = \frac{P_m}{P_{o'rt.}}; K_{m.r} = \frac{1}{K_{T.r}} = \frac{Q_m}{Q_{o'rt.}}$$

Bu koeffitsiyentning qiymati t yuklamali smena uchun aniqlanadi va guruh iste'molchilariga tegishli bo'ladi. Agar maksimal quvvat deganda hisobiy quvvatni qabul qilinishini e'tiborga olinadigan bo'lsa,

$$K_{M.a} = \frac{P_x}{P_{o'rt.}}$$


Demak, maksimum koeffitsiyenti grafikdan aniqlanadigan ikki eng asosiy miqdorlar – hisobiy va o‘rtacha yuklamalar orasidagi munosabatni belgilaydi. K_m koeffitsiyenti hisobiy quvvatni o‘rtacha quvvatga nisbatan qancha kattaligini ko‘rsatadi. Uning miqdori birga teng yoki katta bo‘lishi mumkin. O‘zgarmas yuklamali iste‘molchilar (ventilyatorlar, nasoslar va t.u.) uchun $K_m=1$, ya‘ni $P_x = P_{o'rt.}$

Forma koeffitsiyenti yuklamaning effektiv (o‘rtacha kvadrat) qiymatini uning o‘rtacha qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko‘rsatgich ayrim iste‘molchi yoki guruh iste‘molchilari uchun ma‘lum vaqt oralig‘ida topiladi:

$$k_{f.a} = \frac{P_{o'rt.kv.}}{P_{o'rt.}}; K_{F.A} = \frac{P_{o'rt.kv.}}{P_{o'rt.}}$$

$$k_{f.r} = \frac{Q_{o'rt.kv.}}{Q_{o'rt.}}; K_{F.R} = \frac{Q_{o'rt.kv.}}{Q_{o'rt.}}$$

Forma koeffitsiyenti yuklama grafigining vaqt bo‘yicha notekisligini ko‘rsatadi. Uning eng kichik qiymati, vaqt bo‘yicha o‘zgarmaydigan yuklamada, birga teng bo‘ladi. O‘rtacha kvadrat yuklama quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:



2-rasm. Yuklama grafigining vaqt bo‘yicha notekisligi.

$$P_{o'rt.kv.} = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n P_i^2 \cdot t_i}{T}} = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n P_i^2}{n}} \quad Q_{o'rt.kv.} = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n Q_i^2 \cdot t_i}{T}} = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n Q_i^2}{n}}$$

Bu yerda, $n = \frac{T}{t_i}$ - yuklama grafigining T vaqt oralig‘idagi teng bo‘laklar soni. Forma koeffitsiyenti $K_{f.a}$ ning miqdori ishlab chiqarish jarayoni maromida

boʻlgan korxonalarda 1,05 dan 1,15 oraligʻida boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "Oʻzbekiston" NMIU, 2017.
2. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha "Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida". - T.: 2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.
- 3.L.L.Konovalova, L.D.Rojkova. Elektrosnabjeniya promishlennix predpriyatiyi ustanovok. -M.: Energoatomizdat. 1989.
4. A.A.Fedorov, L.E.Starkova. Uchebnoe posobie dlya kursovogo i diplomnogo proektirovaniya. -M.: Energoatomizdat. 1987.
5. T.M.Kodirov, H.A.Alimov. Sanoat korxonalari elektr taʼminoti. Maʼruzalar matni. TashDTU. –T.: 2006.
6. E.Y.Ahmatqulov. Umumiy ekologiya. –T.: Oʻzbekiston. 2003.
7. R.CH.Karimov, G.R.Rafiqova. Elektr xavfsizligi asoslari. Oʻquv qoʻllanma. –T.: 2015.
- 8.T.M.Qodirov, X.A.Alimov. Sanoat korxonalari elektr taʼminoti fanidan oʻquv qoʻllanma. Toshkent-2006.
9. F.A.Xoshimov, A.D.Taslimov, I.U.Raxmonov. Elektr taʼminoti tizimida energiya nazorati va hisobi fanidan oʻquv qoʻllanma. T.: – Iqtisod-Moliya, 2015 y.
- 10.F.A.Xoshimov, A.D.Taslimov. Energiya tejamkorligi asoslari fanidan oʻquv qoʻllanma. T.: – Voris, 2014 y.
- 11.X.G.Karimov, A.N.Rasulov, A.D.Taslimov. Elektr tarmoqlari va tizimlari fanidan oʻquv qoʻllanma. T.: – Tafakkur qanoti, 2015 y.
- 12.I.U.Raxmonov. Elektr taʼminoti asoslari fanidan amaliy mashgʻulotlar uchun uslubiy qoʻllanma. T.: – ToshDTU, 2015 y.
- 13.Sorimsokov Uchqun Soatboy oʻgʻli, "Turar joy va maishiy xoʻjaliklarda energetik audit" T. 2021 y 6-17 bet
14. Sorimsokov Uchqun Soatboy oʻgʻli, Mamasoliyev Ortiq "Theoretical Foundations of energy saving" pages 293-296 www.ijeais.org

THE COST OF A TRANSFORMER AND THE IMPORTANCE OF ITS HEATING

Annotation. The problem of transformer losses and their causes are studied and recommendations for their optimal values are given. Transformer heating and cooling methods are studied.

Keywords: active power, inductive power, waste, load.

We know that the losses in a transformer inevitably affect its efficiency. The result of the ratio of the active (useful) power P_2 supplied from the secondary winding to the consumer (load) to the active power P_1 received from the power supply of the transformer primary winding is called the efficiency (FIK) η . The formula for determining it is as follows:

$$\eta = \frac{P_2}{P_1} = \frac{P_2}{(P_2 + \sum P')} \quad (1)$$

Power losses in the transformer ($\sum P'$) are the magnetic losses generated by the alternating magnetic flux in the core and the electrical losses (including additional losses) that occur when current flows through the winding conductors according to the Joule-Lens law.) is included.

$$\sum P' = P'_{O.N} + K_{Yu}^2 P'_{qt.N} \quad (2)$$

Electricity in the transmission of electrical energy from substation bus sources wastage of 5-10% of electricity on supply lines will be It is impossible to reduce electricity waste to zero, but it is necessary to strive to minimize them.

Since the voltage applied to the transformer is $\sum U_1 = \text{const}$ and its load is almost constant at the values from salt to nominal, the magnetic losses of the transformer are also constant. These losses are approximately equal to the operating losses of the transformer[1].

The main and auxiliary power losses vary in proportion to the square of the current. Of course, this is also reflected in the heating of the magnetic and electrical conductors in the device, according to Joule-Lens law. A transformer connected to a load loses some of its electrical energy during operation, which is converted into heat energy and distributed to the environment. About 80% of the waste is generated by coils, and the rest by magnetic cores and metal structural elements [2].

When heat is released, the transformer heats up. In this case, its temperature is much higher than the ambient temperature. The main reason for this is the limited power when the load is connected.

Due to the heating, the natural convection of the oil inside the tank is formed, ie due to the heating of the magnetic system and the coils, the oil particles close to them lightly rise to the top of the tank, and those close to the tank wall cool down due to the natural circulation of air from outside. Heat from the tank walls is transmitted to the environment through radiation (invisible waves) and convection.

The paper-based Class A insulation used in the transformer loses its elasticity and becomes brittle when exposed to high temperatures for long periods of time. As a result, even small mechanical forces that occur during operation can damage the insulation and lead to a loss of electrical strength. This shortens the life of the transformer.

The higher the temperature, the faster the insulation will wear out. As the power of the transformers increases, the losses increase in proportion to its mass, which is approximately equal to its linear dimension (third degree), and the cooling surface to its square. This means that the heat dissipated in the transformer increases the losses faster than its cooling surface. When transformer oil is used as the cooling medium, it is 6-8 times more efficient than air-cooled.

If the transformer is in normal operation, ie in the nominal operating mode, and the temperature is at a certain value, it will definitely exceed the operating time. This means that its temperature and cooling system will definitely be affected for a lifetime. Insulation will last at least 20-25 years when oil transformers are used under normal conditions, ie when the insulation temperature at its hottest point does not exceed 105⁰C. If it operates under temperatures above 8-100C, the insulation service life will be reduced by about 2 times [4].

The requirement for the insulation material is that the insulation does not chemically react with transformer oil up to 110⁰C.

Figure 1, a shows the change in temperature along the height of the transformer, and Figure 1, b shows the approximate distribution of temperature in the horizontal section of the oil transformer.




Figure 1. Oil-cooled power transformer: a) approximate temperature change in height (1st oil, 2nd tank walls; 3rd coil and 4th magnetic system); b) the approximate distribution of temperature in the horizontal section. (Core 5; Cells 6,7 PK and YUK; Base wall 8; May 9).

The temperature of the transformer generally varies depending on the load. At the same time, we should consider that it is advisable to make sure that the load does not exceed the nominal value. Therefore, one of these hesitations is that of this electrical loading center (ELM). The load connected to the secondary winding of the transformer causes the transformer to shift to the center of gravity of the load. As a result, firstly, non-ferrous metals are saved, and secondly, the voltage drops across the consumers at the end of the network are eliminated, and at the same time the load on the transformer is reduced [3-5].

The calculation of EYUM and the installation of the main substation in the center of gravity are widely used in these industrial enterprises. This ensures energy efficiency and rated operation of electricity consumers. In the construction of power supply systems for all types of industrial enterprises, master plans of these facilities are created, which show all the industrial production shops. The location of the shops is determined on the basis of production technology. The master plan shows the calculated or determined capacity of the industrial enterprise. The project also includes the above-mentioned shop and the entire company's electrical load schedules. Another important task of the design is to install BPP, BTP, TP in the most convenient place on the territory of the enterprise.

When designing power supply systems, load maps are shown in the master plans of the enterprise to determine the location of BPP, BTP, TP.

Loading cartograms are general-purpose circles, the area bounded by the surface of these circles, which is used to describe the calculated loads of the

workshops on the selected scale. Each shop is shown its own circle, the center of which corresponds to the loading center of the shop.

The electrical load cartogram allows the designer to clearly visualize the distribution of electricity in the plant area.

$$P_i = \pi \cdot r_i^2 \cdot m$$

From the expression you can determine the radius of the circle.

$$r_i = \sqrt{\frac{P_i}{\pi \cdot m}}$$

Here m is the scale of finding the circle.

If the actual distribution of the load in the shop is taken into account, then the center of the load does not coincide with the planned center of gravity of the shop, so finding the center of the load leads to determining the center of gravity.

Given that this system will be available in all industrial enterprises, I propose to promote it in TPs used by consumers. In this way, of course, we can achieve a reduction in the value of energy waste.

References:

1. Джуманов А. Н. и др. ИЗМЕРИТЕЛЬНЫЕ ТРАНСФОРМАТОРЫ ТОКА //World science: problems and innovations. – 2021. – С. 76-78.
2. Sorimsokov U. USE OF ALTERNATIVE ENERGY TO REDUCE POWER LOSSES AND IMPROVE VOLTAGE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 23. – С. 20-25.
3. Mamasaliev O. Theoretical Foundations of Energy Saving //International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) ISSN. – 2021. – С. 293-296.
4. Sorimsokov U. S. et al. THE SCIENTIFIC BASIS OF ENERGY CONSERVATION USING THE CARNOT CYCLE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 209-214.
5. Suyarov A. O. et al. USE OF SOLAR AND WIND ENERGY SOURCES IN AUTONOMOUS NETWORKS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 219-225.
6. Sorimsokov U. USE OF ALTERNATIVE ENERGY TO REDUCE POWER LOSSES AND IMPROVE VOLTAGE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 23. – С. 20-25.
7. Muhammadiev, M., Urishev, B., Juraev, S., & Boliev, A. (2020, July). Detritus removal from a pumping-plant intake chamber with hydrajets pumps. In *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering* (Vol. 883, No. 1, p. 012123). IOP Publishing.
8. Alisher B. Frequency-Controlled Electric Drive of Pumping Units (October 30, 2020) //International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) ISSN. – С. 109-111.

Sorimsokov U.S.
assistant
Energy department
Jizzakh Polytechnic Institute Jizzakh
Uzbekistan

SANOAT KORXONALARINING ENERGETIK BALANSI

Annotatsiya: Jahondagi barcha yoqilg'i resurslarining (yadro energiyasidan tashqari) potensial zaxiralari 25000 mlrd. t shartli yoqilg'iga teng. Uning 95% i yoqilg'ining qattiq turlariga to'g'ri keladi. Shartli yoqilg'i deb, 1 kg yoqilg'i yonganda 7 ming kkal (29 MJ/kg) energiya beradigan, issiqlik koeffitsenti bir deb qabul qilingan yoqilg'iga aytiladi.

Kalit so'zlar: Energetik balans, Xususiy energiya, energiya tashuvchilar, Shartli yoqilg'i, Elektr energiya balansi, iste'mol kartogrammasi.

Sorimsokov U.S.
assistant
Energy department
Jizzakh Polytechnic Institute Jizzakh
Uzbekistan

ENERGY BALANCE OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

Abstract. The potential reserves of all fuel resources in the world (except for nuclear energy) are 25,000 bln. t is equal to conventional fuel. 95% of it corresponds to solid types of fuel. Conventional fuel is a fuel that gives 7 thousand kcal (29 MJ/kg) of energy when 1 kg of fuel is burned, and the heat coefficient is assumed to be one.

Key words: Energy balance, Private energy, energy carriers, Conventional fuel, Electric energy balance, consumption cartogram.

Energiya balansi – bu korxonaga qabul qilayotgan va iste'mol qilayotgan energiya o'rtasidagi munosabatdir. Masalan, korxonaga 1000 kVt quvvat qabul qilayotgan bo'lsa, aynan shu quvvat korxonaga sexlari kesimida teng taqsimlanishi energetik balansni ifodalaydi. Ba'zi hollarda, quvvatning to'la iste'mol qilinmasligi kuzatiladi. Bu holat **debalans** deyiladi.

Energetik balans kelib tushish va sarflash qismlaridan iborat.

Energetik balansning kelib tushish qismi turli energiya tashuvchilar (qazib olinadigan yoqilg'i va yadro yonilg'isi, gaz, bug', suv, havo, elektr energiya) yordamida kelib tushadigan energiyaning miqdorini o'z ichiga oladi.

Energetik balansning sarflash qismi energiyaning barcha turlarini ularning turli ko'rinishidagi sarfini, bir turdagi energiyani boshqa turdasisiga

aylantirilgandagi yo‘qotishlarni hamda maxsus qurilmalarda (masalan, gidro akkumulyalovchi qurilmalarda) yig‘iladigan (akkumulyatsiya qilinadigan) energiya aniqlanadi.

Boshqa balanslarda bo‘lgani kabi masalan, buxgalteriyadagi kabi energiya balansining ham kelib tushish va sarflash qismlari teng bo‘lishi kerak.

Energetika balansi bir tomondan kelayotgan jami energiyaning, boshqa tomondan jami foydali energiyani uning yo‘qotishlari bilan mosligini ko‘rsatadi. Balansni tuzishda, korxonada iste‘mol qilinadigan barcha energiya turlari: elektr energiya, gaz, mazut, suv, bug‘ va h.k. ko‘rib chiqiladi. Korxonaning har bir sexida turli maqsadlarda iste‘mol qilinadigan energiya miqdori o‘lchanadi, bundan tashqari energiya yo‘qotishlari ham baholanadi.

Balansni tuzish mazkur korxonaning sexlarida haqiqiy energiya iste‘moli to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida amalga oshiriladi (dvigatellar, elektr jihozlar, yoritish va h.k.) bunday axborotni olish uchun maxsus asboblari – elektr energiya, gaz, bug‘, suv va h.k. hisoblagichlaridan foydalaniladi.

Energetik balanslarni o‘rganish, korxonaning ayrim sexlarida va butun korxonada energiyadan foydalanishning haqiqiy holatini o‘rganish imkonini beradi. Energetika balansi korxonada ishlash samaradorligi to‘g‘risida fikr yuritish imkonini beradi. Balans korxonani energiya iqtisod qilinishi mumkin bo‘lgan nuqtalarini aniqlashi lozim.

Energiya tashuvchilarning turi va miqdoriga bog‘liq holda balans xususiy, ya‘ni faqat bitta energiya tashuvchi uchun, yoki umumiy ya‘ni korxonadagi barcha energiya resurslaridan foydalaniladigan jami iste‘mol bo‘yicha tuzilishi mumkin.

Xususiy energiya balanslarini tuzishda energiya tashuvchilarini miqdoriy o‘lchash joularida (Dj, mDj, GDj), kilovatt-soatlarda (kVt.s), tonna shartli yoqilg‘i (t.sh.yo.)da amalga oshiriladi. Umumiy energiya balansini tuzishda turli energiya resurslari va energiya tashuvchilarni o‘lchash tonna shartli yoqilg‘ida amalga oshiriladi.

Jahon miqyosida turli yoqilg‘i E. resurslari miqdorini taqqoslash uchun shartli yoqilg‘i birligi (1 kg yoqilg‘i yonganda 7000 kkal issiqlik ajralishi) qabul qilingan. Jahondagi barcha yoqilg‘i resurslarining (yadro energiyasidan tashqari) potensial zaxiralari 25000 mlrd. t shartli yoqilg‘iga teng. Uning 95% i yoqilg‘ining qattiq turlariga to‘g‘ri keladi.

Yadro energiyasining asosiy manbai bo‘lgan uran va toriyning zaxiralari dunyo okeani suvlaridagi zaxiralar bilan birga 69000 mlrd. t shartli yoqilg‘iga teng. Issiqlik E.si — E.ning issiqlikni issiqlik dvigatellari va boshqalar yordamida boshqa energiya turlari (mexanik energiya, elektr energiyasi) ga aylantirib beruvchi issiqlik texnikasi bo‘limi. Issiqlik E.sida asosiy issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar issiqlik elektr st-yalari (IES) hamda Davlat issiqlik elektr st-yasi (DIES) hisoblanadi. Yirik DIES lar: Sirdaryo DIES (3000 MVt), Toshkent DIES (1850 MVt), Tolimarjon DIES (loyiha bo‘yicha 3200

MVt). O'zbekistonning issiqtik elektr st-yalari respublikada ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining qariyb 85% ini tashkil qiladi.

Shartli yoqilg'i deb, 1 kg yoqilg'i yonganda 7 ming kkal (29 MJ/kg) energiya beradigan, issiqlik koeffitsenti bir deb qabul qilingan yoqilg'iga aytiladi.

Yoqilg'ini shartli yoqilg'iga aylantirish uchun, yoqilg'ilar haqidagi ma'lumotlarni tegishli issiqlik koeffitsentiga ko'paytiriladi. Hisoblashlarda 1 kg shartli yoqilg'i o'rta hisobda 2 kVt/soat elektr energiyasiga teng deb ham qabul qilinadi, lekin bunda elektr stantsiyalarining foydali ish koeffitsenti hisobga olinadi.

1 kg quruq to'yingan bug'ni kondensatga aylantirishda r issiqlik ajraladi. Bu fazoviy o'tish issiqligi deyiladi va r bilan belgilanadi. Undan tashqari kondensatning sovishi yuzaga keladi. Chunki sirtning harorati to'yinish haroratidan kichik bo'ladi. Agar kondensatning sovishi ajralgan issiqlikdan kichik bo'lsa, u holda issiqlik miqdorini quyidagi ifodadan aniqlaymiz:

$$Q = G r r = kJ /kg.$$

bunda G — hosil bo'lgan kondensatning miqdori. G- kg

Eski stansiyada 1 kVt.soat elektr energiya ishlab chiqarish uchun o'rtacha 360-400 gramm shartli yoqilg'i sarflangan bo'lsa, zamonaviy bug'-gaz qurilmasida bu ko'rsatkich 220-235 grammni tashkil etmoqda.

Sanoatda, shahar va qishloq xo'jaligida energiyaning asosiy iste'mol turi issiqlik va elektr energiyasidir. Shuning uchun sanoat korxonalarida issiqlik va elektr balanslari tuziladi. Elektr balanslarini tuzish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Sanoat korxonalarida uchun energiya balanslari ayrim agregatlar yoki ularning guruhiga, sexlar va butun korxonada uchun tuzib chiqiladi. Elektr balanslar asosida mazkur korxonada, ishlab chiqarish bo'linmalarida yoki energo sig'imli agregatlarda elektr energiyani ishlatish sifati to'g'risida obyektiv fikr yuritiladi, ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan elektr energiya sarflarini qisqartirish imkoniyatlari aniqlanadi, natijada elektr energiyadan foydalanishni yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqiladi.

Elektr energiya balansining uchta asosiy turlari mavjud:

1) **Haqiqiy elektr energiya balansi** - sex yoki korxonada amalda iste'mol qilinayotgan elektr energiya iste'molini aks ettiradi;

2) **Normallashtirilgan elektr energiya balansi** – haqiqiy elektr energiya balansi tahlil qilinib, korxonada yoki sex miqiyosidagi iste'mol nuqtalari aniqlanib, ularda tejash tadbirlarini olib borishdan keyingi elektr energiya iste'molini aks ettiradi;

3) **Kelajakka mo'ljallangan elektr energiya balansi** – ishlab-chiqarishning rivojlanishini oldindan hisobga oladigan va yaqin kelajakdagi yoki undan ko'proq muddatga (5 yilgacha) uning sifat o'zgarishlarini hisobga oladigan elektr energiya iste'molini aks ettiradi.

Elektr energiya balansining bosh maqsadi – elektr energiyani samarali ishlatish darajasini aniqlash va isroflarni kamaytirish yo'llarini izlash, elektr

iste'molini ratsionalizatsiyalashdan iborat. Shuning uchun balansning asosiy turi etib asosan elektr energiya iste'molini real hajmini va elektr energiyadan foydalanish darajasini aniqlovchi aktiv energiya balansini hisoblash kerak.

Elektr energiya balansini tuzish vazifalari quyidagilardir:

- elektr energiya sarfini topish yordamida korxonaning asosiy mahsulotiga bo'lgan sarf harajatlarini aniqlash;
- korxonaning birlik mahsulotiga ketadigan elektr energiyaning haqiqiy solishtirima sarf me'yorlarini aniqlash.

Erkin normallashtirilgan elektr energiya balansini tuzish korxonaning haqiqiy balansini tahlil etishning so'nggi bosqichi hisoblanadi. Normallashtirilgan elektr energiya balansini korxonalarda elektr energiya iqtisodining zahiralarini baholashga xizmat qiladi.

Energetik balansni o'rganish natijasida mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan energiyaning solishtirima sarfi kabi, energiyadan foydalanishning samarasi degan muhim ko'rsatkichini baholash amalga oshiriladi.

Sanoat korxonalarining elektr energiya balansini qurishni yog'-moy kombinatining elektr energiya balansini qurish misolida batafsil ko'rib chiqamiz. Yog'-moy kombinatining umumiy iste'mol quvvati 9290 kVt ga teng bo'lib, bu quvvat kombinatdagi 15 ta sex kesimida taqsimlanadi. Sexlar texnologik jarayoniga bog'liq ravishda ular bir va ikki smenada ishlaydilar. Misol tariqasida Tayyorlov №1 sexining quvvat iste'molini ko'rib chiqib, uning umumkombinat elektr energiyasidan iste'mol ulushini aniqlaymiz.

1. Sexning hisobiy quvvati $P_h=1150$ kVtga teng. Sexning smena davomiyligi 8 soat. (smena davomiyligi bir, ikki, uch smeneali bo'ladi. Bunga muvofiq $t=8, 16, 24$ soat qiymatlarini qabul qiladi). Sexning smena davomida iste'mol qiladigan elektr energiyasini aniqlaymiz:

$$W_{sex1} = P_h \cdot t = 1150 \cdot 8 = 9200 \text{ kVt} \cdot \text{soat}$$

2. Yuqoridagi ifoda yordamida qolgan sexlar uchun ham elektr energiya qiymatini aniqlaymiz. Yog'-moy kombinatining jami elektr energiya iste'moli $W_{\Sigma zavod} = 98880$ kVt²soatga teng. Quyidagi ifoda yordamida sexning umumkombinat elektr energiyasidan iste'mol ulushi aniqlanadi va barcha sexlarning aniqlangan natijalari jadvalda keltiriladi.

$$W\% = \frac{W_{sex1}}{W_{\Sigma zavod}} \cdot 100\% = \frac{9200}{98880} \cdot 100 = 9,3\%$$

YOG'-MOY KOMBINATINING ELEKTR ENERGIYA BALANSI

№	Sexlar nomi	P_h , kVt	t, soat	W, kVt ² soat	W, %
1	Tayyorlov sexi №1	1150	8	9200	9,3
2	Tayyorlov sexi №2	1000	8	8000	8,1
3	Yuvish bo'limi	650	8	5200	5,3
4	Mahsulotxona	1250	8	10000	10,1
5	Issiqlik elektr markazi	1000	16	16000	16,2

6	Zavod boshqarmasi	600	8	4800	4,9
7	Tayyor mahsulot ombori	50	8	400	0,4
8	Hom ashyo ombori	550	8	4400	4,4
9	Avtopark	370	16	5920	6,0
10	Nasosxona №1	150	16	2400	2,4
11	Nasosxona №2	550	16	8800	8,9
12	Ta'mirlash-mexanika sexi	620	8	4960	5,0
13	Laboratoriya	100	8	800	0,8
14	Kompressorxona	1000	16	16000	16,2
15	Oshxona	250	8	2000	2,0
	JAMI	9290		98880	100

Iste'mol kartogrammasi bu – energetik balans elementlarining aniqlangan foiz ulushlari ifodasidir. Iste'mol kartogrammasi energetik balans elementining ko'rilayotgan ob'yektda qanday taqsimlanganligini ifodalaydi. Quyida berilgan yog'-moy kombinati uchun qurilgan iste'mol kartogrammasini tahlil qilinsa, umumkombinat miqiyosida asosiy iste'mol ulushi kompressorxona va issiqlik elektr markazi 16,2 % dan, maxsulotxona 10,1%, tayyorlov sexi №1 9,3% sexlariga foiz miqdorlarida to'g'ri keladi. Energiyani tejash tadbirlari aynan shu nuqtalarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, iste'mol yuqori bo'lgan nuqtalarda isroflar ham shunga mos bo'ladi. Bu nuqtalarda energiyani tejash tadbirlarini amalga oshirishga ketgan iqtisodiy mablag'lar ham qoplanadi.

References:

1. Джуманов А. Н. и др. ИЗМЕРИТЕЛЬНЫЕ ТРАНСФОРМАТОРЫ ТОКА //World science: problems and innovations. – 2021. – С. 76-78.
2. Mamasaliev O. Theoretical Foundations of Energy Saving //International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) ISSN. – 2021. – С. 293-296.
3. Mamasaliev O., Sarimsoqov U. CALCULATION OF WIRES FOR MECHANICAL STRENGTH //Студенческий вестник. – 2021. – №. 21-10. – С. 15-19.
4. Suyarov A. Power Loss Minimization in Distribution System with Integrating Renewable Energy Resources //International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS). – 2021. – Т. 5. – №. 2. – С. 37-40.
5. Hasanov M. et al. Optimal Integration of Photovoltaic Based DG Units in Distribution Network Considering Uncertainties //International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR), ISSN. – 2021. – С. 2643-9603.
6. Boliev A. M. INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF THE RENEWABLE ENERGY SYSTEM IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 130-135.
7. Tanirbergenov R., Suyarov A., Urinboy J. Application of Solar and Wind Units as Primary Energy Sources in Autonomous Networks //International Journal of

RELIABILITY OF ELECTROMAGNETIC CONVERTER

Напряжение на выходе вторичной плоской измерительной катушки $U_{\text{ЭВЫХ}}$ преобразователя определяется выражением:

$$U_{\text{ЭВЫХ}} = (4.44 \times f \times w_{\text{ПНО}}) \times \Phi_{\mu} = K_{\mu\text{Э}} \times \Phi_{\mu}$$

где: $K_{\mu\text{Э}} = 4.44 \times f \times w_{\text{ПНО}}$ – коэффициент преобразования магнитного потока в электрическое напряжение,

f – частота электрической сети питания, ($f_{\text{н}} = 50$ Гц),

$w_{\text{ПНО}}$ – числа витков плоской измерительной катушки,

Согласно структурной схеме преобразования входного напряжения $U_{\text{ЭВХ}}$ или тока $I_{\text{ЭВХ}}$ (рис.1) определяем выходной ток $I_{\text{ЭВЫХ}}$

$$I_{\text{ЭВЫХ}} = K_{\mu\text{Э}} \times \Phi_{\mu} / \Pi_{\text{ЭВХ}} = K_{\mu\text{Э}} \times \Phi_{\mu} / (\Pi_{\text{ЭВХ}} \times \Pi_{\mu}),$$




Рис.1 Структурная схема преобразования электрических и магнитных величин преобразователе тока в напряжение

Согласно конструкции преобразователя тока в напряжение и плоской измерительной катушки (рис.2,3), на основе равенства м.д.с. F_{μ} создаваемые обмотками в магнитной системе, определяется уравнение, связывающие величины и параметры электрической энергии, и показывающие принципы преобразования тока в напряжение.

Преобразователь одно, двух или трехфазного тока электрической сети в напряжение с расширенными функциональными возможностями и упрощенным принципом построения, повышенной точностью преобразования содержит (рис.2) магнитопровод с общим основанием 1 с четырьмя параллельными стержнями 2, 3, 4 и 5; первичные обмотки 6 (фаза А), 7 (фаза В), и 8 (фаза С) в виде одно, двух и трех проводов электрической сети, расположенных в выемках параллельных стержней; плоские измерительные катушки 9, 10 и 11 расположены между дополнительными сердечниками 12, 13, 14 и 15 на изоляционных пластинках 16, 17 и 18 (рис.3) [1].




Рис.2 Конструкция преобразователя тока в напряжение




Рис.3. Плоские измерительные катушки

Выполнение магнитопровода с одним общим основанием и с параллельными стержнями, на выемках которых расположены первичные обмотки возбуждения, а также расположения плоских измерительных катушек между дополнительными сердечниками позволяет уменьшить количество измерительных катушек и привести их количество в соответствие с количеством первичных обмоток, что существенно упрощает конструкцию преобразователя и обеспечивает возможность преобразования токов одной, двух и трех фаз электрической сети и повышает тем самым функциональные возможности преобразователя тока в напряжение.

Использованные источники:

- 1.Амиров С.Ф., Азимов Р.К. и др. Преобразователь тока в напряжение. Решение о выдаче патента РУз. IAP 2008 0341 от 17.09.2008 г.
- 2.Л.Н.Сафонов, В.Н. Волнянский, А.И.Окулов, В.Н.Прохоров. Прецизионные датчики с печатными обмотками. М.:Машиностроение, 1977, 234 с.

*Султонов К.С.
профессор
Ташкентский государственный аграрный университет
Эгамбердиев П.Э., кандидат наук
доцент
Гулистанский государственный университет
Жўлбеков И.С.
Гулистанский государственный университет*

**УЗУМНИНГ КИШМИШБОП НАВЛАРИНИНГ ВЕГЕТАЦИЯ
ФАЗАЛАРИНИНГ ЎТИШ МУДДАТЛАРИГА ЎСТИРУВЧИ
МОДДАЛАРНИНГ ТАЪСИРИ**

Аннотация. Ушбу мақолада узумнинг кишмишбопнавларини ерток усулида етиштиришда асосий фенологик фазаларнинг ўтиш муддатларига ўстирувчи ва ўсишни бошқарувчи моддаларнинг таъсири бўйича илмий тажрибалар ва кузатишлар олиб борилгани ҳамда олиб борилган тадқиқотлар натижалари тўғрисида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: ерток, фенологик фаза, туп, кишмишбоп, куртак, назорат вариант, гуллаш, гужум.

*Sultonov K.S.
professor
Tashkent State Agrarian University
Egamberdiev P.E., PhD
associate professor
Gulistan State University
Zholbekov I.S.
Gulistan State University*

**INFLUENCE OF GROWTH REGULATORS ON THE TRANSITION
PERIODS OF THE VEGETATION PHASES OF RAISIN VARIETIES
OF GRAPES**

Abstract. This article presents scientific experiments and observations on the influence of growth regulators and growth management substances on the transition periods of the main phenological phases in the cultivation of raisin varieties of grapes using an early method, as well as data on the results of the conducted research.

Keywords: early method, phenological phase, vine, raisin, bud, control variant, flowering, cluster.

Кириш. Ўзбекистон Республикасида сўнгги йилларда узумнинг кишмишбоп ва шаропбоп навларида токнинг ерток усулида етиштириш орқали узум ҳосилдорлигини ошириш бўйича илмий тадқиқот ишлари олиб борилган ва муайян натижаларга еришилган. Бироқ, узумнинг кишмишбоп навларини етиштиришда занг ва новдаларнинг узум ҳосилдорлиги ва сифатига таъсирини ўрганиш бўйича тадқиқотлар олиб борилмаган. Ўзбекистон Республикасининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг 30-мақсадида «кишлоқ хўжалигини илмий асосда интенсив ривожлантириш орқали деҳқон ва фермерлар даромадини камида 2 баробарга ошириш, кишлоқ хўжалигининг йиллик ўсишини камида 5 фоизга етказиш»⁴⁰ ҳамда туманларни аниқ маҳсулот турини етиштиришга, жумладан боғдорчиликка 46 та, узумчиликка 48 та туманни ихтисослаштириш, ушбу туманларда плантацияли усулда 25 минг гектар мевали боғ, 50 минг гектар узумзор екилишини таъминлаш муҳим вазифа қилиб белгиланган. Бу борада узумнинг кишмишбоп навларини истокболли ўстириш усуллари танлаш, узумнинг кишмишбоп навларига ўстирувчи моддаларни қўллаш усуллари, фенологик фазаларнинг ўтишига боғлиқлиги ва вегетация фазаларининг ўтиш муддатларини аниқлаш бўйича илмий тадқиқот ишларини кенгайтириш ҳам назарий, ҳам амалий аҳамиятга ега бўлган долзарб вазифа ҳисобланади.

Тадқиқотнинг объекти сифатида узумнинг Кишмиш чернийнави, Кишмиш белий овалний, Кишмиш согдиана, Ф1 Қора кишмиш, Ф1 Оқ кишмиш, Ф1 Пушти Кишмиш навлари куртаклар ёзилгандан то гуллаш бошлангунча ҳамда гуллаш фазалари хизмат қилган.

Тадқиқот материаллари. Тажрибалар Х.Ч.Бўриев, Н.Ш.Енилеев ва бошқалар томонидан ишлаб чиқилган «Мевали ва резавор мевали ўсимликлар билан тажрибалар ўтказишда ҳисоблар ва фенологик кузатувлар методикаси» (2014) [1.], М.А.Лазаревскийнинг «Методў ботанического описания и агробиологического изучения сортов винограда» (1946), Витковского В.Л. Изучение сортов винограда (методические указания) (1988), номли услубий адабиётларида келтирилган тавсия ва услублар бўйича ўтказилган [2].

Тадқиқот натижалари. Токнинг йиллик ривожланиш даври ўсув ва тиним даврини ўз ичига олади. Ток ўсимлигининг ўсув даври 6 та жараёндан иборат бўлиб улар қуйидагилардир: биринчи фаза эрта баҳорда ҳароратнинг кўтарилиши билан шира ҳаракатини бошланиши, (бу токда шира ҳаракати бошланиб, куртакларнинг бўртиши давригача, яъни куртаклар кўрингунга қадар давом этади); иккинчи фаза ток тупларида куртаклар ёзилгандан то гуллаш бошлангунча давом этади (бу даврда ток тупларини симбағазларга боғлаш ишлари амалга оширилади); учинчи фаза гуллаш ҳисобланиб (бу

40 Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон

давр жуда муҳум ҳисобланиб, ҳомток қилиш, ток қатор ораларида агротехник тадбирларни бажариб бўлмади чунки гултож қалпоқчаларининг тўкилиши даражаси юқори бўлади, бу фаза гуллашдан то гуллар тўкилганча давом этади); тўртинчи фаза ғужумларнинг тугиши ва новдаларнинг ўсиши ҳисобланиб (бу даврда ток туплари хомток ишлари ва суғориш ишлари амалга оширилиб ҳосилдорликка эътибор берилади, ғужумларининг пайдо бўлишидан бошланиб, ғужумларнинг пишишини бошланиш давригача давом этади); бешинчи фаза узум ғужумларининг пишиши (бу даврда барча агротехник тадбирлар ҳамда ток туплрига кимёвий ишлов бериш ишлари якунланган бўлиши керак); ва баргларнинг тўкилиши(хазонрезлик) Ш. Темуров [98; 3–110-б.].

Юқорида кўрсатилган узумнинг кишмишбопнавларини ерток усулида етиштиришда асосий фенологик фазаларнинг ўтиш муддатларини ўрганишга таъсири бўйича илмий тажрибалар ва кузатишлар олиб борилди.

Узумнинг кишмишбоп навларининг куртаклари бўрта бошлашини кузатиш шуни кўрсатдики, узумнинг ўрганилган кишмишбоп навларида куртакларнинг энг эрта бўртиши (22/IV) Ф1 Кишмиш белый овалный навида кузатилди. Иқлим шароитига боғлиқ ҳолда баъзи йилларда куртакларнинг бўртиши кўрсатилган муддатдан сезиларли фарқлансада, вариантлар кесимида юқорида таъкидлаб ўтилган тенденция сақланиб қолди. Бошқа вариантларда бирмунча кечроқ Ф1 Қора кишмиш ва Ф1 Оқ кишмиш навларда (24/IV) куртакларнинг бўртиши кўрсатилган вариантлар оралиғида бўлди.

1-жадвал

Узумнинг кишмишбоп навларида куртаклар бўртишини бошланиш муддатлари(2021-2023 йиллар)

Т/р	Вариантлар	2021	2022	2023	Ўртача
1	Кишмиш черыйнави	23/IV	20/IV	17/IV	20/IV
2	Кишмиш белый овалный	15/IV	17/IV	18/IV	17/IV
3	Кишмиш Согдиана	23/IV	22/IV	18/IV	21/IV
4	Ф1 Қора кишмиш	24/IV	22/IV	19/IV	21/IV
5	Ф1 Оқ кишмиш	24/IV	22/IV	19/IV	21/IV
6	Ф1 Пушти Кишмиш	22/IV	23/IV	18/IV	21/IV

Узумнинг кишмиш черный навида куртакларнинг бўртиши ўртача 20/IV да кузатилган бўлса, Кишмиш белый овалный навида 17/IV да, Кишмиш Согдиана, Ф1 Қора кишмиш, Ф1 Оқ кишмиш ҳамда Ф1 Пушти Кишмиш навларида 21/IV да кузатилди. Йиллар кесмида куртакларнинг бўртишини кузатилганда энг эрта муддатда Кишмиш белый овалный 15/IV да кузатилган бўлса энг кеч муддатда шу йилнинг ўзида Ф1 Қора кишмиш ва Ф1 Оқ кишмиш навларида 24/IV да кузатилиши аниқланди.

Ток ўсимлигининг гуллаш ва гулларининг очилишидан гултож қалпоқчаларининг тўкилишидан бошланади ва ғужумлар тўкилишига давом этади. Узумнингкишмишбопнавларини гуллашни бошланиш муддатлари 2021-2023 йиллар давомида қуйидаги кўрсаткичларга эга бўлди. УзумнингКишмиш черыйнави ишлов берилмаган (назорат) вариантыда гуллашнинг бошланиш муддати ўртача 20/V ташкил этган бўлса, Гиббереллин ИКС 25 мг/л, Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л, гуллашдан олдин қўлланилагнда гулашнинг ўртача муддати назорат вариант билан бир муддатда бўлиши қайт этилди. Йиллар кесимида ўрганилганда энг эрта гуллаш 15/V да бошланган бўлса, энг кеч муддатда 23/V да бўлиши қайт этилди.

Узумнинг Кишмиш белый овалныйнавида ишлов берилмаган (назорат) вариантда гуллашнингўртача бошланиш муддати 15/V да бўлди. Гиббереллин ИКС 25 мг/л, Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л, гуллашдан олдин қўлланилагнда гулашнинг ўртача муддати 17/V да бўлди ва назорат вариантдан икки кун кейин бошлаши кузатилди. Йиллар кесимида ўрганилганда энг эрта муддатда 14/V да бошланган бўлса, энг кеч муддат иккинчи вариантда 18/V да бўлиши кузатилди. Назорат вариантданўрт кун кеч гуллаши қайт этилди.

Узумнинг Кишмиш Согдиана навида ишлов берилмаган (назорат) вариантда гуллашнингўртача бошланиш муддати 15/V да бўлди. Гиббереллин ИКС 25 мг/л, Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л, гуллашдан олдин қўлланилагнда гулашнинг ўртача муддати 16/V да бўлди ва назорат вариантдан бир кун кейин бошлаши кузатилди. Йиллар кесимида ўрганилганда энг эрта муддатда 13/V да бошланган бўлса, энг кеч муддат иккинчи вариантда 18/V да бўлиши кузатилди. Назорат вариантданўрт кун кеч гуллаши қайт этилди.

2-жадвал

Узумнингкишмишбопнавларини гуллашни бошланиш муддатлари (2021-2023 йиллар)

Т/р	Вариантлар	2021	2022	2023	Ўртача
Кишмиш черыйнави					
1	Ишлов берилмаган (назорат)	15/V	20/V	17/V	20/V
2	Гиббереллин ИКС 25 мг/л Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л, гуллашдан олдин	23/V	21/V	18/V	20/V
Кишмиш белый овалный					
1	Ишлов берилмаган (назорат)	14/V	16/V	15/V	15/V
2	Гиббереллин ИКС 25 мг/л Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л,	16/V	18/V	17/V	17/V

Кишмиш Согдиана					
1	Ишлов берилмаган (назорат)	13/V	16/IV	15/V	15/V
2	Гиббереллин ИКС 25 мг/л Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л,	15/ V	18/ V	16/ V	16/V
Ф1 Қора кишмиш					
1	Ишлов берилмаган (назорат)	18/V	22/V	20/V	20/V
2	Гиббереллин ИКС 25 мг/л Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л,	20/V	24/V	23/V	22/V
Ф1 Оқ кишмиш					
1	Ишлов берилмаган (назорат)	12/V	17/V	15/V	15/V
2	Гиббереллин ИКС 25 мг/л Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л,	15/V	19/V	17/V	14/V
Ф1 Пушти Кишмиш					
1	Ишлов берилмаган (назорат)	16/V	19/V	16/V	17/V
2	Гиббереллин ИКС 25 мг/л Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л,	19/V	24/V	22/V	22/ V

Узумнинг Ф1 Қора кишмиш навида ишлов берилмаган (назорат) вариантда гуллашнингўртача бошланиш муддати 20/V да бўлди. Гиббереллин ИКС 25 мг/л, Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л, гуллашдан олдин қўлланилагнда гулашнинг ўртача муддати 22/V да бўлди ва назорат вариантдан икки кун кейин бошлаши кузатилди. Йиллар кесимида ўрганилганда энг эрта муддатда 18/V да бошланган бўлса, энг кеч муддат иккинчи вариантда 24/V да бўлиши кузатилди. Назорат вариантданолти кун кеч гуллаши қайт этилди.

Узумнинг Ф1 Оқ кишмиш навида ишлов берилмаган (назорат) вариантда гуллашнингўртача бошланиш муддати 15/V да бўлди. Гиббереллин ИКС 25 мг/л, Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л, гуллашдан олдин қўлланилагнда гулашнинг ўртача муддати 14/V да бўлди ва назорат вариантдан бир кун олдин бошлаши кузатилди. Йиллар кесимида ўрганилганда энг эрта муддатда 12/V да бошланган бўлса, энг кеч муддат иккинчи вариантда 19/V да бўлиши кузатилди. Назорат вариантданетти кун кеч гуллаши қайт этилди.

Узумнинг Ф1 Пушти Кишмиш навида ишлов берилмаган (назорат) вариантда гуллашнингўртача бошланиш муддати 17/V да бўлди. Гиббереллин ИКС 25 мг/л, Борная кислота 50 мг/л, Ситогуммат 200 мг/л, Фитовак 100 мг/л, Магний 50 мг/л, гуллашдан олдин қўлланилагнда гулашнинг ўртача муддати 22/V да бўлди ва назорат вариантдан беш кун кеч бошлаши кузатилди. Йиллар кесимида ўрганилганда энг эрта муддатда 16/V

да бошланган бўлса, энг кеч муддат иккинчи вариантда 24/V да бўлиши кузатилди. Назорат вариантданолти кун кеч гуллаши қайт этилди

Хулоса. Олиб борилган тадқиқотлар натижалари шуни кўрсатдики ўстирувчи маддаларни қўлланилса узумнинг кишмишбоп навларида назорат вариантга нисбатан Кишмиш черыйнавида бир хил муддатда. Кишмиш белый овалный навида 2 кун, Кишмиш Согдиана навида 1 кун, Ф1 Қора кишмиш навида 2 кун, Ф1 Пушти Кишмиш навида 5 кун кеч бўлиши, Ф1 Оқ кишмишнавида 1 кун эрта бўлиши аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Буриев Х.Ч., Енилеев Н.Ш. ва б. Мевали ва резавор мевали ўсимликлар билан тажрибалар ўтказишда ҳисоблар ва фенологик кузатувлар методикаси. – Т., 2014. – 2-51 б.
2. Витковского В.Л. Изучение сортов винограда (методические указания). – Ленинград. – 1988. – С. 58
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опъта. – М.: Агропромиздат. - 1985. – С. 311-320.
4. Темуров Ш. «Узумчилик» маъруза матнлари Тошкент –2004. – 45-50-б
5. Егамбердиев П.Е. Узумнинг хўраки навларини воиш усулида етиштиришда куртак юкламаларини узум ҳосилдорлиги ва сифатига таъсири. – дисертация. – Тошкент, 2023. – Б. 52-85.
6. Сапаева З. Ш. и др. Влияние низкотемпературной обработки некоторых сортов винограда на их аминокислотный состав //Молодой ученый. – 2021. – №. 22. – С. 117-120.
7. Kamoliddin S., Pulatjon E., Ibrohim J. DEPENDENCE ON THE MECHANICAL COMPOSITION OF THE APPLICATION OF GROWTH SUBSTANCES TO THE GROWING VARIETIES OF GRAPES //Universum: технические науки. – 2024. – Т. 8. – №. 3 (120). – С. 37-40.

*Тўхтақўзиев А.
техника фанлари доктори
ҚХМИТИ нинг профессори*

*Росабоев А.
техника фанлари номзоди
ҚХМИТИ нинг катта илмий ходими
Худайбердиев А.А.
доцент*

*Жиззах политехника институти
техника фанлари номзоди, ТУРОН ФА академиги*

УРУҒЛАРНИ ҚОБИҚЛАШ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОЭНЕРГИЯ САРФИНИ КАМАЙТИРИШ

Аннотация. Мақолада қобиқлаш процессида электроэнергияни тежаши ускуна барабанининг ички қисмига сферик сиртлар ўрнатилиши орқали эришилганлиги баён этилган.

Калит сўзлар: уруг, қобиқлаш, кўчат, зичлик, тарелкасимон барабан, сферик элемент, тирбандлик, технологик жараён.

*Tokhtakoziev A., doctor of technical sciences
professor
QXMITI*

*Rosaboev A., candidate of technical sciences
senior researcher
QXMITI*

*Khudaiberdiev A.A., candidate of technical sciences
academician of TURON FA
associate professor
Jizzakh Polytechnic Institute*

REDUCTION OF ELECTRICAL ENERGY CONSUMPTION IN THE PROCESS OF COATING SEEDS

Annotation. The article describes the energy savings during seed coating in installations with the establishment of spherical protrusions along the inner plane of the drum.


Key words: seeds, drageeing, sprouts, density, plate drum, parabolic element, cork, technological process.

Тукли чигитлар ва сочилувчанлиги паст бўлган техник экинларнинг уруғини қобиқлаб, сочилувчанлигини ошириш учун ҚХМИТИ олимлари томонидан тарелкасимон барабан турдаги қурилма ишлаб чиқилган.

Охирги вариантда ҳам камчилик мавжуд, яъни қўшимча қўйилган эгри чизикли мослама туфайли бўланаётган чигитлар қобикловчи қурилманинг ичида ҳаракатланаётганда қаршиликка учрайди ва қаршилиқ кучи ҳисобига электродвигател қувватига таъсир этади, ортиқча электроэнергия сарф бўлишига олиб келади. Бундан ташқари, эгри чизикли мослама билан қурилма ички сирти орасида ҳаракатланаётган чигитлар қўшимча сиқилишига мажбур бўлади, бу эса бўланишнинг бир текисда амалга ошишига тўсқинлик қилади, чигитлар эгри чизикли мослама билан тўкнашганда деформацияга учрайди, бу ҳолат чигитларнинг шикастланишига олиб келади.

Бу камчиликларни бартараф этиш қўйидагича амалга оширилади.

Барабанли қобиклаш ускунасида қобиклаш процесси яхшиланиши учун унинг ички цилиндрик айланма сиртига сферик элементлар билан қопланган юққа лист маҳкамланиб чиқилади. Бу ҳолатда айлана бўйича ҳаракатланаётган уруғ сферик элементга келганда ҳаракат йўналишини ўзгартиради, яъни у аввал қиялик бўйича юқорига кўтарила бошлайди ва юқори нуқтасига чиқиб ёки чиқмасдан сферик юзада сирпаниб чиқаётган ўнг ёки чап томонга айланма ҳаракат қилиб ағдарилиб тушади (1-расм). Шу пайтда уруғнинг барабан сиртида ишқаланиб келаётган, яъни химикатлар билан бўланиши қийинлашаётган пастки томони бўланиш имкониятига эга бўлади. Натижада уруғнинг қобикловчи химикатлар билан бўланиш сифати ошади бўланиш вақти камаяди, электроэнергия тежаллади, эгри чизикли мосламага хожат қолмайди. Сферик сиртга эга бўлган листнинг қурилма ички юзаси бўйича ўрнатилиши 1-расмда кўрсатилган.



1-расм. Сферик элементнинг барабан ички юзасида жойлашув схемаси.



2-расм. Тажрибадан ўтказилган лист вариантлари.

Ўнгдан чапга; 1-тўсиқлар барабан ўқиға 10 градиус қилиб ясалган; 2-тўсиқлар барабан ўқиға параллел ҳолда ясалган; 3-лист юзаси шахмат тарзида жойлашган сферик тўсиқчалардан ташкил топган.


Тажрибада 3 хил вариант листлар урганилиб чиқилди (2-расм): 1, барабан ўқиға 10 градиус қия, барабан эни бўйича эллипссимон тўсиқли лист; 2, барабан ўқиға параллел, барабан эни бўйича эллипссимон тўсиқли лист; 3, бутун юза бўйича сферик элементлар билан қопланган лист.

Юқоридаги вариантларни урганиб чиқиш учун махсус қурилма ясалди (3-расм).



3-расм. Қурилманинг иш ҳолати.

Қурилма кўйидагича ишлайди: ҚХМЭИ олимлари томонидан яратилган технология буйича амалга оширилади. Чап томонда химикатлар солинган полиэтилен идишдан суюқлик электронасос ёрдамида пуркагичга узатилади. Мини-дражираторга қобикланиши керак бўлган 15 кг уруғлар солинган. У электродвигател билан ишга туширилган. Пуркагич орқали химикатли суюқлик керакли тезликда зарур миқдорда барабан ичига сепилади. Шунини таъкидлаш керакки, қобиклаш жараёнида рул ёрдамида барабан ҳоҳлаган бурчак остида ўз ҳолатини ўзгартириши мумкин. Бу усул уруғларнинг бўланишини тезлаштиради, ва сифатли бўланишини таъминлайди.



4-расм. Сферик тўсиқли лист иш жараёнда.



5-расм. Мини-дражираторнинг юқорига қаратилган кўриниши.

Курилманинг параметрлари: электродвигател қуввати – 1,1 квт; кучланиши- 230 в; барабан диаметри – 0,7 м; барабан айланишлар сони – 29,5 айл/мин.

Аввал 2-расмдаги 1 ва 2 вариантлар синовдан ўтказилди.

Биринчи вариантдаги лист тажрибадан ўтказилганда уруғлар ўз ҳаракат траекториясини тўғри чизикли йўналишда давом эттириб тўсиқлардан ошиб ўтганда айланма ҳаракатни амалга оширмаслиги сабабли бўланиш жараёни ёмон натижани берди. Иккинчи вариантда ҳам, тўсиқлар

қия жойлашганлигига қарамасдан уруғлар айланма ҳаракат қилмаганлиги сабабли бўланиш жараёни яхши амалга оширилмади. Учинчи вариантда сферик тўсиқчалар лист юзаси бўйича шахмат тарзида жойлаштирилгани сабабли уруғлар биринчи тўсиқда қандайдир бурчакка буралиб ўз ҳаракат йўналишини ўзгартирса кейинги тўсиқда йўналишини яна қандайдир бурчакка ўзгартиради. Ўз ҳаракати давомида уруғ жуда кўп тўсиқчаларга дуч келганлиги сабабли жуда кўп айланма ҳаракат қилишга мажбур бўлади, бу ҳолат эса яхши бўланишга олиб келади

Аввал қалинлиги $t=1$ мм бўлган эни қурилма барабанининг энига тенг $B=40$ см, узунлиги қурилма ички айлана переметрига $L= \pi D/2=198$ мм тенг бўлган лист олиб унинг бир томонига аввал радиуси $R=10$ мм кейин $R=8$ мм бўлган сферик тўсиқчалар ҳосил қилиб чиқилади. Бу сферик тўсиқчалар листнинг узунлиги бўйича масофаси $l=30$ мм эни бўйича $b=45$ мм масофада шахмат усулида ҳосил қилинади (1-расм). Шу размерда чигитлар ўз ҳаракат йўналишида албатта сферик элементларга учрайди ва биринчи сферик элементда қандайдир бурчакка айланса кейингисиде албатта шу бурчакка тескари томонга бурилади ва хоқозо. Шу тариқа технологик жараён пайтида чигитларнинг ҳаммаси бўланиш жараёнида қатнашади, бу ҳолат эса бўланишнинг муқаммал бўлишига ва технологик жараён вақтининг камайишига, ўз навбатида электроэнергиянинг тежалишига олиб келади.

Қобиклаш усқунаси ичида бўланиш процесси сифатли ўтишида сферик элементнинг параметрлари аҳамиятга эга. Элемент параметрларини тажрибабилан аниқлаш мумкин. Уруғлар ҳаракатига элементлар тескари таъсир кўрсатмаслиги яъни кетма-кет келаётган уруғлар қияликка келиб ортиқча қаршилиққа учраб тирбандлик ҳосил қилмаслигида қиялик бурчаги аҳамиятга эга. Чунки унинг катта қийматларида кетма-кет келаётган уруғларнинг ортиқча қаршилиққа учрашига олиб келади. Бу эса ортиқча ишқаланиш кучлари яъни уруғлар ўртасидаги ишқаланиш кучининг ортиб кетишига, уруғ сифатининг пасайишига олиб келади.

Пахта уруғларини қобиклаш масаласи билан ҚХМИТИ илмий ходимлари шуғулланишган ва қобикловчи усқунанинг керакли параметрлари аниқланган. Қобиклаш усқунаси барабанининг радиуси $R = 0,7$ м; барабанининг горизонтал текисликка нисбатан қиялик бурчаги $\beta = 40^\circ$; барабан айланишлар сони $n = 251/\text{мин}$, электродвигатель қуввати $N = 30$ кВт, қобиклаш жараёни вақти $T = 17$ мин. 120 кг уруғни қобиклаш учун сарфланган электроэнергия миқдори $N_{\text{сarf}} = T \times N/60 = 17 \times 30/60 = 8,5$ кВт, 1 кг уруғ учун кетган минимал энергия миқдори $N_{\text{мин}} = 8,5/120 = 0,07$ кВт/кг.

Амалда қобиклаш усқунаси ичида уруғлар бир қанча қатлам бўлиб ҳаракатланади. Элементга келиб урилган бир неча қатлам ҳам унга теккандан сўнг қандайдир бурчакка айланма ҳаракат қилишга мажбур бўлади. Элементлар шахмат тарзда жойлашганликлари учун уруғлар биринчи элементдан айланма ҳаракат олган бўлсада кейингисига келиб яна

айланади ва ҳақозо. Бу ҳолат уруғларнинг яхшироқ бўланишига олиб келади.

Сферик элементларнинг мавжуд тарелкасимон барабанли қобиклаш ускунасида ўтказилган тажрибалар қўйидаги натижаларни берган эди (1-жадвал).

1-жадвал

Қаварик радиуси (мм) R	Жараён вақти (мин) T	Сарф қилинган қувват (кВт) $N_{сарф} = T/60 \times N_{дв}$	Мавжуд усулда жараён вақти (мин)	Мавжуд усулда сарф қилинган қувват (кВт) $N_{м.у.сарф}$	Фарқи (кВт) $N_{фарқ} = N_{м.у.сарф} - N_{сарф}$	Фоиш (%) $\% = N_{фарқ} / N_{сарф} \times 100$
10	14	7,0	17	8,5	1,5	17,0
	15	7,5	17	8,5	1,0	11,0
	16	8,0	17	8,5	0,5	6,0
8	14	7,0	17	8,5	1,5	17,0
	15	7,5	17	8,5	1,0	11,0
	16	8,0	17	8,5	0,5	6,0

Янги яратилган лаборатория ускунасида сферик тўсиқчалар билан қопланган листнинг 2 хил варианты (R=8-10)мм урганиб чиқилди. Қобикланадиган уруғ миқдори 15 кг, жараён вақти T= 7-9 мин, бир жараён давомида сарфланган энергия миқдори $N_{сарф} = T \times N_{дв} = T/60 \times N_{дв} = T/60 \times 1,1$ кВт.

мавжуд усулда энергия миқдори $N_{м.у.сарф} = T/60 \times 30$, буерда T = 17 мин.

У ҳолда $N_{м.у.сарф} = 8,5$ кВт. Мавжуд қобиклаш ускунасида 120 кг чигит қобиклангани сабабли, биз тайёрлаган ускунада 15 кг уруғ қобиклангани учун қиёслаш мақсадида биз олган натижаларни 8(120/15)га кўпайтириб таққосладик.

2-жадвал

Қаварик радиуси (мм) R	Жараён вақти (мин) T	Сарф қилинган қувват (кВт) 1 жараён учун	Сарф қилинган қувват (кВт) 8 жараён учун	Мавжуд усулда сарф қилинган қувват (кВт)	Фарқи (кВт) $N_{ф} = N_{м.у.сарф} - N_{сарф}$	Фоиш (%) $\% = N_{ф} / N_{сарф} \times 100$
10	7	0,13	1,02	8,5	7,48	646
	8	0,15	1,17	8,5	7,33	616
	9	0,165	1,32	8,5	7,18	585
	10	0,18	1,46	8,5	7,04	558
8	7	0,13	1,02	8,5	7,48	646
	8	0,15	1,17	8,5	7,33	616
	9	0,165	1,32	8,5	7,18	585
	10	0,18	1,46	8,5	7,04	558

Натижалар шуни кўрсатдики, сферик тўсиқчаларли листнинг кўлланилиши сабабли жуда катта электроэнергияни тежашга эришилади, сферик тўсиқчанинг параметрига келсак $R = 8-10$ ммрасида энергия тежалишига унча таъсир қилмайди, аммо уруғларнинг бўланиши $R = 8-10$ мм бўлганда сифатли маҳсулот олинди. Бунга сабаб уруғлар барабаннинг тубида бўлганда қатлам бўлиб келаётган уруғларнинг пастки қатламидаги қисми юқоридагиларнинг ҳар томонлама босими таъсирида бир мунча вақт тирбандликка учрайди, чунки, уруғ сферик тўсиқнинг баландлиги бунга қаршилиқ кўрсатади ва бир қанча уруғлар ҳаракати тўхтаб қолади. Шунинг учун тўсиқчанинг баландлиги (радиуси) уруғнинг параметридан кўп марта катта бўлмаслиги маъқулдир. Агар уруғнинг узунлиги овал ҳолатда 4-6 мм бўлса у ҳолда, тўсиқча радиуси 7-8 мм дан ошмаслиги керак. Бундан ташқари юқоридаги камчиликлар барабанни рул ёрдамида ҳаракат пайтида ҳар хил бурчакка ўзгартириб туриши билан йўқотилади, чунки, барабаннинг ўз ўқи атрофида оғдирилиб турилиши уруғлар тирбандлигига барҳам беради, бўланиш сифатини оширади. Юқоридаги (2-жадвал) кўрсаткичлар бабабан ичи сферик тўсиқчалар билан қопланган мини-қобиклаш ускунасида қобиклаш жараёнини амалга оширишнинг афзаллигини кўрсатади.

Хулоса: Тажриба натижаларига асосланиб кўйидаги хулосага келса бўлади:

- қобикланиш жараёнида хамма чигитлар бўланиш жараёнида катнашади, чигитлар жараён пайтида қаттиқ элементларга дуч келмайди шу сабабли улар шикастланишмайди;

- қурилманинг ичида чигитларнинг бир текисда мураккаб (илгариланма ва айланма) ҳаракат қилишига тўсиқчилик қилувчи элементларга зарурият бўлмайди;

- юқоридаги вариантларнинг хаммасида қобикланган чигитларнинг сочилувчанлиги мавжуд технология бўйича олинган маҳсулотнинг сочилувчанлиги билан бир хил, аммо электроэнергия харажатлари 110 фоиз тежалади;

- барабаннинг ўз ўқи бўйича жараён пайтида ҳар қандай бурчакка оға олиши уруғларнинг тирбандликка учрамаслигини, уруғларнинг айланма ҳаракатланишини, бўланиш вақтининг камайишини, бўланиш сифатининг ошишини таъминлайди.

- қурилма конструкцияси эгри чизиқли мосламадан воз кечиш ҳисобига соддалашади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Тухтақўзиев А., Худайбердиев А.А. “Уруғнинг параболик элемент атрофидаги ҳаракати ва элемент параметларини аниқлаш”. Международный научно-практический журнал “Экономика и социум” Выпуск № 6 (97) 2022. Стр 695-700.

2. Росабоев А.Т., Йўлдошев О. “Исследование технологического процесса дражирования опущенных семян”. III–Республиканская научно-техническая конференция “Проблемы внедрения инновационных проектов в производство “Джизак”. стр. 253-256
3. Рашидов Н. и другие. А.С.№160771434, А.С.№1510745 Аппарат для дражирования семян. Б.И. 1989.№36.

*Тўхтақўзиев А.
техника фанлари доктори
ҚХМИТИ нинг профессори
Росабоев А.
техника фанлари номзоди
ҚХМИТИ нинг катта илмий ходими
Худайбердиев А.А.
доцент
Жиззах политехника институти
техника фанлари номзоди, ТУРОН ФА академиги*

ҚУРИТИШ ЖАРАЁНИНИ ТАЖРИБА УСКУНАСИДА АМАЛГА ОШИРИШ

Аннотация. Мақолада қобиқланган уруғларни қуритишида қуритиш ускунасига эластик стерженлардан фойдаланиш қуриш процессига ижобий таъсир этиши исботланган.

Калитсўзлар: чигит, қобиқлаш жараёни, қуритиш ускунаси, колорифер, термометр, шахта, стержен.

*Tokhtakoziev A., doctor of technical sciences
professor
QXMITI
Rosaboev A., candidate of technical sciences
senior researcher
QXMITI
Khudaiberdiev A.A., candidate of technical sciences
academician of TURON FA
associate professor
Jizzakh Polytechnic Institute*


IMPROVEMENT OF DRYING PROCESS IN EXPERIMENTAL EQUIPMENT

Annotation. The article substantiates that the use of elastic rods in a dryer leads to an improvement in the drying of pelleted seeds

Key words: seeds, drageeing process: dryer, heater, thermometer, mine, rod.

Маълумки тукли чигитларни қобиқлаш жараёнида асосий технологик жараёнларидан бири қуритиш ҳисобланади. Мавжуд қуритиш қурилмаларида қуритиш технологик жараёнининг оптимал режимини танлаш, қобиқланган чигитларнинг сифатини сақлаб қолиш имкониятини

беради, чунки бу жараён уларнинг биологикхусусияти билан узвий боғлиқ. Ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, уруғларнинг хаддан зиёд киздирилиши уларнинг унувчанлигининг камайшига олиб келади. Қуритиш жараёнида қизитиш температурасининг нормадан ошиши, уруғ таркибидаги хосил бўладиган ўзгаришлар (коагуляция) уруғларнинг ҳаёт фаолиятини бутунлай тўхтатади. Шундай қилиб юқори сифатли қобиқланган ғўза уруғини олиш уларни қуритиш ва қуритиш қурилмалари билан боғлиқ.



Расм-1. Қобиқланган чигитларни қуритишнинг мавжуд қуритиш қурилмасининг технологик схемаси.

1-колорифер; 2-вентилятор; 3-иссиқ ҳаво оқимини рословчи тўсиқ; 4-ҳаво қувурлари; 5-термометр; 6-аралаштиргич; 7-уруғ оқимини рословчи тўсиқ; 8-тақсимловчи бўнкер; 9-тўр транспортер лентаси; 10-нам ҳавони ташқарига чиқарувчи қувурлар; 11-шахта.

Мавжуд қурилмада қуритиш технологик жараёни қуйидагича амалга оширилади. Қобиқлаш ускунасида тайёрланган уруғлар тақсимлагич бўнкер 8 дан, вибратор (тебратгич) билан жихозланган ростловчи тўсиқ 7 ёрдамида тўр транспортер лентаси 9 га тўлиқ кенлиги бўйича бир текис қатлам билан узатилади. Бир пайтда колорифер 1 дан вентилятор 2 ёрдамида қурилманинг ҳар бир ярусига иссиқ ҳаво оқими узатилиб, унинг тезлиги тўсиқ 3 ёрдамида ростланади.

Қуритиладиган қобиқланган уруғлар тўрли транспортёр лентаси 9 ёрдамида қурилманинг биринчи ярусига ҳаво оқимига қарама-қарши йўналишда ҳаракатланиб, иккинчи ярусга берилади ҳамда унда уруғ ҳаво оқими йўналишида ҳаракатланади.

Қуритилаётган чигит иккинчи ярусдан учинчи ярусга тушади, унда чигит яна ҳаво йўналишига қарама-қарши ҳаракатланади ва ундан шахта 11 га тушади. Шахтадан қуритилган қобиқланган чигитлар транспортер лентаси ёрдамида қоплаш учун йиғиладиган идишга солинади.

Қуритиш қурилмасидаги иссиқ ҳаво ҳарорати колорифер 1 да ўрнатилган “ТЭН” ларни навбатма навбат ўчириб ёқиш ёрдамида ростланади. Қобиқланган чигитларни бир текисда қуришини таъминлаш мақсадида уруғлар қоплами ҳар бир ярусга ўрнатилган аралаштиргичлар 6

ёрдамида аралаштириб турилади. Қобикланган чигитларнинг ажралган намлиги билан тўйинган ҳаво қуритиш камерасидан унинг орқасига ўрнатилган қувурлар 10 ва бункер тақсимлагич 8 енидаги тешиклардан чиқариб ташланади.

Қуритиш камерасидан чиқиш жойида қобикланган чигитларнинг намлиги ўрганилганда, чиқаётган чигитларнинг намлиги 9,5 % дан 18% гача эканлиги аниқланди. Демак мавжуд қуритиш қурилмаси узлуксиз технологик жараёнда қобикланган чигитларни 20 дақиқада тўлиқ қуритиш имкониятини бермайди.

Тўлиқ қуритилган қобикланган чигит олиш учун мавжуд қуритиш қурилмасида 30 дақиқадан кўпроқ вақт талаб қилинди, шунинг учун қобикланган чигитларни қуритиш жараёнини тезлаштириб узлуксиз технологик жараёнда 20 дақиқада сифатли қуритилган чигит олиш учун мавжуд қуритиш қурилмасини такомиллаштириш зарур бўлади. Адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики материалларни қуритиш тезлиги қуритилаётган материал сиртидан ва атроф муҳит ўртасидан бўғнинг порционал босимига боғлиқ экан. Демак уруғларни қуритиш жараёнини тезлатиш учун қуритилаётган материал сиртидан буғ босимини ошириш ёки атроф муҳитдан буғ босимини камайтириш керак бўлади. Қуритилаётган материал сиртидаги буғ босимини уруғнинг ҳароратини ошириш йўли билан ошириш мумкин, атроф муҳитдаги буғ босимини эса қуритиш камерасидаги иссиқлик мувозанатини бузиш йўли билан буғ босимини камайтириш мумкин. Материалнинг ҳароратини ошириш мақсадга мувофиқ эмас. Биринчидан, пайт келадик, қуритилаётган материал температураси ошиб бориб бўғ ва уруғ намлиги тенглашганда, уларнинг ҳарорати қуритиш камераси ҳароратига яъни, иссиқлик элтувчи ҳавонинг ҳароратига тенг бўлади. Бу пайтда қуритиш вақти мувозанат ҳолатига келади ва қобикланган чигитларни қуриш вақти узаяди. Иккинчидан, қуритилаётган материалнинг ҳаддан ташқари қизиши уруғларнинг унвчанлигига ва ривожланиш қувватига салбий таъсир кўрсатади.


Шунинг учун қуриш қурилмасидаги буғ босимини ундан иссиқлик мувозанатини бўзиш йўли билан камайтириш мақсадга мувофиқ.

Қуритиш қурилмасидаги иссиқлик мувозанатини бузишни оцилмирующий (ўзгарувчан) режим ҳосил қилиб амалга ошириш мумкин. Бунинг учун мавжуд қурилманинг технологик схемасига камерага совуқ ҳаво берувчи вентилятор киритиб такомиллаштирилган қурилмани тайёрлаш зарур.

Қобикланган уруғларни қуритиш ускунасининг транспортер лентасидан тушаётган уруғнинг шкастланмасдан тушуши ва унинг сиртининг ҳамма тамони бутунлай сифатли қуриши учун, унга кейинги транспортер лентага бошқа юзаси билан оҳиста тушиши учун уруғ ҳаракат траекториясининг охириги қисмида эластик стерженлар ўрнатилган. Бу стерженга уруғ бориб урилганда у айланма ҳаракат қилишга мажбур бўлади,


инерцияси пасайиб стержен бўйлаб текис пастга тушади. Бундан ташқари уруғнинг стерженга келиб урилганда шкастланмаслиги учун стерженлар шарнир ёрдамида эркин осиб қўйилади, яъни у уруғ келиб урилганда қандайдир бурчакка силкиниб туради. Бу эса уруғнинг стерженга келиб урилганда стержен томонидан ҳосил бўладиган реакция кучининг кўпаймаслигига олиб келади. Чунки стержен силкинаётиб қаршилиқ кучини камайтиради.

Эластик стержен материали полиэтилен ёки резинадан тайёрланади (2-расм).



Расм-2. Стерженлар вариантлари: пастдан юқорига; 1-диаметри 6 мм бўлган пўлат стержен, 2-диаметри 8 мм бўлган полиетилен трубка, 3-диаметри 6 мм бўлган тўлиқ полиэтилен стержен, 4-эни 6 мм, қалинлиги 2 мм бўлган полиэтилен брусча.

Уруғнинг транспартёр лентадан отилиб тушишини ўрганамиз. Бунинг учун тажрибалар ўтказиш учун қуриштиш ускунаси ясалди (3-расм).



Расм-3 Ускунанинг умумий кўриниши.

Ускунанинг тузилиши ва ишлаши кўйидагича. Ускуна ҚХМИТИ олимлари исботлаган технология асосида ясалди. У уч ярусдан иборат яъни учта транспортер лентадан иборат, юқорисидаги ва энг пастдаги чап томонга ҳаракатланса ўртасидаги ўнг томонга ҳаракатланади. Бу иккала лентага иссиқ ҳаво берилса ўртасидагига совуқ ҳаво берилади. Ускуна ҳар томонлама ва яруслараро қалинлиги 150 мкн, 200 градус иссиқликка чидамли шаффоф полиэтилен пленка билан ўралган. Ҳаракат керакли айланишлар сонини берувчи электродвигателга уланган червякли редуктордан занжирли узатма орқали транспортер ленталарга узатилади. Чап томонда тепада ўрнатилган калорифер юқоридаги лентага уруғлар ҳаракатига тескари йўналишда иссиқ ҳаво уриб туради. Иккинчи ярусдаги уруғларга ҳаракатига тескари йўналишда ўнг томонда кўрсатилган трубадан совуқ ҳаво уриб турилади. Учинчи, пастдаги ярусдаги транспортер лентага тушган уруғларга ҳаракатига тескари йўналишда чап томонда пастда ўрнатилган калорифердан иссиқ ҳаво йўналтирилади. Қуритиш процессида ишлатилган ҳаво юқорида жойлашган нам қобиқланган уруғлар учун мўлжалланган бункер ёнидаги тешиклар орқали атмосферага чиқиб кетади. Транспортер лента барабанларининг ўқлари орасидаги масофа 1500 мм, транспортер лента тезлиги 0,03 м/сек, жараён вақти 150 сек. ни ташкил этади. Бу давр ичида уруғлар яхши қуримайди. Керакли натижани олиш учун қурилмадан чиққан уруғлар таги сетка бўлган яшиқда 15-20 мин юқа қалинликда сақланади. Бу вақт ичида уруғлар атроф муҳитнинг температурасигача пасаяди. Бу пайтда қурилма кейинги партия уруғларни қуритади. Етти партиядан сўнг биринчи партиядagi уруғлар қайтадан қуритиш қурилманинг бункерига солиниб яна қуритиш давом эттирилади. Бир партия яъни 15 кг уруғни қуритиш учун кетган энергия миқдорини аниқлаш учун аввал сарф қилинган вақтни топамиз: $6 \times 150 \text{сек} = 900 \text{сек} = 15$

мин, у ҳолда умумий сарф қилинган энергия $N_{\text{умум}} = 15/60 \times N_{\text{дв}} = 15/60 \times 2 = 0,5 \text{ кВт}$.

Эластик стерженларни танлаш учун кўйидаги тажрибалар бажарилди (расм-2): металл стержен қўлланганда уруғнинг урилгандан кейинги бурчаги урилганга қадар бурчагига тенглиги кузатилди. Бунга сабаб стерженнинг массаси оғир эканлигидир. Шу сабабли стержен унга уруғ келиб урилганда жойидан силжимади. Бу ҳолатда уруғ қандай куч билан келиб урилган бўлса шунча акс таъсир кучини қабул қилиб олди (Нютоннинг учинчи қонунига асосан), натижада уруғлар шикастланди. Иккинчи ва учинчи вариантларда ҳамурилгандан кейинг тушиш бурчаги кичик бўлишига қарамасдан оҳиста кейинги лентага келиб тушмади, уруғларнинг қобиғи бир мунча шикастланди. Яхши натижалар тўртинчи вариантда яъни оғирлиги 20 гр бўлган эластик брусчалар қўлланилганда эришилди. Бунга сабаб уруғ эластик полиэтилен брусчага келиб урилганда тушиш бурчаги нол градиусдан ҳам пастга тушиб кетди, яъни уруғ бир мунча кичик вақт брусча юзасида сирпаниб оҳиста кейинги лента устига келиб тушди. Бу вариант қониқарли натижалар кўрсатгани учун ушбу вариант устида тажрибалар ўтказилди. Асосий мақсад уруғларнинг осилиб турган стерженларга урилиб шикастланмай кейинги лентага олдинги лентадаги ҳолатига нисбатан тескари тушишини таъминлаш.

Бунинг учун 100 та уруғ бир томони оқ рангга бўялди, уруғлар силжиб кетмаслиги учун лентанинг уруғлар жойлашган участкага юпқа қилиб қум сепилди (расм-4).



Расм-4. Бўёқланган чигитлар.

Юқоридаги схемада кўрсатилган эластик стерженнинг қўлланилиши ҳисобига уруғнинг ўниб чиқиши ва ривожланишига ижобий таъсир этади, чунки бунинг натижасида текис қуриш бир мунча янада яхшиланади, масофалари бўйича текисланиши (лента устида жойлашиши), геометрик размерлари ва унинг донадорлиги бошланғич ҳолатига нисбатан ошади.

Назарий эҳтимолларнинг қанчалик ҳақиқатга яқинлигини билиш учун тажрибалар ўтказилди. Аввал стерженларсиз ускунада чигитлар кейинги пастда жойлашган лентага қай ҳолатда, яъни ўз жойлашуви қанчалик ўзгартириб жойлашиши урганилди, сўнгра стерженлар ўрнатилиб тажрибалар ўтказилди. Бу процесс яққол кўриниши учун 100 та чигит юқоридаги лентада жойлашган пайтда уларнинг юқори қисмларига оқ бўёқ билан нуқтали белгилар қўйилиб чиқилди. Тажрибалар 10 мартадан қайтарилди. Ҳар сафар чигитлар пастки лентага тушиб жойлашгандан кейин уларнинг ёнақайи ёки тескари бўлиб ўрнашиши фоиз ҳисобида ёзиб борилди. Сўнгра шу тажриба энгил эластик брусчалар ўрнатилган ҳолатда ўтказилди (расм-5). Стерженлар параметрлари эса қўйидаги назарий-амалий тушунчаларга таяниб қабул қилинди:

- стержен утуғга зарар етказмаслиги учун у энгил плпстмассадан тайёрланди,

- стерженнинг эни чигит узунлигидан ошмаслик керак (10 мм)


- ёнма-ён жойлашган иккита стержен яқин чеккалари орасидаги масофа чигит қисилиб қолмаслиги учун унинг размери чигит узунлигидан катта бўлиши керак ($b=10$ мм),

- чигитларнинг ҳаммаси жараёнда қатнашиши учун стерженлар лента эни бўйлаб икки қатор шахмат тарзида жойлаштирилди,

- қаторлар орасидаги масофа конструкция ихчам бўлиши учун $d=15$ мм қабул қилинди,

- конструкция янада ихчам бўлиши учун эластик стерженлар юқорига шарнир орқали эмас сифатли синтетик ип билан осиб қўйилди,

- стержен билан лента орасидаги масофа чигит қисилиб қолмаслик учун унинг узунлигидан ортиқ бўлиши керак (15-20 мм)



Расм-5. Стерженларнинг жойлашиш схемаси.

Тажриба натижалари қўйидаги 1-таблицада келтирилган (фоиз ҳисобида)

1-таблица

Вариантлар	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Стерженсиз	57	64	52	61	69	70	48	69	67	49
Стерженли	78	70	66	76	72	69	67	69	75	77

Таблицадаги натижалардан кўришиб турибдики, стерженлар ўрнатилган вариантда кўпроқ чигитлар ёнбош ёки тескари жойлашишади. Бу ҳолат эса калорифердан қуритиш учун келаётган иссиқ ҳавонинг чигитнинг буткул қуримай қолган қисмининг ҳам муваффақиятли қуришига олиб келади. Шунини таъкидлаш керакки, қуритилган чигитлар қопга солингандан сўнг фермер даласига экилгунча қандайдир вақт ўтади. Бу вақт давомида қопчиқда буткул қуримаган чигитларнинг бир қисми бир жойда тўпланиб қолиши мумкин. Бу тўдалар сони қанча ва улар нечта чигитларни жамлаб олишини аниқлашнинг иложи йўқ аммо аммо бу ҳолат бўлишини биламиз. Бу тўдалар сонининг камайишига стерженлар ижобий таъсирини кўрсатди, яъни ҳосилдорлик 2,5 фоизга ошди. Нима сабабдан бу ютуққа эришилганини анализ қилайлик. Тупроққа тушган чигит агар буткул талаб даражасида қуруқ бўлса унга нам тупроқдаги суюқликлар кира бошлайди. Аввал суюқлик чигит сиртидаги химоялайдиган-оziқлантирадиган адгезия қобикка таъсир этади. Чигит қуруқ бўлгани сабабли тупроқдаги зарарли моддалар билан қурашиб филтёр вазифасини бажариб чигит ядросига фақат керакли индигриентни ўтказди холос ва чигитнинг ўниб чиқиши муваффақиятли амалга ошади. Агар тупроққа тушган чигитнинг намлик даражаси нормадан юқори бўлса, у ҳолда чигитнинг қобиғи нам бўлгани

учун тупроқдаги зарарли суоқликлар чигит намлик суоқлиги билан аралашиб ягона аралашма ҳосил қилади, бу аралашмада зарарли компонентларнинг концентрацияси кўпайиб кетади, натижада ифлос қоришма чигит ядросига киради ва ўзининг салбий хислатларини кўрсатади, натижада чигитнинг ўниб чиқишига, ривожланишига, ҳосилдорлигига таъсир кўрсатади.

Хулоса: Юқоридаги тажриба ва илмий изланишлардан келиб чиқиб бу борада қуйидаги хулосага келиш мумкин бўлади, яъни қуриштириш жараёнида иссиқ ҳаво қобиқланган чигитни унинг ташқи юзаси бўйича бир хил таъсир этиши шарт. Биз таклиф этаётган таклиф бу муаммони ечишни анча енгиллаштиради. Аммо келажакда янада афзалроқ усуллар устида иш олиб бориш талаб қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Эргашев Р.Р. Обоснование режимов и параметров комбинированного способа сушки дражирования семян хлопчатника. Диссертация на соискания ученой степени кандидата технических наук. Январь-1990, стр. 41-64.
2. Михеев Д.А., Дражирование семян сахарной свеклы центробежным дражиратором с лопастным отражателем. Монография. Горки. БГСХА 2017 год. стр. 48-75.
3. Худайбердиев А.А. ва бошқалар. “Пути усовершенствование сушильного устройства для сушки дражированных семян хлопчатника”. Жиззах Политехника институти “Ишлаб чиқаришга инновацион технологияларни жорий этиш ва қайта тикланадиган энергия манбаларидан фойдаланиш муаммолари” Республика миқёсидаги илмий-техник анжуман нинг материаллар тўплами. 02.02.2021 йил. Жиззах. 116-118 бетлар.
4. Худайбердиев А.А. “Қобиқланган чигитларни такомиллаштирилган қуриштириш қурилмаси”. Жиззах политехника институти. Халқаро миқёсидаги илмий-техник анжуман материаллари “Ишлаб чиқаришнинг техник муҳандислик ва технологик муаммолари инновацион ечимлари. 2021 йил. 550-552 бетлар.
5. Худайбердиев А.А. “Эластик стерженнинг ўрнатилиш параметрларини аниқлаш”. “Экономика и социум” журнали. №6 30.06.2022. стр. 402-405.
6. Худайбердиев А.А. “Юқорига осилган эластик стержен параметрларини аниқлаш”. “Экономика и социум” журнали. №6 30.06.2022. стр. 396-401.

Уразов К.Б.
Самарқанд иқтисодий ва сервис
институтини профессори
Хурозов А.М.
магистрант

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА САВДО ФАОЛИЯТИ СОЛИҚ АУДИТИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ

Аннотация. Мазкур мақолада рақамли иқтисодиёт шароитида савдо фаолияти солиқ аудитини ташкил қилиш ва ундаги муаммоларни бухгалтерия ҳисобида ва ҳисоботларида туғри юртилиши олиб бориши ёритилган.

Калит сўзлар: рақамли савдо, ташқи савдо, ички савдо, улгуржи товар, чакан товар, ялпи ички маҳсулот, солиқлар аудити, ташқи аудит, солиқ назорати.

Urazov K.B.
professor
Khurozov A.M.
graduate student
Samarkand Institute of Economics and Service

ORGANIZING A TAX AUDIT OF TRADE ACTIVITIES IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract. This article describes the organization of a tax audit of trade activities in the conditions of the digital economy and the correct identification of its problems in accounting and reports.

Keywords: digital trade, foreign trade, domestic trade, wholesale goods, retail goods, gross domestic product, tax audit, external audit, tax control.


Ҳозирги вақтда “солиқ аудити” тушунчаси мамалакатимиз ва хорижий адабиётларда тез-тез ишлатиладиган тушунча бўлиб қолмоқда. Бироқ, меъёри ҳуқуқий ҳужжатларда ҳам, иқтисодий адабиётларда ҳам “солиқ аудити” тушунчаси ҳар хил талқин қилинмоқда.

Солиқ аудитининг муҳимлигини Т. Д. Барсулая қуйидагича ифодалайди: ҳозирги вақтда аудиторлик хизмати турлари ичида солиқ аудитига кўпроқ эҳтиёж туғилмоқда. Экспертларнинг баҳолашича Россия аудиторлик компаниялари тушумининг 30 фоизи солиқ аудитига тўғри келмоқда.⁴¹

41 Барсулая Т.Д. Налоговый аудит. Учебник: учебное пособие / Барсулая Т.Д. — Москв: Русайнс, 2019. — 582 с. — ISBN 978-5-4365-3384-1. — URL: <https://book.ru/book/932100> (дата обращения: 14.12.2019).

Яна бир Россиялик иқтисодчи Л.В. Усатова ўзининг илмий ишларида солиқ аудитини қуйидагича эътироф этган: “Солиқ аудити-бу бухгалтерия ва солиқ ҳисобларининг ҳолатини, шунингдек ташкилотларнинг солиқлар ва йиғимлар бўйича ҳисоб китобларини мустақил текширишдир”.⁴²

Жаҳон амалиётида ҳам, мамлакатимизда ҳам молиявий назоратнинг турларидан бири бўлиб солиқ назорати ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Солиқ кодексининг 135-моддасида солиқ назоратига таъриф берилмасада, у қуйидагича эътироф этилган: “Ваколатли органларнинг солиқ тўловчилар ва солиқ агентлари томонидан солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилиши устидан назорат қилишга доир фаолияти солиқ назоратидир”.⁴³ Ушбу кодекснинг 136-моддасида солиқ назоратини қуйидаги шаклларда солиқ текширувлари; солиқ мониторинги шаклида амалга ошириш кўзда тутилган.⁴⁴ Шунингдек, Кодекснинг 137-моддасида солиқ текширувларининг қуйидаги



1-расм. Солиқ текшируви турлари

Илмий изланишлар шуни кўрсатмоқдаки, иқтисодчи ва мутахасислар “солиқ аудит”ини аудитнинг бир тури, ички аудит, хизмат кўрсатиш тури сифатида ҳар хил талқин қилишмоқда. Масала, О.А. Миронова ва А.Ф. Ханафеевларнинг фикрича, солиқ аудити аудитнинг бир туридир, “тегишли хизматлар” эмас. Бу муаллифлар ўзларининг фикрларини давом эттириб,

42 Усатова Л.В. Организация процесса налогового аудита расходов. Журнал экономического анализ: теория и практика, 2008, 24 (129), 26-31стр

43 Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Солиқ кодекси. ЎРҚ-599, 2019-йил 30-декабрь.

44 Шу ерда.

солиқ аудити доирасида солиқ режалаштириши амалга оширилади, бюджет билан ҳисоб-китоблар назорат қилинади, шунинг учун ҳам аудиторлик ташкилотлари томонидан ўтказиладиган ташқи аудитнинг мустақил тури деган хулоса қилишади.⁴⁵ Д.В. Орлов эса, солиқ аудитини солиқ тўловчиларга кўрсатилаётган алоҳида хизмат тури сифатида моҳиятини очишга ҳаракат қилган.⁴⁶

Халқаро амалиётда солиқ аудитини ўтказишда аудитнинг халқаро стандартларидан кенг фойдаланинади. Солиқ аудитини ўтказишда қуйидаги аудитнинг халқаро стандартларидан ” АХС 200 “Мустақил аудиторнинг умумий мақсадлари ва аудитни Аудитнинг халқаро стандартларига мувофиқ ўтказиш”, АХС 800-«Махсус масалалар-махсус мақсадли асосларга мувофиқ тайёрланган молиявий ҳисоботлар аудити», Аудитнинг Халқаро Стандарти (АХС) 805 “Махсус масалалар – айрим молиявий ҳисоботлар ҳамда молиявий ҳисоботдаги махсус элементлар, сўтлар ёки моддалар аудити”.

Биринчидан савдо, умумий овқатланиш ёки хизмат кўрсатиш шохобчасида НКТ ва тўлов терминалларида фойдаланиш қоидаларига риоя этилишини текшириш.

Иккинчидан назорат хариди ҳуқуқбузарлик содир этилганлиги тўғрисида мурожаат этган жисмоний шахс ёки “яширин харидор” хизматини кўрсатувчи юридик шахс амалга ошириб чиқаётган харидор кўрсатмаси асосида амалга оширилади.

Учинчидан назорат хариди бўйича баённома тузиш ва унда НКТдан фойдаланилганлиги ва тўловларни банк пластик карточкалари орқали қабул қилинишини текшириш

Тортинчидан солиқтўловчининг кассаларида мавжуд нақд пул қолдиғини санаб кўриш, назорат-касса техникаси хотирасига киритилган нақд пул суммаси билан солиштириш.

Бешинчидан онлайн назорат-касса техникалари ва виртуал касса ўрнатилиши шарт бўлган савдо, хизмат кўрсатиш ва умумий овқатланиш шохобчасида қурилмаларни қўллаш қоидаларига риоя этилишини назорат қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бухгалтерия ҳисобининг миллий ва халқаро стандартлари (МХМС ва МҲХС)

45 Миронова О.А., Ханафеев А.Ф. Развитие налогового аудита: проблемы и перспективы / О. А. Миронова, А. Ф. Ханафеев // Аудиторские ведомости. - 2014. - №5. - С. 27 – 37.

